

METODIST

ILMIY-INNOVATION, METODIK JURNAL

2024-YIL 1-SON



METODIST

ILMIY-INNOVATSION, METODIK JURNAL

2024

1-son

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
ro'yxatga olingan. Guvohnoma №229146,





MUNDARIJA

BOSH MUHARRIR MINBARI

Husanboyeva Q. Adabiyot o'qitish metodikasi fan(mi?)..... 3

METODIKA: MUAMMO VA YECHIMLAR

Qodirov V. Metodika – muammolar qulfining kaliti (adabiyot o'qitish muammolari xususida mulohazalar)..... 14

Hamroyev G'. Ona tili ta'limida o'quv materiallarini tanlash, o'qitish hamda baholash masalalari: muammo va yechimlar..... 26

ADABIY TA'LIM LABORATORIYASI

Qambarova S. Adabiyot o'qitishda virtual ta'lim imkoniyatlari..... 33

Nurmuhammadov J. Adabiy laboratoriyada badiiy asar qahramonlarining mizoji (temperament)ni aniqlash mashg'ulotini tashkil etish tajribasi..... 43

O'QUV TOPSHIRIQLARI

To'ychiyeva M. Blum taksonomiyasini bir ruboiyni o'rganish misolida qo'llash 53

Hazratqulov M. Boshlang'ich sinf “ona tili va o'qish savodxonligi” darsligidagi mavzular ustida ishlash usullari..... 61

Абдувалитов Е. Оқушыларды шығарма жазуға қалыптастырудың кейбір жолдары..... 70

TADQIQ, TAHLIL VA TAVSIYA

Yuldosheva S. Kam komplektli sinflarda mustaqil ishlarni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari..... 79

Mahmudov R. Notiqlik san'ati va nutq madaniyati fanini o'qitishning dolzarb masalalari..... 89

Sultonov A. Milliy mumtoz musiqa san'ati namunalarini idrok ettirish usullari..... 98

Юсупов Қ. Академиялық лицейлерде Т. Қайыпбергенов дәретіушилигин оқытыу методикасы..... 109

Yusupov I. Joqarı klasslarda romanlardı tallaw máseleleri..... 120

Toymbayeva D. Uzluksiz ta'lim tizimida ekologik madaniyatni shakllantirish..... 124

Shodmonov T. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda autentik materiallarning o'rni..... 131

Rustamova L. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-Abror” dostonini o'rganish bo'yicha tavsiya..... 138

O'RGANISH BO'YICHA TAVSIYA

Abdiraimov Sh. Ona tili ta'limida o'qib tushunish ko'nikmasini baholash asoslari..... 144

*Mualliflarning fikrlari tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.
Maqolalardagi fikr va mulohazalarning haqqoniyligi va to'g'riligiga mualliflar mas'uldirlar.*





BOSH MUHARRIR MINBARI

ADABIYOT O‘QITISH METODIKASI FAN(MI?)



Qunduzxon Husanboyeva

Pedagogika fanlari doktori,

SamDU professori

e-manzil: qunduz56@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada adabiyot o‘qitish metodikasining fan sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlari va buning ilmiy-nazariy asoslari hamda amaliy jihatlari borasida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *metodika, fan, maqsad, vazifa, obyekt, predmet, mazmun, nazariy asos, amaliy xususiyat.*

Milliy pedagogika ilmi va amaliyotida ko‘p zamonlardan beri ta‘lim tarbiyadan ustuvor ahamiyat kasb etib kelmoqda. Jamiyatda “tarbiyani oilada ota-ona beradi, maktab ta‘lim beradi” degan yanglish bir qarash ustuvor bo‘lib qoldi. Ming yillardan beri ta‘lim va tarbiyani uyqash holda amalga oshirib kelgan milliy tarbiyashunoslik bugun yana asl ildizlariga qaytishiga ehtiyoj sezilmoqda.

Yurt mustaqilligiga erishilgandan keyin nafaqat ijtimoiy-siyosiy hayotda, balki ta‘lim-tarbiya jarayonida ham jiddiy o‘zgarishlar amalga oshirila boshlandi. Ta‘lim va tarbiyada bo‘y ko‘rsatgan mana shu bo‘shliq bugun o‘z salbiy natijalarini bermoqda va buni hamma sezib, ko‘rib turibdi. Bugun, mustaqillikning chorak asri bosqichida milliy ildizlarga qaytish – ta‘lim va tarbiyaga bir og‘ochning ikki shoxi sifatida yondashish



ehtiyoji paydo bo'ldi. Ya'ni ma'naviy komillik sari yuz burgan avlodni shakllantirishda ta'lim qanchalik ahamiyatli bo'lsa, tarbiya ham undan ortiq bo'lsa borki, kam emasligi ayon bo'ldi.

Gap shundaki, shakllanib kelayotgan yosh avlodning ma'naviyatini sog'lomlashtirish, ularga bilimlarni tayyor holda berishdan ko'ra mustaqil fikrlashga yo'naltirish va ta'lim jarayonida o'quvchilarni mute ijrochilikdan erkin ishtirokchi darajasiga ko'tarishning yangi-yangi yo'llari qidirilmoqda. O'qitishning asosiy ashyolari bo'lmish darslik, metodik qo'llanma, metodik tavsiyalarni yangilash va takomillashtirish bilan birga ruhan sog'lom, aqlan barkamol, o'z fikri hamda qarashlariga ega bo'lgan avlodni tarbiyalash ham ustuvorlik kasb etmoqda. Yoshlar tarbiyasida bir xil fikrlaydigan, yagona xulosaga keladigan avlodni shakllantirish davri o'tdi va buning o'rniga ma'naviy sifatlarning yetakchiligi, bola tuyg'ularining injaligi, uning ko'ngil istaklari, ma'naviyat shakllantirishda milliy an'analarga tayanish lozimligiga-da diqqat qaratilishi joiz.

Mustaqillikning dastlabki bosqichida ta'lim tizimida paydo bo'lgan ayrim qiyinchiliklar egamanlikning chorak asri davomida ham to'laligicha bartaraf etilmadi. O'tmish tuzumda singib qolgan bir qator illatlardan qutulish uchun ruhiyati mustaqillik davrida shakllangan avlod yetilishi kerak edi. To'g'ri, mustaqillik yillarida tug'ilgan farzandlarning oldi bugun o'ttizdan oshdi. Lekin ularning barchasi shaxs sifatida erkinmi? Ular ruhan ozodmi? Ma'naviyati sog'lommi? Mana shu savollar kishini o'ylantiradi. Ruhan mustaqil bo'lgan, o'z haq-huquqini tanigan, ichida «Men»i bor kishilar tomonidan tarbiyalangan bolalargina tom ma'noda mustaqil shaxs bo'lib shakllanishlari mumkin. Chunki o'zi ma'naviy noto'kis, umuminsoniy va milliy qadriyatlardan yiroq, fikran qashshoq ota-ona ham, o'qituvchi-tarbiyachi ham o'zgalarni aqlan, ruhan sog'lom qilib tarbiyalay olmaydi. Ya'ni «har qanday tarbiya avval tarbiyachini tarbiyalashdan boshlanishi» kerak bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, avlodlarni milliy qadriyatlar asosida ma'nan sog'lom qilib tarbiyalashda badiiy adabiyotning o'rni beqiyos. Lekin badiiy asardagi kitobxon shaxsiga ijobiy ta'sir

ko'rsatishi mumkin bo'lgan jihatlar, matnda aks etgan hayotiy va badiiy haqiqatlarni ilg'ash, asardagi yetakchi g'oyalarni, muhimni nomuhimdan farqlab ularni o'quvchi ko'ngilini tozalashga xizmat qildirish, tabiatiga singdirish jarayoni o'qituvchiga ham, shakllanib kelayotgan shaxsda ham osonlik bilan kechadigan jarayon emas. Ta'lim-tarbiya tizimida bu kabi murakkab va mas'uliyatli ishlarni amalga oshirish «Adabiyot o'qitish metodikasi» deb nomlanuvchi fan va o'z kasbini yaxshi ko'radigan, yaxshi biladigan, ayni zamonda, sinfdagi har bir o'quvchini o'z bolasidek anglaydigan o'qituvchining zimmasida.

Shu ma'noda, Adabiyot o'qitish metodikasi alohida fan sifatida pedagogik fanlar tizimiga mansub o'laroq qo'yiladigan uch talabning barchasiga javob bera oladi [1, 11–12-b.].

Birinchidan, uning o'rganadigan o'z sohasi mavjud va bu soha ilmdagi boshqa biror fan tomonidan o'rganilmaydi. Ma'lumki, ta'lim tizimida ko'p o'quv fanlari o'quvchiga bilim beradi: matematika, fizika, kimyo, ona tili va hk. Ayrimlari o'quvchini kasbga yo'naltiradi: texnologiya, informatika, tasviriy san'at, musiqa va hk. Adabiyot ta'limning barcha bosqichlarida o'quvchi-tarbiyalanuvchining ko'ngliga “ishlaydi”.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilar kichik-kichik she'rlarni yodlarkan, ertak qahramonlariga ergashib maza qilib kularkan, ularga achinib yig'lar yoki dili og'rirkan, bu jarayonda anglanib-anglanmay tuyg'ular shakllana boradi. Munosabat paydo bo'la boshlaydi.

Boshlang'ich sinflar darsliklarida taqdim etilgan badiiy matnlar ustida ishlash to'g'ri tashkil etilsa, bu yoshdagi o'quvchilarning hissiyotlariga so'z orqali to'g'ri ta'sir ko'rsatilsa, o'quvchining ruhiy muvozanati buzilsa, qahramonlardan o'z ideallarini yasab borsa, bu – Shaxs shakllanish jarayoniga qo'yilgan poydevor bo'ladi.

O'rta va yuqori sinflarda o'zini anglashga intilayotgan o'smirlar shoir-yozuvchilarning asarlari qatiga berkitilgan tuyg'ulari tasvirini his qilar ekan, badiiy asarlar qahramonlari tutumlari,

tabiati, shodlig-u qayg‘ulari, baxti-yu baxtsizliklari va dardlarini tahlilga tortib, ularni muhokama qilib, xatolari va kamchiliklarini baholab o‘z xulosalarini chiqararkan, munosabat bildirarkan, o‘quvchi o‘zgalar misolida o‘zini anglay boshlaydi. O‘zini o‘zi tarbiyalay boshlaydi. Mustaqil hayotga tayyorlana boradi.

Oliy adabiy ta‘lim o‘z mazmun-mohiyati bilan tubdan farq qiladi. U yerda barcha fanlar o‘quv fani emas, har xil yo‘nalishlarda ta‘limning maqsadidan kelib chiqqan holda fan sifatida o‘rganiladi. Shu jumladan, adabiyot ham, adabiyot o‘qitish metodikasi ham alohida-alohida fan sifatida o‘qitiladi. Ularni o‘zlashtirishga yondashuv ham boshqacha bo‘ladi.

Ikkinchidan, adabiyot o‘qitish kechimi o‘quv fani sifatida ishlaydigan soha, ya‘ni adabiy ta‘limning har bosqichi (maktabgacha, boshlang‘ich, o‘rta, yuqori va kasb-hunar ta‘limi)da badiiy asarlar ustida ishlashning optimal va samarali yo‘llarini tadqiq etish, adabiy ta‘limning nazariy asoslarini ishlab chiqish ulkan ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Barchaga ma‘lumki, ta‘limning har bosqichida tarbiyalanuvchi-o‘quvchilarning intellektual imkoniyati har xil bo‘ladi. Yildan yilga jismonan o‘sib-ulg‘ayib borayotgan bolaning ruhiyatida ham, ta‘limga, adabiyotga munosabatida ham muntazam o‘zgarish sodir bo‘lib boradi. Ta‘limning har bosqichida, har bir sinfda, har bir o‘quvchining yosh psixologiyasi, qiziqishlari, intellektual imkoniyatlari, qobiliyati va iqtidorini nazarda tutish taqozo etiladi va adabiyot o‘qitish metodikasi fan sifatida bularning har birini alohida-alohida inobatga olgan holda ish ko‘radi.

Uchinchidan, adabiyot o‘qitish metodikasi fan sifatida o‘ziga xos tadqiqot obyekti, predmeti, maqsad-vazifalari, mazmuni va usullariga ega.

Gap shundaki, adabiyot o‘qitish metodikasi badiiy adabiyotni o‘qish-o‘rganish jarayoni bilan bog‘liq qonuniyatlarni o‘rganadi. Unda adabiyotshunoslik bilan pedagogikaning ayrim xususiyatlari uyg‘unlashadi. Ya‘ni adabiyotshunoslik alohida fan sifatida adabiyot tarixi, nazariyasi va adabiy jarayon muammolari bilan shug‘ullansa, pedagogika bola tarbiyasi qonuniyatlari bilan

mashg'ulligi ma'lum. Ammo bu ikkala fan ham uzluksiz ta'lim jarayonida adabiyotdan nima, qancha va qanday o'qitilishi kerakligi masalasini hal qilib bera olmaydi. Adabiyot o'qitish metodikasi ilmi alohida fan sifatida har ikki soha xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Ma'lumki, inson dunyoga kelishi bilan adabiyotga oshno bo'ladi. Ya'ni ilk kunlardanoq uning qulog'i orqali ruhiyatiga ona allasi kirib boradi. Alla – adabiyot. Odam butun hayoti davomida ertak eshitadi, badiiy asar o'qiydi, she'r eshitadi, g'azal yodlaydi, gazeta-jurnal o'qiydi va hk. Bularning barchasi adabiyot. Inson o'ziga belgilab berilgan umrni yashab o'tarkan, uni so'nggi yo'lga kuzatishda yaqinlarining yo'qlov yig'isi, marsiyalar yo'ldoshlik qiladi. Bu ham adabiyot. Demak, adabiyot insonning butun umri davomida unga hamrohlik qiladi.

Lekin shu narsa ham ayonki, ertaklarni eshitib qo'ya qolish, she'rlarni yodlash yoki topishmoqlarni topish odam ma'naviy kamolotiga o'zidan-o'zi to'liq ta'sir ko'rsata olmaydi. Adabiyot bilan ishlash yo'llariga, ya'ni adabiy ta'lim metodikasiga ota-ona ham, tarbiyachi ham, o'qituvchi ham o'ziga xos tarzda ehtiyoj sezadi. Odamning ko'ngliga – undagi Allohning mulkiga ijobiy tuyg'ularni olib kiradigan, ruhiyatini sog'lomlashtiradigan, ma'naviyatini tozalaydigan adabiyotdan to'g'ri foydalanishni ham bilish kerak. Bu – metodika. Badiiy adabiyotdan to'g'ri foydalanish shakllanib kelayotgan shaxsning ma'naviy kamoloti garovidir. Ko'rinadiki, adabiyot bilan ishlash metodikasining mavqei inson kamoloti uchun adabiyotning o'zidan ortiq bo'lsa ortiq, lekin kam emas.

Inson o'z umrining turli bosqichlarida jisman ham, ruhan ham, aqlan ham turlicha taraqqiy topishi, har birining o'ziga xos tarzda rivojlanishi psixologiya ilmida isbotlangan. Ayni zamonda, har davrda inson o'ziga xos mazmundagi adabiyotga ehtiyoj sezadi. Masalan, hayotining maktabgacha bo'lgan bosqichida har qanday bola ma'naviyatini sog'lomlashtirishda maktabgacha adabiy ta'limning o'ziga xos o'rni bor. Tarbiyachi tomonidan adabiyotni to'g'ri idrok etishga yo'naltirilgan bola ilk marta diqqat bilan

eshitishga, eshitganlarini uqib olishga, mustaqil ishlashga, o'zgalarning fikrlarini ilg'ashga, o'zi va boshqalarning tuyg'ular olamini kuzatishga, o'zgani tuyishga o'rgana boradi. Olamni, Odamni va O'zligini kashf qila boshlaydi. Bu bola o'z ichki “men”ining shakllanishida o'zi bevosita ishtirok etadigan, ma'lum bir tizimga solingan dastlabki pedagogik-metodik jarayon hisoblanadi.

Shu ma'noda, badiiy asarlar ustida ishlashga bag'ishlangan mashg'ulotlarda taqdim etilgan o'quv materiallari mazmunan ta'lim-tarbiya jarayoni oldiga qo'yilgan maqsadlarga mutanosib bo'lishi taqozo etiladi. Ya'ni maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari bilan birgalikda ishlash uchun mo'ljallangan har qanday badiiy asar o'quv materiali sifatida o'z mazmun-mohiyati, didaktik xususiyatlari bilan har xil guruhlardagi eng ilg'or tarbiyalanuvchidan ham bir pog'ona balandda turishi, shu bola ham o'quv materiali ustida ishlaganda, ular didaktik tahlilida ishtirok etganda o'zi uchun qiziqarli ma'lumotlarni olishi, ma'lum maqsadlarga erishishda bu o'quv materiali tayanch vazifasini o'tashi maqsadga muvofiqdir. Bu maktabgacha adabiy ta'limning vazifasi.

Bola maktabgacha ta'limni yakunlab maktabning boshlang'ich bosqichiga o'qishga kirganda uning nafaqat jismoniy, balki ruhiy-ma'naviy taraqqiyotida ham katta o'zgarish sodir bo'ladi. Kamiga uning erkaliklari-yu injiqliklari bilan hisoblashmaydigan maktab qonun-qoidalari bolaning mustaqilligi va erkiga chek qo'yadi. Endi u o'quvchiga aylanadi va bu tartibga bo'ysunishga majbur bo'ladi. Mana shu murakkab sharoitda u o'qituvchisiga suyanadi va uni eng bilog'on shaxs deb hisoblaydi. O'qituvchisining aytganlariga so'zsiz quloq osish, ishonish, unga o'xshashga intilish – boshlang'ich sinf o'quvchilariga xos bo'lgan umumiy xususiyat. Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun o'qituvchi – ideal shaxs. U o'qituvchisi talablariga ixtiyoriy ravishda, astoydil bo'ysunadi.

Kichik o'quvchilarning ko'pchiligi o'qituvchisining ko'rsatmalarini kutishga moyil bo'ladi. O'qituvchi nimani va qanday o'qitishidan qat'i nazar, uni haqiqat deb hisoblaydi va bilib

olishga intiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nazarida o'qish – ko'r-ko'rona ijrochilik, o'qituvchisiga taqlid, ustozni aytganlarini takrorlashdan iboratday tuyuladi. Mazkur davr pedagogik jihatdan bolada insoniy sifatlarni shakllantirishda o'qituvchi uchun eng qulay bosqich sanaladi. Va bu bosqichda ham adabiyotning o'z beqiyos o'rni bor. Undan maqsadga muvofiq foydalanishni bilish, ya'ni boshlang'ich adabiy ta'limni to'g'ri tashkil eta bilish o'qituvchining pedagogik burchidir.

Ko'rinadiki, adabiyot o'qitish kechimi ta'limning har bosqichida o'z ish faoliyatiga ega bo'lgan, o'ziga xos yondashuvni talab qiladigan uzluksiz va uzviy jarayondir.

Fikrni davom ettirib aytish mumkinki, bizgacha yaratilgan soha darsliklari [2; 3; 4.]ga tayangan holda adabiyot o'qitish metodikasi fanining **obyektini** tarbiyachi-o'qituvchi va tarbiyalanuvchi-o'quvchi shaxsi, taruzluksiz ta'lim tizimidagi mashg'ulotlar, o'qish savodxonligi va adabiyot darslari, deya ko'rsatish mumkin.

Mazkur fanning **predmeti** esa uzluksiz ta'lim tizimida badiiy adabiyotning o'qitilishiga doir didaktik ashyo («Adabiyot» darsliklari, yo'ldosh darsliklar, o'quv qo'llanmalar, metodik qo'llanmalar, amaliy tavsiyalar)lar va qonuniyat (har bosqichda badiiy asarlar bilan ishlashga xos bo'lgan yosh psixologiyasi, har bir tarbiyalanuvchining qobiliyati, iqtidori va intellektual imkonimiyatlarini hisobga olish)lar hamda badiiy asarni o'rganishda o'qituvchi-o'quvchi munosabatlaridagi o'ziga xosliklar jarayonidir.

Adabiyot o'qitish metodikasi fanining **maqsadi** adabiyot o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish, unga yoshlar ma'naviyatini qaror toptirishda badiiy asarning ta'sir kuchidan oqilona, optimal (eng oson, qulay, ma'qul) va samarali foydalanish yo'llarini o'rgatish, bu jarayonda har bir o'quvchiga shaxs sifatida yondashib uni xuddi o'zi singari ta'limning subyekti darajasiga ko'tarishdan iborat.

Adabiyot o'qitish metodikasining fan sifatidagi **vazifalari**:

- adabiyot darslarining ta’lim muassasalarida o’rganiladigan boshqa o’quv fanlaridan farqini o’qituvchilarga ko’rsatib berish;
- adabiy ta’limdagi an’anaviy va novatorlik yondashuvga xos jihatlarni o’rganish;
- pedagoglarda adabiy ta’lim uchun optimal variantlarni belgilashda zarur bo’ladigan ko’nikmalarni shakllantirish;
- adabiyot darslarida o’qituvchi va o’quvchi faoliyati hamda ularning o’zaro munosabatidagi o’ziga xosliklar bilan tanishtirish kabilarni o’z ichiga oladi.

Shundan kelib chiqiladigan bo’lsa, adabiyot o’qitish metodikasi fanining vazifalari o’qitish jarayonida ta’limning samarali metod va usullaridan foydalanish yo’llarini o’rgatish, badiiy asar tahlilida o’quvchi ma’naviyatiga ijobiy ta’sir ko’rsatadigan jihatlarni ochish hamda undan maqsadga muvofiq tarzda foydalana bilishga yo’naltirish jarayonini ham qamrab oladi.

Adabiyot o’qitish metodikasi fanining **mazmuni** ta’lim texnologiyalari, metodlari, usullari, shakllari va ularning o’ziga xos xususiyatlari, badiiy asar bilan bog’liq nazariy hamda didaktik tushunchalar, har xil janrlarga mansub adabiy matnlar bilan ishlash yo’llari, didaktik tahlil xususiyatlari va bu jarayonda o’qituvchi-o’quvchi munosabatlaridagi o’ziga xosliklar, o’qituvchining vazifalari, o’quvchilarning vazifalari va har ikkisining faoliyatini to’g’ri tashkil etish yo’llarini o’z ichiga oladi.

Adabiyot o’qitish metodikasi fanining **ilmiy-tadqiqot metodlari** qatoriga:

- fanga doir ma’lumot yig’ishning aniq maqsadga yo’naltirilganligi;
- ilg’or tajribalarni o’rganish, tahlil qilish va ommalashtirish, ta’lim hujjatlarini tahlil qilish, o’qituvchi hamda o’quvchilar bilan individual suhbatlar tashkil etish kabilarni o’z ichiga oladigan kuzatish;
- sinalmagan pedagogik hodisalarni har xil sharoitlarda o’rganish maqsadida qo’yilgan ilmiy tajriba ko’rinishidagi eksperiment;

- ma’lum maqsadga yo’naltirilgan, aniq sharoit va tartibda o’tkaziladigan, o’quvchilarning ta’limiy hamda rivojlanish darajasini aniq o’lchaydigan tekshiruv tizimi bo’lmish test;

- o’quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishga yo’naltirilgan bayon, insho va boshqa mustaqil hamda ijodiy ishlar;

- ma’lumotlarni oldindan maxsus tayyorlangan savollar va anketalar ko’magida yalpi tarzda yig’ish shaklidagi anketa so’rovnomalari;

- ta’lim jarayonining son ko’rsatkichlari aniqlanishiga yo’naltirilgan statistik tahlil;

- metodik merosni tanqidiy o’rganish;

- o’quvchi ijodi namunalari o’rganish va hk.larni kiritish mumkin.

Adabiyot o’qitish metodikasi adabiy ta’limning metod va usullari haqida to’liq bilimga ega bo’lish, har qanday badiiy matnni ham ilmiy-filologik, ham didaktik, ham o’quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tahlil eta olish, adabiyot darslarini samarali tashkil eta bilish, o’quvchilar bilan professional muloqotga kirisha olish yo’llarini o’rgatishni ham o’z zimmasiga olgan fandır.

Bu fan:

- ona tili va birorta chet tilda shaxslararo hamda madaniyatlararo masalalar yuzasidan og’zaki va yozma ravishda kommunikativ aloqaga kirisha olish;

- jamoa bilan ishlashda ularga xos bo’lgan ijtimoiy, etnik, madaniy va diniy tafovutlarga bag’rikenglik bilan yondasha olish;

- filologik yo’nalishdagi ilmiy bilimlarni o’zlashtirish jarayoniga oqilona rahbarlik qilish;

- maktab yoki boshqa ta’lim muassasalarida adabiyotdan sinfda va sinfdan tashqari ishlarni to’g’ri tashkil eta bilish;

- adabiyot mashg’ulotlarini mavjud ilg’or metodlar asosida tashkil qilish uchun zarur bo’lgan o’quv-metodik va didaktik tarqatma materiallarni tayyorlash;

- o‘quvchilarga adabiyotdan ta’lim berish va tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish;
- professional faoliyatda har bir o‘quvchi shaxsiga xos bo‘lgan individual xususiyatlarni bilish va adabiy ta’lim amaliyotida qo‘llay olish bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga imkoniyat yaratadi.

Adabiyot o‘qitish metodikasi fan sifatida o‘qituvchining o‘quv jarayonini boshqarishdagi faoliyati va o‘quvchining bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga qaratilgan bilish faoliyati mezonlarini ham belgilab beradi. Adabiyot bo‘yicha o‘quv-metodik majmualarni yaratishda mutaxassislar eng boy adabiyot xazinasidan o‘rin olgan asarlar orasidan maktabda o‘rganilishi ko‘zda tutilgan bitiklarni saralashning ilmiy mezonlarini tavsiya etadi, adabiy ta’lim uchun eng samarali bo‘lgan texnologiyalar, metod va usullarning xususiyatlarini ochib beradi.

Bundan tashqari, adabiyot o‘qitish metodikasi bir fan sifatida darsliklarda taqdim etilgan o‘quv materiallari ustida ishlashning asosiy didaktik unsurlaridan biri bo‘lgan matn mazmuni asosida taqdim etiladigan savol va topshiriqlarning mazmun-mohiyatini ham belgilab beradi. Ya’ni asardagi o‘quvchining diqqatini qaratish kerak bo‘lgan ilohiy, hayotiy va badiiy haqiqatlarni, o‘quvchi shu haqiqatlar haqida o‘ylasa, izlansa, bu haqiqatlar uning xotirasiga emas ruhiyatiga joylashib qolishi, shunday bo‘lganda uni odam sifatida shakllanishiga o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan jamiki haqiqatlarni savol yoki topshiriqqa aylantirib ularga o‘quvchilarning diqqatini qaratish, o‘quvchini shu haqda mulohaza yuritishga yo‘naltirish tizimini ham o‘rgatadi. Gap shundaki, matn mazmuni asosida tuzilgan, o‘quvchilarni mustaqil, mantiqiy va analitik fikrlashga yo‘naltiruvchi savol va topshiriqlar o‘quvchini, keyinchalik esa millatni ko‘taradi. Bugungi har bir o‘quvchi ertaga millatning bir vakili bo‘ladi va o‘z baland shaxsiyati, keng dunyoqarashi, mustaqil fikri va shaxsiy qarashlari bilan mamlakatni ko‘taradi.

Bundan tashqari, adabiyot o‘qitish metodikasi faning zimmasida o‘quvchilarni adabiyotga qiziqтира olish yuki hm bor.

Xo'sh, bu qanday amalga oshiriladi? O'qituvchi o'z kasbi va fanini qancha ko'p va xo'p bilsa, qay darajada yaxshi ko'rsa, bilganlarini tarbiyalanuvchilariga to'g'ri yetkaza olsa va bu bilan o'quvchilarini hayratga sola bilsa, o'quvchilari oldida obro'si, hurmati orta boradi. Metodika ilmida o'qituvchiga bo'lgan muhabbat o'quv faniga nisbatan muhabbat uyg'otadi, degan qarash mavjud. Ya'ni adabiyot o'qituvchisi o'z kasbi va adabiyotga bo'lgan muhabbati bilan o'quvchilarida ham adabiyotga mehr uyg'ota oladi. Ularning ruhiyatida badiiy so'zga, asarlarni mustaqil o'qishga moyillik paydo qiladi.

Umuman, butun ta'lim tizimida, nafaqat adabiyot o'qitish metodikasi, balki barcha o'quv fanlarini maktabda o'qitish kechimida metodika faniga juda katta ehtiyoj mavjud. Har qanday ilim, kashfiyot keyingi avlodlarga yetkizilmas ekan, u sohaning o'zida qolib ketaveradi. Fandagi kashfiyotlarning amaliyotga tatbiqi u yoki bu darajada metodika fani bilan bog'liqdir.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot o'qitish metodikasi ilmi adabiyot bilan ishlashning har bosqichida o'ziga xos ish uslubini talab qiladigan, o'zining ilmiy unsurlariga ega bo'lgan alohida fandir. U bir o'quvchi misolida millatni, millat misolida mamlaktning ko'tarilishini ta'minlashga asos bo'ladigan, buni amalga oshiradigan o'qituvchilarni shakllantirishga xizmat qiladigan fandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Адабиёт ўқитиш методикаси. (Педагогика институтлари ва униерситетларнинг филология факультетлари учун дастурий қўлланма). Тузувчилар: Қ. Йўлдошев, О. Мадаев, А. Абдураззоқов. – Т.: 1994. –42 б.
2. С. Долимов, Ҳ. Убайдуллаев, Қ. Аҳмедов. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: “Ўқитувчи”, 1967. –448 б.
3. А. Зуннунов, Н. Ҳотамов, Ж. Эсонов, А. Иброҳимов. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: “Ўқитувчи”, 1992. –271 б.
4. Б. Тўхлиев. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: “Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси”, 2010. –142 б.
5. Yo'ldosh Q., Yo'ldosh M. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi – T., G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2022. – 298 b.

METODIKA: MUAMMO VA YECHIMLAR

METODIKA – MUAMMOLAR QULFINING KALITI

*Adabiyot o‘qitish muammolari xususida
mulohazalar*



Valijon Qodirov

*Andijon Davlat Pedagogika instituti
professori, pedagogika fanlari doktori*

e-manzil: vqodirov@mail.ru.

Annotatsiya: *maqolada o‘zbek milliy adabiy ta’lim metodikasi ilmi va amaliyotidagi muammolar, ularning yechimlari hamda adabiyot o‘qitishdagi kamchiliklarni bartaraf etish yo‘llari xususida so‘z yuritilgan. Muayyan takliflar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *adabiy ta’lim, metodika, ta’lim standarti, dastur, darslik, o‘quv qo‘llanma, metodik qo‘llanma, malaka oshirish, xususiy malaka oshirish tizimi.*

Muayyan bir xalqning jahon hamjamiyatida tan olingan o‘z o‘rni va ovozigacha bo‘lishida umuminsoniy manfaatlarga mos qadriyatlari, borliqni, hayotni, dunyo voqeliklarini idrok va talqin etishning o‘ziga xos shakl hamda tizimiga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir millat boshqalardan farq qiluvchi yashash tamoyili, fikrlash tarzi bilan o‘zligini ko‘rsatadi va tasdiq etadi. O‘zlikni tasdiq va namoyon etuvchi yorqin vositalardan biri – “millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurg‘on o‘yinay hayoti uning tili va adabiyotidir” [8, 23-b.].

Insonning borliqni go‘zallik o‘lchovlari asosida idrok etib, tom ma‘nodagi odamiylik siyratini kasb etishida so‘z san‘atining ayricha o‘rni va ahamiyati bor. Jamiyat a‘zolarining kitobxonlik darajasi u yoki bu mamlakat aholisining ma‘naviy maqomini belgilovchi yetakchi omillardan biri sifatida olinishi ham bejiz emas. Adabiyot lahzalarda kashf etilgan go‘zallik sirlarini mangulikka muhrlovchi, aql va tuyg‘u uyg‘unlashmasi ila tafakkur va ko‘ngil ufqlarini kengaytiruvchi, ajdodlar axloqiy qarashlari, tajribalarini avlodlar hayoti, yashash tarzida davom etishi va yangilanishini ta‘minlovchi, insonning o‘z botinini kashf etishiga turtki berib, Haqiqat manzillari tomon yetaklovchi bir mayoqdir. Inson hayotining hech bir davri yo‘qki, u adabiyotdan, so‘z san‘ati ta‘siridan mosuvo bo‘lsin. Go‘daklikda ona allasi sehridan orom oladi, bolalikda ertak, qo‘shiq, topishmoqlar ta‘sirida ulg‘ayadi, o‘smirlikda mutolaa zavqini tuyadi, yoshlikda ko‘ngildagi ma‘sum tuyg‘ular ifodasini kitoblardan axtarib, ular bilan sirlashadi.

Adabiyot darslari ana shu jarayonni ongli tarzda muayyan maqsadga yo‘naltiradi, tarbiyalanuvchilarda yuksak badiiy didni shakllantiradi, sara asarlarni puch mag‘izli kitoblardan farqlashni o‘rgatadi, falsafiy qarashlarga boy asarlarni tushunish, ular asosida mushohada yuritish ko‘nikmasini hosil qiladi. Shundagina badiiy adabiyot kishi hayotining ajralmas bo‘lagi, kunlik hayoti mazmuniga aylanib qoladi. Yuksak didli kitobxon kishilar jamiyati ma‘naviy tozaradi, ma‘naviy tozargan jamiyat esa har tomonlama taraqqiy topishi barchaga ayon va tushunarli haqiqatdir.

Respublikamizda mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotiga o‘zini mas‘ul bilgan shaxslar – oddiy xodimdan davlat rahbarigacha madaniy, adabiy merosni xalqimizga, xususan, yosh avlod ongiga singdirishga alohida e‘tibor qaratayotgani ham shundan. Mamlakatimiz rahbari Sh. M. Mirziyoyevning shaxsan o‘zi yurtimizda kitobxonlik madaniyatini oshirishga bosh bo‘layotgani bu masalaga jamiyatimizda ayricha e‘tibor qilinayotganligi dalilidir [8].

Jamiyat kitobxonligining darajasi bevosita adabiy ta'limning sifatiga bog'liq. Sifatli adabiy ta'lim mag'zi to'q bitiklarni farqlash, sara asarlarni o'qish, o'qilganlarni uqish, uqish bilan estetik zavq olish va bu orqali ruhan, ma'nan, aqlan ulg'ayish asosi bo'lib xizmat qiladi. Lekin, ayni paytda, adabiy ta'lim ushbu vazifani ko'ngildagidek uddalayapti deb ayta olmaymiz. Bu borada yillar davomida to'planib qolgan qator muammolar borki, ularni hal qilmay turib ko'zlangan samaraga erishib bo'lmaydi.

Bizningcha, mazkur muammolarning ikki: obyektiv va subyektiv sabablari mavjud bo'lib, ularning biri boshqasining chuqurlashuviga turtki bo'lmoqda. Obyektiv omillar o'qituvchi shaxsiyatidan ko'ra ko'proq ta'lim mazmunini tashkillashtiruvchi muassasalar, direktiv hujjatlar bilan bog'liq. Biz bunda, avvalo, standartlar, dasturlar, darslik va metodik hamda o'quv qo'llanmalarini nazarda tutmoqdamiz.

Mustaqillik yillari adabiyot bo'yicha DTS hamda o'quv dasturlari ishlab chiqilib, bir necha bor takomillashtirildi, darsliklarning bir necha avlodi chop etildi. Mazkur hujjatlar sho'ro davriga nisbatan olinganda inqilobiy degulik darajada o'zgargan, takomillashgan. Ular oldindan belgilab qo'yilgan sun'iy qoliplar asosida emas, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, muayyan darajada jahon ta'lim tizimida erishilgan yutuqlarga asoslangan, yangi pedagogik tafakkurga tayangan holda yaratilgan. O'rganish uchun tanlab olingan asarlarning yuksak badiiy mezonlar talabiga javob berishi, tarbiyalanuvchilarning badiiy didini o'stirishga, ma'naviy olamini shakllantirishga, ularda yuksak axloqiy sifatlar shakllantira olishiga, bolalarning yosh xususiyatiga mos kelishi kabi jihatlarga qarab tanlab olingan. Mazkur davlat hujjatlari, didaktik va metodik ashyolar e'lon qilinib, nashrdan chiqqach, o'z vaqtida matbuotda munosabat bildirilgan, asosan ularning yutuqlari, fazilatlari to'g'risida fikrlar bildirilgan. Biz standart va dasturlardagi to'ldirilishi kerak bo'lgan o'rinlar, darslik va qo'llanmalardagi bartaraf etilishi lozim ko'ringan nuqson va kamchiliklar borasida mulohazalarimizni “Mumtoz adabiyot: o'qitish muammolari va yechimlar” nomli monografiyamizda

batafsil bayon qilganmiz[9, 8–20-b.]. Bu o‘rinda ushbu kitobdagi butun bir faslda berilgan fikrlarni takrorlashdan qochib, keyingi takomillashtirilgan dastur va u asosda yaratilgan darsliklardan kelib chiqib izlanishlarimiz natijasi bo‘lgan quyidagi xulosaga to‘xtalamiz: muammolarning yechimi bitta – endi psixologik, pedagogik, didaktik va metodik bilimlarni omuxtalagan holda ilmiy asoslangan dastur yaratish vaqti keldi.

Aynan ana shunday dastur yo‘qligi tufayli yaqin yillargacha yuqori sinf o‘quvchilari u yoqda tursin, o‘qituvchilarining o‘zi ham tushunishga va tushuntirishga qiynalayotgan siyosiy va falsafiy xarakterdagi Jonatan Sviftning “Gulliverning sayohatlari” romani, Antuan de Sent-Ekeyuperining “Kichkina shahzoda” qissasi, Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidan parchalar 5-sinfda berilgan holda [2] boshlang‘ich sinf o‘quvchilari saviyasidagi Xayriddin Salohning “Yulduzlar afsonasi” balladasi 7-sinfda o‘qitilgan edi [3]. Ilmiy asoslangan dastur ishlab chiqilmagani bois ayrim band, baytlarini hatto oliy ta‘limda saboq berayotgan professor-o‘qituvchilar ham sharhlashda o‘ylanib qolayotgan Turdining “Tor ko‘ngillik beklar” muxammasi 7-sinfga, Lutfiyning ayrim g‘azallari 8-sinfga kiritilgan edi [6] va hokazo. O‘quvchi qaysi yoshda hayotdagi qanday voqeliklarni to‘g‘ri qabul qiladi, nimalarni faqatgina zohiran tushunibgina qolmay, muayyan darajada kengroq idrok etib, mohiyatiga kira oladi, yosh xususiyatlari qachon va qanday tuyg‘ularni his qilishga imkon beradi va bulardan kelib chiqib, qaysi asarni qaysi sinfda, qay shaklda, qanchalik hajmda taqdim qilish kerak – ilmiy asoslangan dasturda mana shu jihatlar e‘tiborga olinishi shart. Aks holda sarflanayotgan pedagoglar mehnati va davlat mablag‘i o‘z o‘rnini topmay qolaveradi.

Metodika fani berilgan bilim, shakllantirilgan ko‘nikma va malakalarning hayotiyiligini, amaliyotga yaroqliligini ta‘minlaydigan asosiy omildir. Ta‘limning hamma bo‘g‘inidagi oqsoqliklar aynan metodikaning nomukammalligi, noqisligi tufayli yuzaga kelmoqda. Amaliyotdan qaynab chiqqan, o‘qituvchini,

o'quvchi (talaba)ni his etadigan va ta'lim amaliyotini teran tushunadigan haqiqiy metodistlarni yetishtirish mamlakatimiz ta'limining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilanishi kerak. Respublikadagi qator malaka oshirish institutlari, oliy ta'lim muassasalaridagi kuzatishlardan ayon bo'lmoqdaki, aksariyatida metodist olimlar juda kam, ayrimlarida yo'q hisobida. Oliy dargohda ishlab, metodika yo'nalishida ilmiy ish qilishni xohlamaydilar. Sababi surishtirilsa, ular metodikani ilm hisoblamaydilar yoki metodikadan ilmiy ish qilish bir necha baravar qiyin tuyuladi. Ayrimlarida xohish bor, lekin ular uchun ilmiy rahbar muammosi ko'ndalang turadi, negaki respublikadagi adabiyot o'qitish metodikasi bo'yicha fan doktorlarining aksari poytaxtda, viloyatlarda kam. Bu olimlarimiz yoshi ham o'rtacha oltmishlarda. Ahvol shu tarzda ketsa, o'n yillardan keyin *haqiqiy metodistlar* tanqisligi ortadi, bu esa barcha fanlarni o'qitish saviyasi yanada orqaga ketadi degani. Mas'ul idoralar, shaxslar, soha mutaxassislari bu muammoga hukumat, jamiyat e'tiborini tortishlari lozim.

Metodika fanining rivojidan manfaatdor soha, shubhasiz, ta'limdir. Ta'lim tizimi metodikaning rivoji haqida qayg'urishi, kerak bo'lsa, mamlakat miqyosida uning tom ma'noda shakllanishi, yuksalishi uchun takliflar, talablar bilan chiqishi lozim. Ta'lim metodika faniga nisbatan buyurtmachi vazifasini o'tashi kerak. Adabiyot misolida fikr yuritsak, ta'lim amaliyotidagi ehtiyojdan kelib chiqib, metodika ham xuddi adabiyot ilmida bo'lgani kabi badiiy adabiyot taraqqiyot bosqichlari, adabiy turlar, adabiyot nazariyasi bo'yicha ixtisoslashishi maqsadga muvofiq. Shu asosda xalq og'zaki ijodi, mumtoz adabiyot, yangi davr adabiyoti yoki adabiy turlar bo'yicha monografik planda keng miqyosli metodik tadqiqotlarni amalga oshirish, so'ngra ularning ilmiy-metodik natijalari, xulosalaridan kelib chiqib muayyan adabiy yo'nalishga mansub asarlarni, adabiy janrlarni o'qitishning ham ilmiy, ham metodik jihatlarini ochiqlab berishi darkor. Bu esa, o'z navbatida, adabiyot darslarini tashkil etish, ularda qo'llanadigan muvofiq

pedagogik texnologiyalar, interfaol usullarni ilmiy va amaliy jihatdan to‘g‘ri belgilashga yo‘l ochadi.

Mazkur masalalar adabiyot o‘qitish metodikasi fanida hanuzgacha ochilmagan qo‘riq bo‘lib tadqiqotchisini kutayotganligi bois zamon va makon, adabiy tur va janrlar yoki yo‘nalishlari turlicha asarlarni adabiyot o‘qituvchilari bir xil yondashuv bilan yoki har xil bo‘lsa-da, noto‘g‘ri yondashuv bilan o‘qitmoqdalar. Yanayam ajabtovuri, darslarda mavzu mazmuni, mohiyatiga to‘g‘ri kelish-kelmasligiga qaramay keng urf bo‘lgan pedagogik texnologiya va usullarni ko‘r-ko‘rona qo‘llash odat tusiga kirgan. Bu esa ta‘lim mazmunining sayozlashuviga, darslarning quruq rasmiyatchilikka aylanishiga sabab bo‘lmoqda. Mazmunan sayoz ta‘lim, rasmiyatchilikdan iborat darslar keyinchalik o‘nglanishi qiyin va murakkab ma‘naviyatga daxldor salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ta‘lim shuning uchun ham metodikaning talabgori bo‘lishi kerak.

Sho‘ro davri adabiyot o‘qitish metodikasi zamon tazyiqi bilan bog‘liq ziddiyat, nuqson va kamchiliklarga to‘la bo‘lsa-da, ma‘lum darajada e‘tiborli jihatlari ham yo‘q emas edi. Shuningdek, mustaqillik yillari bu borada sezilarli siljishlar bo‘lganini e‘tirof etamiz. Xususan, metodist olim professor Qozoqboy Yo‘ldoshevning ilmiy-pedagogik faoliyat bilan bog‘liq yangicha shakl hamda mazmunda tuzilgan dastur va yaratilgan darsliklar diqqatni tortadi. Metodika ana shu tajribalarni umumlalashtirib, tanqidiy yondashishi, yutuqlaridan iste‘foda etishi lozim.

Masalan, dars materiallarini sinflar kesimida ruknlarga ajratib o‘rganilishini olaylik. 2000-yillardan keyin bu ko‘pchilikka ma‘qul tajriba sifatida dastur va darsliklar yaratishda qo‘llanib kelmoqda. Mazkur amaliyotga munosabat bildirish, yutuq va kamchiliklarini baholash metodika fanining zimmasidagi vazifalaridan biridir. Bunda sinflar kesimida qaysi ruknlar bo‘lishi, ularga qanday asarlar qay mezonlar asosida qanday shakl va hajmda kiritilishi va nima uchun shu tarzda berilishi tadqiq qilinadi. Ya‘ni metodika bu

tajribaga nazariy jihatdan baho berishi, ilmiy asoslashi va shundan kelib chiqib, uni amaliy takomillashtirishi kerak.

Darsliklar yaratishning ilmiy-metodik tamoyillarini ishlab chiqish hali qo'l urilmagan metodik tadqiqotlarning dolzarb mavzusi sanaladi. Ma'lumki, darsliklar tuzilishi jihatdan biografik xarakterdagi maqolalar, berilgan asarlar talqini va tahliliga oid maqolalar, badiiy asarlar matni, suratlar (yoki chizmalar), savol va topshiriqlar, nazariy ma'lumot kabi qismlardan iborat. Bu qismlar aksariyatining darsliklarda qanday, qay shakl va hajmda, shuningdek, qayerda berilishi sinflar kesimida turlichaligi kuzatiladi. Chunki bu borada ham metodikamizda ishlangan ilmiy yo'riqlar mavjud emas, ular to'raligicha darslik mualliflarining ixtiyoriga havola qilingan. Biografik ma'lumotlar va adiblar suratining avvalda berilishi hamma darsliklarda bir xil, lekin asar mazmuniga tegishli suratlar 5-sinf kitobida uchramaydi [3], 6-sinf dan boshlab darsliklarda badiiy matnga illyustratsiya qilingan ko'rinishdan serjilo, mazmundor rasmlar kiritilib borayotgan bo'lsa-da [6], metodikamiz unga munosib baho bergani, ilmiy-metodik munosabat bildirgani yo'q.

Savol va topshiriqlarning berilishida ham izchillik, yagona bir yondashuv yo'qligini ko'ramiz. 5- va 6-sinflarda ular ba'zan materialning katta yoki kichikligidan qat'iy nazar muayyan bir mavzuning oxirida bitta qilib umumiy berilsa, ba'zan muallifning hayoti va ijodi uchun alohida, badiiy matn uchun alohida qilib berilgan. Ba'zi sinflarda, ayrim o'rinlarda hatto nazariy ma'lumot uchun maxsus savol va topshiriqlar berilgani holda boshqalarida bu holat umuman ko'zga tashlanmaydi. Hozirda o'zlashtirilayotgan badiiy matnning ichida savollar berilmoqda – bu nechog'lik maqsadga muvofiqligi to'g'risida na amaliyotchi muallimlar, na metodistlar fikr bildirdi. Savollarning bu tarzda berilishi asar tahlilini o'qish davomida amalga oshirilishi to'g'rimi? To'g'ri bo'lsa nima uchun? Badiiy asar mutolaasi tabiatiga zid bo'lmaydimi bu? Badiiy asardan zavqlanish, ta'sirlanish uchun bir “o'tirishda” hech narsaga chalg'imagi o'qib, uni hissiy “hazm” qilishi ma'qul

bo'lmaydimi? Bu kabi savollarga eng to'g'ri javob amaliyotga tayangan metodik tadqiqot javob bera oladi.

Metodik izlanishlar tanlangan asarlarning adabiy turi, janri, mavzusi, badiiyati hamda g'oyaviy jihatlaridan kelib chiqib savol tuzish, topshiriqlar berish, muammolar qo'yish bo'yicha ham tavsiyalar tizimini yarata olsa edi, darsliklarning foydalilik koeffitsenti bir necha bor oshgan bo'lur edi.

Nazariy ma'lumotlar berilishida ham ilmiy asoslangan yondashuv yo'qligi ko'rinib turadi. Nazariy ma'lumotlar o'quvchida muayyan darajadagi intellektual tayyorgarlikni shakllantirish asnosida ham miqdor, ham hajmga ko'ra tadrijiy ravishda berib borilishi kerak. Amaldagi dastur va u asosda yaratilgan darsliklarda ushbu tamoyil buzilgan. Oldingi nashrlardagi darsliklarni ko'zdan kechirar ekanmiz, 5-sinf o'quvchilariga yuqori sinflarda ham og'ir keladigan she'r, she'riy vaznlar, janrlar to'g'risida nazariy ma'lumotlar kiritilganini ko'ramiz [2]. Miqdor jihatdan ham nomutanosiblik bor: 6-sinfda ikkitagina nazariy ma'lumot berilgan holda endigina boshlang'ich sinfdan o'tgan 5-sinflarda ularning soni to'qqizta edi. Shuningdek, nazariy ma'lumotlarning har doim ham ular taalluqli bo'lgan badiiy asarlardan keyin berilishi to'g'rimi yoki qaysidir asarlardan oldin berilishi ham kerakmi – bu kabi savollarga amaliyotchi o'qituvchilar metodikadan javob kutadi.

Yana bir muammo adabiyot darslari uchun yozilgan metodik qo'llanmalar bilan bog'liq. 2006-yildan buyon qayta ishlanib, tarqatilayotgan darsliklar uchun metodik qo'llanmalar ma'lum sabablarga ko'ra nashr qilinmayotgan edi. Ungacha har bir sinf “Adabiyot” darsliklari uchun alohida metodik qo'llanmalar yozilgan edi. Biz metodik qo'llanmalar borasidagi fikrlarimizni yuqorida eslatganimiz “Mumtoz adabiyot: o'qitish muammolari va yechimlar” nomli monografiyamizda hamda metodik jurnal, ilmiy-uslubiy maqolalar to'plamlarida batafsil bayon etganmiz. Ulardagi asosiy mag'iz shuki, ayrim qo'llanmalarda hammaga ma'lum faktik ma'lumotlar, umumiy tafsilotlar bayoni yetakchilik qilgan edi. O'qituvchiga asqotadigan metodik tavsiyalar juda kam, borlari ham

amaliyotga yoki o'quvchilarning yosh xususiyatiga to'g'ri kelmasdi. Sababi ularni metodist bo'lmagan nazariyotchi olimlar yozgan. Ko'rinadiki, bu muammoning yechimi ham shu: metodik qo'llanmalarni metodistlar yozishi kerak. Keyingi 2–3 yilda metodik qo'llanmalar yozila boshlandi. Keyingi maqolalarimizda ular haqida alohida to'xtalamiz.

Adabiyot o'qitishdagi muammolarning subyektiv sabablari adabiyot o'qituvchisi shaxsi, kasbiy mahorati, kompetentsiyasi bilan bog'liq. Muallimlar kasbiy tayyorgarligining pastligi adabiyot namunalarini o'rganilishidagi oqsashlarning asosini tashkil qiladi, desak xato bo'lmaydi. O'tgan asrda adabiyot o'qitish ilmi rivojiga ulkan hissa qo'shgan rus metodist olimlari V. A. Kan-Kalik, V. I. Xazanlarning “Maktabda adabiyot o'qitishning psixologik-pedagogik asoslari” nomli risolasida adabiyot o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligiga alohida urg'u beriladi va adabiy-ta'limiy mehnatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, **badiiy-pedagogik vazifalarning badiiy-tadqiqiy, badiiy-konstruktiv, badiiy-tashkiliy va badiiy-kommunikativ** tarzidagi tasnifini keltiradilar va ularning har biriga alohida to'xtaladilar [5, 62–131-b.]. Adabiyot darslaridan ko'zlangan maqsad badiiy matn ustida ishlash bilan yuzaga chiqar ekan, mana shu sanalgan to'rt vazifa har bir mashg'ulotda ado etilishi shart qilib qo'yiladi. Adabiyot o'qituvchilarimizga ular haqida na talabaliklarida oliy ta'limda, na malaka oshirish kurslarida tushuncha berilgan. Ular haqida tizimli tushunchasi bo'lmagan o'qituvchining darslari ongli emas, stixiyali tarzda kechadi. Demak, endilikda oliy ta'limda, malaka oshirish kurslarida yurtimiz, chet ellardagi adabiyot o'qitish metodikasi yuzasidan mavjud ilmiy, amaliy natijalarni, xulosa va qarashlarni bo'lg'usi pedagoglar, amaliyotchi o'qituvchilarga yetkazishimiz shart.

Adabiyot o'qitishdagi eng og'riqli nuqta muallimlar nazariy tayyorgarligi, ularda tahlil ko'nikma va malakalarining oqsashidir. Oliy ta'limdan har yili ilmiy-nazariy va amaliy tayyorgarligi noto'kis bitiruvchilar maorif amaliyotiga kelib qo'shilmoqdalar. Bunday chala muallimlarning soni yildan yilga ortib bormoqda. Shu bois

ham adabiyot o'qituvchilari darsliklardagi adabiyot namunalarini tushunishga qiynalishlari yoki aksariyat hollarda undan ma'no chiqara olmasliklarining guvohi bo'lamiz. O'zi zo'rg'a tushunayotgan yoki tushuna olmayotgan matnni qanday idrok etsin?! Idrok etilmagan asarni o'quvchiga tushuntirish to'g'risida gapirishning o'zi kulgili. Respublikaning turli tuman va shaharlarida o'tkazgan suhbat hamda kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, aksariyat o'qituvchilar darsliklarda berilgan asar sharhlarini o'qib yoki aytib beradilar, o'quvchilardan ham aynan shularni takrorlashni talab qiladilar. O'qituvchining o'zi fikr boqimandasi, passiv iste'molchi maqomida bo'lgan va o'quvchisidan ham shuni talab qilgan mashg'ulotlarda adabiyot darslarining saviyasi past bo'lishi tayin. Qanchalik achchiq bo'lmasin, ko'pchilik adabiyot darslari shu ahvolda ekanligini tan olishga to'g'ri keladi.

Ahvol shunday ekan, nima qilish kerak? Qanday yo'l tutsak, bo'sh o'qituvchilar ko'payishining oldini olish mumkin? Oliy ta'limdagi ustozlar va o'qituvchilarni qayta tayyorlovdan o'tkazganlar bitiruvchilar o'zlarining “yetishtirgan hosilining mevalari” bo'lgani uchun yakuniy bitiruv attestatsiyalarida deyarli hech kimni yiqitishmaydi. U kim va qanday bo'lishidan qat'iy nazar diplom oladi va ta'limga ishga keladi. Bitiruvchilar va ustozlarining mas'uliyatini oshirish uchun qat'iyroq tadbirlarni o'ylab ko'rish kerak. Menimcha, respublika miqyosida Til va adabiyot o'qituvchilari jamiyatini tuzish, viloyat, tuman va shaharlarda uning bo'linmalarini tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ularga eng bilimdon, tajribali, soha fidoyisi bo'lgan vijdonli pedagoglar rahbarlik qiladilar va joylarda yetakchi hamkasblaridan iborat kengashlarni tuzadilar. Jamiyat joylardagi bo'linmalari va ular qoshida tuzilgan kengashlar orqali respublikada ona (o'zbek) tili va adabiyoti ta'limining sifat va samaradorligini oshirish qamrovidagi keng ko'lamli ishlar qatorida oliy ta'lim va qayta tayyorlov kurslarini bitirib, amaliyotga kirib kelayotgan yosh (yangi) filolog mutaxassislarni ishga qabul

qilishda ishtirok etadi. Ishga talabgorlar bilan suhbat o'tkazib, ular hech bo'lmasa maktab til va adabiyot ta'limi dasturi materiallari nuqtayi nazaridan yaroqli deb topilsa, ishga qabul qilinishi kerak. Suhbatdan o'tolmaganlar ro'yxati ular tamomlagan oliy o'quv yurti ko'rsatilgan holda tegishli vazirliklarga yuboriladi. Shuningdek, malaka oshirish kurslari samaradorligini nazorat qilish bo'yicha ham tadbirlar xususida o'ylab ko'rish kerak.

Shu o'rinda biz keyingi uch yilda amaliyotda adabiyot o'qituvchilari bilan ishlash va metodikani rivojlantirish yuzasidan sinovdan o'tkazib, yuqori samara bergan bir tajribani taklif etamiz. Hamma sohalarda bo'lgani kabi malaka oshirish tizimida ham tom ma'nodagi muqobil xususiy malaka oshirish shakliga ruxsat berilishi lozim. Amaliy faoliyatimizda ko'rildiki, agar o'qituvchilar o'zini tom ma'noda qoniqtiradigan darajada ilmiy va metodik yordam oladigan bo'lsa, o'zi uchun, darsining sifati, o'quvchilarining bilim saviyasi uchun bajonidil o'z hisobidan o'qiydi. Demak, o'zaro raqobatdosh bo'lgan malaka oshirish shakllarining faoliyat ko'rsatishiga yo'l berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, pedagoglar hozirgidek ular yashayotgan hududdagi malaka oshirish kurslariga majburiy tarzda emas, balki o'zlari istagan joyga yoki muassasaga (davlat yoki xususiy) malaka oshirgani borishlari mumkin bo'lsin. Shunda pedagoglar malakasini oshirish ishiga da'vogar (davlat yoki xususiy) muassasalar oldida faoliyat ko'rsatishlari uchun hayot va mamot masalasi – o'qituvchini o'zlariga jalb qilish muammosi ko'ndalang bo'ladi. O'qituvchini jalb qilolmagan, uning ishonchini qozonmagan muassasa faoliyat ko'rsata olmaydi. Bu sohada faoliyat ko'rsatish uchun esa yuqori metodik bilim, tajriba va malakaga ega bo'lish, doimiy izlanish, tajribalar o'tkazish, yangi natijalarga ega bo'lish; o'qituvchini kutib kabinetlarda o'tirish emas, balki uning muammosini o'rganish va hal qilish uchun bilim dargohlariga borishga to'g'ri keladi. Ayni paytda ana shu raqobat negizida ta'lim amaliyotida yetilgan haqiqiy metodistlarga ega bo'lamiz. Bizningcha, hozirgi belgilangan tartibga ko'ra har 3 yoki 5 yilda majburiy malaka oshirishga o'qituvchini jo'natish to'g'ri emas.

Malaka oshirishi kerak yoki kerakmasligini o'qituvchining o'zi hal qilsin. U doimo izlanishda bo'lib, o'z ustida ishlab, soha yangiliklarini o'zlashtirib borgan bo'lsa, qo'yilgan asosiy talablarga javob bersa, nima uchun uni majburlab malaka oshirishga yuborish kerak? Malaka oshirish o'qituvchi uchun majburiyat emas, ehtiyoj bo'lishi lozim.

Ko'rinadiki, biz yuqorida tilga olgan va bir maqola doirasida qamrovga ololmagan adabiyot o'qitish bilan bog'liq qator muammolar yechimi bevosita yoki bilvosita metodika faniga, uning rivojiga bog'liq. Shu bois mazkur soha rivoji uchun mamlakat miqyosida alohida e'tibor, hukumat darajasida qarorlar qabul qilinishi butun ta'limning yangi bosqichga ko'tarilishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулла Авлоний. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. – Т.: Ёшлар нашриёт уйи, 2019. – 96 б.
2. Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. 5-sinf uchun darslik. – T.: Sharq, 2015.
3. Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. 5-sinf uchun darslik. – T.: Sharq, 2020. – 132 b.
4. Yo'ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V. Adabiyot. 7-sinf uchun darslik. – T.: Sharq, 2017. – 176 b.
5. Кан-Калик В. А., Хазан В. И. Психолого-педагогические основы преподавания литературы в школе. – Москва: Просвещение, 1988. – 296 с.
6. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik. – T.: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 218 b.
7. Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 192 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida”gi Farmoni. <https://uza.uz/oz/posts/kitob-mahsulotlarini-chop-etish-va-tarqatish-tizimini-rivojl-12-01-2017>.
9. Қодиров В. Мумтоз адабиёт: ўқитиш муаммолари ва ечимлар. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – 286 б.

ONA TILI TA'LIMIDA O'QUV MATERIALLARINI TANLASH, O'QITISH HAMDA BAHOLASH MASALALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR



G'ofir Hamroyev

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti
tadqiqotchi professori.*

e-manzil: hamroyevgofirr@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada darsliklar tuzish va dars o'tish jarayonida foydalaniladigan o'quv materiallarining hajmi, mazmuni, taqdim etish usullari va metodikasi, jumladan, nazariy ma'lumotlar minimumi, matn tanlash muammosi, o'quv topshiriqlari tuzish va ularni bajaradigan vazifasiga qarab to'g'ri va o'rinli qo'llash kabi masalalar muhokama qilingan.*

Kalit so'zlar: *dars, darslik, o'quv materialli, o'quv topshirig'i, matn, grammatik minimum, bilim, ko'nikma va malaka.*

Ta'limda eng muhim masala o'quv materiallarini tanlash va ulardan foydalanish muammosidir. Qaysi o'quv materiallarini o'quvchi bilishi zarur ekanligini aniqlab olish kerak, zero, globallashuv davrida bir-ikki yil oldingi talab ham bugun o'zini oqlamay qolishi mumkin. Shu ma'noda, bugun va yaqin kelajakda o'quvchiga muntazam zarur bo'ladigan ko'nikma va malakalarni rivojlantiruvchi o'quv materiallarini tanlash, yaratish va samarali qo'llash usullarini ishlab chiqish eng dolzar vazifadir.

Bu borada professorlar A. G'ulomov va H. Ne'matovlarning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinlidir: "Asrlar davomida insoniyat tomonidan to'plangan barcha til ilmini o'rta maktab o'quvchisiga

o'rgatishning iloji va zarurati yo'q. Demak, ona tilidan eng zarur bilimlarni tanlash asosiy masalalardan biridir. Ona tilidan bilimlarni tanlashning bosh mezoni uning foydalilik va amalda qo'llanila olish darajasidir. Biz ona tilidan foydali bilimlar deb bolalarning savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan, uni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash va rivojlantirishni ta'minlaydigan bilimlarni tushunamiz" [4, 9-b.].

Bugun ona tili ta'limida o'qituvchilar, tadqiqotchilar va bo'lajak o'qituvchilarni qiziqtiradigan masalalar – darsliklarda nazariy (grammatik) ma'lumotlar hajmi; matnlar saviyasi va ifoda uslubi, rang-barangligi; o'quv topshiriqlarining mazmuni; bilim, ko'nikma va malakalarni baholash, shuningdek, dars ishlanmalar sifati kabilar. “Metodist” jurnali o'quvchilarini ham shunday masalalar qiziqtirishi ular tomonidan yo'llangan savollarda aks etgan. Ularning aksariyati ona tili ta'limida o'quv materiallarini tanlash bilan bog'liq. Xususan, “Ona tili” darsliklarida berilgan grammatik bilimlar hajmining kamligi, shunindek, matnlar mavzusi, o'quv soatlari yetishmasligi haqida ba'zi e'tirozlar ham bildirilgan. Bu boradagi muammolarga quyidagicha munosabat bildirish mumkin:

1. Grammatik ma'lumotlar oldingi darsliklarda haddan oshib ketgani tufayli nutqiy kompetensiya rivojlanmay qolayotgan edi, shu sababli keyingi yillarda nashr qilingan yangi avlod darsliklarida nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish ustuvorlik kasb etdi. To'g'ri, u yerda berilayotgan grammatik bilimlar yetarli bo'lmay qolgan o'rinlar bor. Aslida lingvistik va nutqiy kompetensiya baravar rivojlantirib borilishi kerak, biroq dunyo til o'qitish metodikasida ham nutqiy kompetensiyaga katta e'tibor beriladi, chunki ta'lim oluvchilarning aksariyati muloqotga tayyor bo'lishi ijtimoiy zaruratdir. Lingvistik ko'nikma va malakalar biror xorijiy tilni o'rganish uchun ko'proq ahamiyat kasb etadi. Bunday holatda ona tili grammatikasi haqida tizimli va zarur bilimlarni egallash uchun “Ona tili” darsliklariga ilova shaklda “O'zbek tili o'quv

grammatikasi" nomli yo'ldosh darslik tayyorlanishi taqozo etiladi. Shunda o'qituvchi ham, o'quvchi ham zarur o'rinlarda unga murojaat qilib, savollariga javob topa oladi.

2. **Matnlarning** (dars yoki darsliklarda foydalaniladigan matnlar) boshqa sohalarga taalluqli ekani ham fanlararo integratsiya bilan bog'liq. Ammo shu o'rinda o'qituvchi tomonidan to'ldirilishi mumkin bo'lgan holat ham mavjud. Ya'ni har bir o'quv fani muallimining o'z matnlar banki bo'lishi lozim. Ayrim o'rinlarda ijodiy yondashib, mos kelmagan matnlar o'rniga o'zi istagan matnni taqdim qilishi mumkin. Bu yerda bitta muammo bo'ladi, ya'ni o'quv topshiriqlari o'sha matnga moslangan bo'lib, yangi matnda ham buni hisobga olish zarur.

Eski darsliklarda uzoq vaqt mobaynida tahlil materiali sifatida badiiy matnlardan foydalanib kelingani, rang-baranglik, jozibadorlik, axborot berish uslubida xilma-xillik yetishmagani sababli, yangi darsliklarda bundan biroz qochish kuzatilgan, publitsistik va ilmiy matnlar ulushi ko'paytirilgan. Bu ham yomon emas, ammo badiiy matnlar balansi ham buzilmasligi kerak. Ona tili, eng avval, adabiyot bilan hamkorlikda, aloqadorlikda ish ko'radi, o'quvchi badiiy matnlar mazmunini o'qib tushunishni o'rganib olishi kerak. Ona tili ta'limi adabiyot o'quv fani ta'limini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shishi shart, ya'ni badiiy matnni o'qib, tinglab tushunishga ona tili darslarida odatlanilsa, adabiyot darsida badiiy asarni o'qib tushuna oladi, tahlil qila biladi. Adabiyotning quroli so'z ekan, bu haqda ona tili darslarida o'rgatiladi, boshqa o'quv fanlari adabiyotga ona tilichalik yordam bera olmaydi. So'zning ma'no qirralari badiiy matnlarda namoyon bo'ladi, bu borada ilmiy matnlar imkoniyati chegaralangan. Publitsistik matnlarning ko'pligiga asos bor, ya'ni bugun har bir kishi katta hajmli axborot maydonida yashayapti, ularni anglash, tahlil qila olish juda muhim, ammo bu ham me'yorida bo'lishi lozim.

Dars va darslik uchun tanlanadigan matn mavzulari balansi nazoratda bo'lishi zarur, bunda badiiy matnlar ulushi, ona tilining bor jozibasini ko'rsatib berish nuqtayi nazarida ko'proq, ilmiy, publitsistik va rasmiy matnlar undan juda kam bo'lmagan holatda

taqsimlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu o'rinda, bugungi ona tili ta'limi asosini tashkil etib turgan matn bilan ishlash, matn tuzish ko'nikmasini rivojlantirish bo'yicha salmoqli tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, yangi avlod "Ona tili" darsliklari muallifi K. Mavlonovanning matn yaratish, matn ustida ishlash, matn tuzilishini o'rgatish, esse yozish, xususan, yozish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini (baholash mezonlari bilan birga) ishlab chiqishga doir tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega.

3. **O'quv topshiriqlari** masalasi. O'qituvchilarimiz o'quv topshiriqlari haqida zarur bilim va malakaga ega bo'lishi lozim, ayniqsa, o'quv topshiriqlari tuzish va ular bilan ishlash malakasiga ega bo'lishlari bu boradagi ko'plab muammolarni bartaraf qiladi. Masalan, darslik yoki boshqa qo'llanmalarda mos kelmagan o'quv topshirig'i uchrab qoldi (odatda bu kamdan kam holtda kuzatiladi), deylik. O'qituvchi sinfdagi o'quvchilar imkoniyatidan kelib chiqqan holda boshqa topshiriq ishlab chiqa olishi, darsliklarda berilgan o'quv topshiriqlari ustida samarali ishlay olishi, agar bo'shliq kuzatilsa, uni to'ldirib borishi taqozo etiladi. O'quv topshirig'i o'qitish metodikasining asosini tashkil etadi. O'qituvchi to'g'ri va maqsadli topshiriq bera olsa, natija ham samarali bo'ladi, to'g'ri va mantiqli, puxta o'ylangan savol bera olsa, o'quvchining bilim va ko'nikmalarini xolis, aniq baholash mumkin bo'ladi. Mashqlar sinfda o'qituvchi nazorati ostida bajariladigan ish turi hisoblanadi.

Shu ma'noda, Q. Husanboyevaning ta'lim mazmuniga o'qituvchini ham kiritish [5] haqidagi qarashlari to'g'ri yondashuv, deb qayd etish mumkin. Darhaqiqat, ona tili ta'limida, ayniqsa, sinfda bajariladigan mashqlarni nazorat qilishda, zarur o'rinlarda o'quvchilar adabiy talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirishda bevosita o'qituvchi dastlab namuna ko'rsatishi muhim ahamiyatga ega. T. Ziyodovanning o'quvchilarda matn yaratish kompetentsiyalarini shakllantirishga doir tadqiqotlarida matn yaratish texnologiyasining asosiy komponenti ham o'quv topshiriqlari hisoblangan, ammo mazkur tadqiqotda ham mashq va topshiriqlar jiddiy farqlanmagan [1].

K. Mavlonova ona tili ta’limining bugungi yondashuvlariga mos ravishda eng murakkab masalalardan biri bo’lgan matn ustida ishlash, uni o’qiy olish, tushuna bilish va, eng muhimi, matn yarata olish ko’nikmalarini adabiyot o’quv fani bilan integratsiya qilgan holda rivojlantiruvchi o’quv topshiriqlarini ishlab chiqdi [2, 22-b.].

O’zbek tilining ona tili sifatida o’qitilishi bo’yicha keyingi yillarda tizimli tadqiqotlar olib borilmoqda. Ularda o’quv topshiriqlarining o’rni va ahamiyati ham belgilab olindi, davlat tili sifatidagi ta’limida ham bu bora muammolar borligini olimlar ta’kidlab keladi. H. Muhitdinova o’quv topshiriqlari, jumladan, mashqlarning ahamiyati haqida shunday deydi: “hozirgi kunda o’zbek tilini o’qitish tamoyillari, ularda beriladigan o’quv materiallarining tartibi va taqsimoti bilan bir qatorda, dars jarayonida o’zbek tilini o’rgatishga yo’naltirilgan mashqlar tarkibi va turlarini takomillashtirish, ularni zamonaviy ta’lim mashg’ulotlariga moslashtirib qo’llash yo’llarini topish o’zbek tili ta’limi mutaxassislari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir” [3, 27-b.].

Shu o’rinda ta’kidlash zarurki, ona tili va o’zbek tili darslarida mashqlardan talab darajasida foydalanilmay kelinmoqda, buning natijasi o’quvchi yoki talabanning og’zaki va yozma nutqida namoyon bo’lib turibdi. Nutqiy ko’nikmalar, asosan, mashq orqali shakllantiriladi, ruvojlantiriladi. Mashqning turlari, mashqlar to’plamlari yaratilishi va tizimli tatbiq etilishi lozim, darsliklarga ilova shaklida bo’lsa ham, alohida to’plam holatida bo’lsa ham, albatta, mashqlar taqdim qilinishi kerak. Aks holda, o’zbek o’quvchisi tilimizga xos tovushlarni to’g’ri ayta olmay yuraveradi, qo’shimcha va so’zlarni to’g’ri yoza olmaydi.

Ayniqsa, talaffuz va imlo mashqlari rang-barang shaklda (bosma, elektron, rasmlı, multimediali, o’yin) ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy qilinishi zarur. Qolaversa, o’quv topshiriqlari rivojlantiruvchi va baholovchi turlarga bo’lgan holatda o’rgatilishi maqsadga muvofiqdir.

4. Dars ishlanmalari. Maktab ta’limida dars ishlanmalari eng muhim ahamiyatga ega bo’lgan didaktik material hisoblanadi.

Mavjud dars ishlanmalarida keyingi yillarda interfaol usullarni qalashtirib dars o'tishga ruju qo'yilgani seziladi. Zero, dars ishlanmasi ta'lim maqsadiga mos bo'lishi zarur. Ona tili ta'limi maqsadi nima ekanini o'qituvchi so'zma-so'z yoddan bilishi shart. Har bir dars shu mezon asosida olib boriladi, dars ishlanmasi ham bunga mos bo'lishi kerak. Dars ishlanmalarida zaruratga qarab mashq, savol va topshiriqlardan tizimli foydalanish, didaktik ahamiyati yuqori matnlarni kiritish, tilning turli ifoda vositalaridan foydalanish imkoniyatini yaratish, nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishni doimiy narzarda tutib turish asosiy talablardan bo'lishi kerak. Dars ishlanmalari ham zamon talablariga mos holda o'zgarishi, yangi shakl va mazmun kasb etishgi zarur.

5. **Baholash.** Aslida, o'zbek metodikasida eng oqsaydigan masala bu baholashdir. Shuni to'g'ri yo'lga qo'ya olmasak, o'tayotdan darsimizda samara bo'lmaydi. Bugungi metodikada o'quv topshiriqlari nazariyasi haqida yetarli tadqiqot olib borilmagani sababli baholash masalasiga ham yaxshi tushuna olmayapmiz. Baholash deganda o'tilgan mavzu yuzasidan hosil bo'lgan bilim, qayta xotirlash asosida bayon qilib berilgan ma'lumotni baho yoki ball shaklida rasmiylashtirishni tushunib keldik. Hozir ham ko'plab o'qituvchilar baholash deganda shu amaliyotni tasavvur qiladilar. Afsuski, o'tgan uzoq davr mobaynida ona tili va adabiyot o'quv fanlaridan, asosan, hosil bo'lgan bilimning o'zi baholab kelindi, jamiyatda, ijtimoiy hayotda esa bunday bilim ko'pchilikka kerak bo'lmadi. Masalan, aniqllovchilar, asosan, sifat so'z turkumi bilan ifodalanadi. Yoki “sinonim deb nimaga aytiladi?”, “Uning qanday turlari bor?”, degan savollar bilan o'quvchi xotirasining qanchalik mustahkamligi tekshirildi. “Mazkur jumla yoki matnda ajratib ko'rsatilgan so'zning qanday sinonimlari mavjud?”, “Qaysi so'z yoki jumla ushbu matnga mos kelmaydi?”, “Matndagi eng muhim so'zni toping!”, “She'rdagi eng muhim misrani aniqlang” kabi hayot uchun zarur, tafakkur qilishga undaydigan savol va topshiriqlar tizimli berilmadi.

Bugun nutqiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga ko‘proq urg‘u berish, avval, baholash mezonlarini ishlab chiqish, keyin darsliklarda shunga mos bo‘lgan o‘quv topshiriqlari taqdim qilish mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi. Aytish kerakki, bugun amalda qo‘llanayotgan “Ona tili” darsliklarida mazkur amaliyot qo‘llanila boshladi. Baholash indikatorlari ishlab chiqilmoqda. O‘qib tushunish ko‘nikmasini baholash bo‘yicha ayrim tadqiqotlar (Sh. Abdirayimov) olib borilgani ona tili ta‘limida ijobiy hodisadir. Shuningdek, ona tili ta‘limida bugun ustuvor bo‘lib turgan matn ustida ishlash ko‘nikmasini baholash bo‘yicha ham tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish kerak. Ona tili ta‘limida tinglab tushunish, nutq so‘zlash (gapirish) va yozish ko‘nikmalarini baholash bo‘yicha ham keng qamrovli tadqiqotlar yechimini kutib turibdi.

Umuman olganda, ona tili ta‘limi rivojlanishning yangi bosqichiga ko‘tarilmoqda. To‘g‘ri, nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va baholash bo‘yicha qilinishi lozim bo‘lgan ishlarning ko‘lami katta, ammo olib borilayotgan tadqiqotlarning uzviyligi, biri ikkinchisini to‘ldira olishi, yondashuvning mosligi mo‘ljalning aniqligi keyingi ishlarni osonlashtiradi. Ona tili ta‘limi yangi mazmun kasb eta boshladi, endi amaliyotda o‘qituvchilar tomonidan uning amaliyotga tatbiq etilishi bilan bog‘liq bir qator muammolar paydo bo‘lmoqda. Ularni bartarf qilish, o‘qituvchilarga yaqindan metodik yordam berish metodist olimlarning zimmasiga muhim vazifalarni yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зиёдова Т. У. Матн яратиш технологияси. – Т.: Фан, 2007. – 223-б.
2. Мавлонова К. Она тили фанини адабиёт фани билан бадиий матн орқали интеграциялаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш: пед. фан. фалс. докт. (PhD) ... дисс. автореф. –Т., 2019. – 22 б.
3. Муҳиддинова Ҳ. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш: пед. фан. докт. ... дисс. –Т., ТДПИ, 2011. – 270 б.
4. Ғуломов А., Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 97 б.
5. Ҳусанбоева Қ. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари: пед. фан. докт. ... дисс. автореф. –Т., ТДПУ, 2006. – 48 б.

ADABIY TA'LIM LABORATORIYASI

ADABIYOT O'QITISHDA VIRTUAL TA'LIM IMKONIYATLARI



Saodat Qambarova

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
Davlat O'zbek tili va adabiyoti
universiteti*

*O'zbek adabiyoti ta'limi kafedrası
dotsenti, ped. fan. fals. dokt. (PhD)*

e-manzil: saodat7373@mail.ru

Annotatsiya. *Ta'limda multimediali o'rgatuvchi tizimlar, audio va video mahsulotlar, virtual laboratoriyalar, elektron kutubxonalar hamda virtual reallik muhitidagi o'qitish vositalari o'quvchilarning o'quv predmetlari mazmunini o'zlashtirish, tasavvurlarini kengaytirish, o'rganilayotgan materialni fanlararo integratsiya asosida tadqiq qilishga yordam beradi. Mazkur maqolada adabiyot darslarida virtual ta'lim texnologiyalaridan foydalanish masalasi yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *virtual ta'lim texnologiyalari, virtual borliq, virtual muhit, simulyator, interfeys, immersivlik, interfaollik, dasturiy vositalar.*

So'nggi paytlarda aniq va tabiiy fanlar qatori ijtimoiy, estetik yo'nalishdagi fanlardan ham virtual laboratoriyalar o'tkazish samaradorligi bo'yicha tajribalar ommalashdi. Badiiy asarlarni o'rganishda virtual muhit, virtual borliq imkoniyatlariga tayanish o'quvchilarning o'zlashtirish va idrok etish ko'nikmalarini

rivojlantirishda samaralidir. Shuningdek, ta’lim jarayonini masofadan turib boshqarish imkoniyatining mavjudligi bilan ham ahamiyat kasb etadi. Virtual borliqda ma’lum sabablarga ko’ra tabiiy holda o’tkazishga imkonsiz tajribalar kompyuterda dasturiy vositalar orqali belgili-grafik tarzda sun’iy yo’l bilan amalga oshirilishi mumkin. Adabiy ta’limga oid virtual borliqda asar voqeligini sezgi organlari orqali idrok etish o’rnini multimedia vositalari asosida maxsus hosil qilingan ma’lumotlar – obrazlilik, obrazlar va detallar egallaydi. Virtual borliqni reallikda ko’z bilan ko’rish imkoniyati mavjud bo’lmasa ham, foydalanuvchi kompyuter qurilmalari yordamida yaratilgan xayoliy olamga kiradi. Natijada jarayonni kuzatishi, ishtirok etishi, ta’sir ko’rsatishi, mustaqil harakatlanishi va muayyan darajada uni o’zgartirishi mumkin bo’ladi.

Virtual borliq muhiti real hayot voqeliklari kompyuter simulyatsiyasi vositasida yaratiladi. Ta’sir doirasining kengligi, yuqori darajadagi vizuallashtirish hamda uch o’lchovli muhitligi uning asosiy xususiyatidir. Virtual borliq inson ichki dunyosining o’ziga xos shakli va o’zaro munosabatlarning madaniy ifodasi hisoblanadi, lekin real fizik borliqdek ta’sir ko’rsatish darajasi cheklangan. Shu bois his-tuyg’ular, asosan, insonning o’zi bilan emas, balki uni qanday idrok etishga bog’liq holda talqin qilinadi. Shu o’rinda, voqelikni o’zgartirish masalasiga to’xtalish joiz. Aslida har bir sohadagi amaliy tajribalar moddiy mablag’, vaqt, aqliy va jismoniy kuch talab etadi va hamisha kutilgandek natija bermasligi ham ma’lum. Virtual tajribalarning qulayligi va iqtisodiy samaradorligi ham mana shunday holatlarga barham berish, ularning oldini olishga qaratilganidadir. Masalan, harbiy sohada, tibbiyotda yoki dengiz ostida murakkab operatsiyalarni virtual muhitda amalga oshirish bu borada yo’l qo’yiladigan xatolarning oldini olish yoki mavjud a’nanalarga o’zgartirish kiritishni taqozo etib, xavfli sharoitlarda inson va tabiatni asrash, vaqtni, mablag’ni tejash bilan bog’liq muammolarga yechim bo’ladi.

Bizningcha, adabiy ta’limda virtual texnologiyalardan foydalanish qahramonlar qismatidagi ayanchli kunlar, fojialar,

qahramonlar yo‘l qo‘ygan xatolar sabablarini aniqlab, tahlil qilib, xayolan “ortga qaytish” yo‘li orqali sujet chizig‘ida harakatlanish, o‘sha lavhalarni turli rakurslarda ko‘rish imkoniyatini yaratishi yoxud asardagi hayotni virtual gavdalantirishi bilan xarakterlanadi. O‘quvchi “Agar qahramon o‘sha holatda boshqacha yo‘l tutganida voqea qanday bo‘lishi mumkin edi?” degan faraz bilan voqealar rivojiga ta’sir ko‘rsatsa, ma’lum ma’noda sujetga zid holat kuzatilishi mumkin. Bu jihatni, albatta, dasturchi va g‘oya muallifi avvaldan ko‘zda tutgan va rejalashtirgan bo‘lishi zarur.

Yozuvchi ijodiy laboratoriyasini o‘rganishga oid virtual xaritalar yaratish, badiiy asarlarni janri va mavzusiga ko‘ra tahlil qilish, adabiy-nazariy tushunchalarni o‘zlashtirishlarida virtual laboratoriyalar, virtual sayohatlar uyushtirish inson-kompyuter interaktiv muloqotiga asoslanadi. Bunda o‘quvchilarning sezgi, idrok, tafakkur, nutq, xayol va diqqat kabi bilish jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan dasturiy ta’minot modellashtirilishi maqsadga muvofiq. Asar voqeligini virtual muhitda idrok etish murakkab jarayon bo‘lib, bu o‘quvchining bilish jarayonlari va virtual borliq vositalariga bog‘liq.

Ta’limda virtual ta’lim texnologiyalarning afzalliklarini tadqiq qilgan M. Fayziyeva va D. Sayfurovlarning fikricha, virtual borliq “...inson real borliqda harakat qilayotgan illyuziyasini kompyuterda yaratish imkonini beruvchi interfaol texnologiya. Bunda obyektiv borliqni tabiiy sezgi organlari yordamida idrok etish o‘rnini maxsus interfeys, kompyuter grafikasi va ovoz vositasida sun’iy yaratilgan kompyuter axboroti egallaydi” [3, 45-b.].

Virtual borliqqa kirishda maxsus qurilmalar: sichqoncha, klaviatura, djoystik (kompyuter bilan aloqada bo‘lgan va tegishli partiyalarga o‘tish orqali unga ma’lumot uzatuvchi qurilma) qo‘llaniladi. Foydalanuvchilar virtual borliqni chuqurroq his etishlari uchun maxsus vositalar zarur bo‘ladi (1-rasmga qarang).



Virtual ko‘zoynak



Virtual shlem



Virtual qo‘lqop



Virtual kostyum

1-rasm. Virtual borliq vositalari

Bu vositalarlar quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

1. Ko‘zoynak. Ushbu qurilma tasvirni uch o‘lcham (3D)da ko‘rishga mo‘ljallangan. Bunda tasvir ko‘zoynak ekraniga ketma-ketlikda yuboriladi. Natijada ko‘zoynak ekranida tasvirning uch o‘lchamli ko‘rinishi paydo bo‘ladi.

2. Shlem. Sun‘iy muhitni his etishga mo‘ljallangan virtual borliq shlemi (nemischa qobiq; yoping‘ich [4, 57-b.]) ichidagi ikkita kichik ekran tasvir hajmini ko‘rsatishga moslab yaratilgan. Tasvir ham, o‘z navbatida, ikkita ko‘z uchun alohida ishlangani bilan ahamiyatlidir. Qurilma 360 gradus kenglikdagi tasvirlarni vizual holda ko‘rish imkoniyatini yaratadi. Qiziqarli jihat shundaki, bosh burilgan holatda tasvirning unga mos tarzda joylashuvi ham o‘zgara boradi.

3. Qo‘lqop. Axborotlar joylashtirilgan mazkur vosita virtual



borliqdagi predmetlarni ushlash, boshqa joyga o'tkazish va harakatga keltirish maqsadiga qaratilgan bo'lib, u virtuallikni ta'minlaydi.

4. Kostyum. U magnitli sensorlardan tashkil topgan kombinzon shaklida barcha harakatlarni kuzatishga moslab ishlangani bilan voqelikni his qilishga yordam beradi [1, 31-b.].

Virtual muhitni yaratishga mo'ljallangan multimedia tizimi amaliy va ixtisoslashtirilgan dasturiy muhitga bo'linadi. Amaliy dasturlar loyihalashtirilgan yoki qo'llanilayotgan amaliy dasturlardir. Multimedia ilovalarini yaratuvchi dasturiy vositalar ixtisoslashtirilgan dasturlar hisoblanadi. Ularga grafik, videotasvirli, audio muharriri va tahrirlash vositalari kiradi. Matn, grafika, tasvir, ovoz, animatsiya, video kabi multimedia vositalarining funksiyalari yildan-yilga takomillashib borayotgani ta'lim sohasiga ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Virtual borliq immersivlik va interaktivlik tushunchalari bilan uzviy bog'liq. Immersivlik – odamning virtual borliqda o'zini faraz qilishi bo'lsa, interfaollik foydalanuvchi real vaqtda virtual borliqdagi obyektlar bilan o'zaro muloqotda bo'lib, ularga ta'sir ko'rsatishga egaligidir [3, 47-b.]. Virtual borliqning bir qator turlari mavjud: passiv virtual borliq, tekshiriluvchi virtual borliq, interaktiv virtual borliq.

Inson tomonidan boshqarilmaydigan avtonom grafik tasvirni tovush orqali kuzatishga passiv virtual borliq sifatida qaraladi. Tekshiriluvchi virtual borliq deganda foydalanuvchiga belgilangan miqdorda havola qilinadigan ssenariy, tasvir, tovushni tanlash imkoni mavjudligi tushuniladi. Treking vazifasi yuklatilgan maxsus qurilma yordamida ishlab chiqilgan dunyo qonunlari asosidagi virtual muhitni foydalanuvchining o'zi boshqara olishi interaktiv virtual borliqqa xos xususiyatdir. “Treking virtual muhitdagi real obyektning joylashish koordinatalari (x, y, z) va fazoda joylashishi burchaklarini (a, b, g) berishga mo'ljallangan” [3, 48-b.].

Interfaollikni ta'minlashda virtual borliq tizimiga xos bo'lgan: ko'z bilan ko'riladigan, tovush orqali eshitiladigan amallarni

bajarish taqozo etiladi. Buning uchun katta hajmli tovush va videotizimlar, kibernetik nimchalar, inson bosh qismiga mo'ljallangan shlem, ko'zoynak displeylar, hid sezadigan "sichqonchalar", boshqaruvchi qo'lqoplar, simsiz interfeys uyg'unligi taqozo etiladi. Asar sujetining virtual muhitda aks etishi – voqelik, qahramonlar xatti-harakatlarini animatsiyalar shaklida muayyan izchillikda ifodalash orqali amalga oshiriladi. Virtual muhit o'quvchilarning obyektni idrok qilishlari va tushunishlarini yengillashtiradi. Animatsiyalarni yaratish yoki tasvirlarni chizishda interfaol xususiyatlarga ega bo'lgan texnologiyalar zarur bo'ladi.

Virtual texnologiyalar o'ziga xos xususiyatlarga ega. Xususan, "ko'p marotaba foydalanishga mo'ljallangan o'quv materiallarini yaratish (vaqtni tejash); internet orqali o'qituvchilarning o'zaro metod almashinuvi; o'quvchilarning o'quv materiallariga xohlagan paytda murojaat qilishi; mazmunni tushunarli qiluvchi multimediali materiallarni tayyorlash; ishtirokchilarning davomatini va bilim samaradorligini qayd qilish; zo'riqishsiz o'quv tizimini ta'minlash" [5, 8-b.] va boshqalar.

Fikrimizcha, virtual laboratoriyalarni yaratishda, avvalo, o'quv fani mazmuniga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Bu esa tajribalar o'tkazishda muvofiq usul va metodlarni mavzularning xarakteriga ko'ra tanlash masalasini ko'ndalang qo'yadi. Bizningcha, badiiy asarlarni virtual borliq imkoniyatlari doirasida o'rganish masalasi o'quvchilarning obrazli tasavvuri va badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirishi qatori kompyuter orqali tajribalar o'tkazish, turli xil pedagogik dasturiy vositalar bilan ishlash, obyektning ichki va tashqi tuzilishini har tomonlama tushunishga yo'l ochadi. Eng muhimi, virtual borliqda voqelikning kuzatuvchisi, ishtirokchisi, baholovchisi va ta'sir o'tkazuvchisi sifatida harakatlanish imkoniyatining mavjudligi bilan an'anaviy ta'limdagi yondashuvlardan ancha farqlanadi.

Adabiy ta'limda foydalanish uchun bugun dolzarb sanalayotgan virtual borliq imkoniyatlari axborot texnologiyalari sohasidagi eng so'nggi yutuqlarini o'z ichiga qamrab olishi, unda

rivojlangan davlatlarning virtual laboratoriya mashg'ulotlariga doir tajribalaridan unumli foydalanish, muhimi, o'quv reja, dasturlar hamda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini nazarda tutgan holda yaratilishi maqsadga muvofiq. Adabiy ta'lim jarayonida virtual muhit yaratish uchun loyiha amalga oshirilishi zarur. Loyiha doirasida virtual muhit: maxsus xona, virtual muhitga kirishga mo'ljallangan vositalar zarur bo'ladi.

Asarning pedagogik dasturiy vositalar yordamida tayyorlangan virtual varinatsiya ichiga “kirish” orqali sujetdagi ketma-ketlikni, qahramonlar o'zaro munosabatlarini kuzatish, ular bilan birga harakatlanish yoki ta'sir ko'satish mumkin bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan olinganda adabiy bitiklarni o'rganish masalasiga ularning tabiatidan kelib chiqib yondashish maqsadga muvofiq. Masalan, 6-sinfda o'rganilishi rejalashtirilgan “Fantastika va sarguzashtlar olami” faslidagi H. Shayxovning “Birinchi sinov”, R. Bredberining “Bir kunlik yoz”, J. Vernning “O'n besh yoshli kapitan”, A. K. Doylning “Mallalar uyushmasi” kabi asarlar [2, 96–168-b.] sujeti virtual texnologiyalar asosida o'rganishga qo'l keladi. Buni globalashuv jarayonlari, zamon bilan hamnafas yoshlarning qiziqish va intilishlari ham taqozo etmoqda.

Masalan, H. Shayxovning ilmiy-fantastikaga mansub “Birinchi sinov” [2, 98–105-b.] asari yuzasidan virtual tajribalar boshqa fanlar, xususan, sujeti koinotda sodir bo'lishi nuqtayi nazaridan fizika va astronomiya fanlari bilan aloqadorlikda tashkil etishni taqozo etadi. O'quvchilarning samoviy jismlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish uchun You Tube kanaliga joylashtirilgan virtual planetariylarga sayohatlar uyushtirish mumkin. Bunda quyidagilar nazarda tutiladi:

1. asarni virtual muhitda gavdalantirish uchun sujetni ixchamlashtirib ssenariy tuzish, vaqt va hajmni e'tiborga olish;
2. hikoyachi va qahramonlar nutqini ifodalashning optimal yo'llarini belgilash, ovozning o'quvchi sezgilariga ta'sirini ko'zda tutish;

3. voqea joyi, detallar va zamonni ifodalash texnikasini aniqlashtirish;

4. virtual muhitning o‘quvchilar psixologiyasiga ta‘sirini nazarda tutib unga doir chora-tadbirlarni rejalashtirish;

5. virtual mahsulotning adabiy ta‘lim maqsadiga qay darajada muvofiq kelishini bashoratlash;

6. o‘quvchilar tomonidan bajariladigan harakatlarni loyihalashtirish;

7. o‘quvchilarning asar sujetiga ta‘sir ko‘rsatish imkoniyatlarini belgilash va buning uchun maxsus kadrlarni kiritish;

8. o‘quvchilarni virtual texnologiyalar bilan ishlashga jalb etish, g‘oyalarini taklif etishga yo‘naltirish va hk.

Yuqorida qayd etilganlar, albatta, jiddiy, ancha vaqt, mehnat va mablag‘ talab etganligi bois yaratuvchi g‘oya muallifi (o‘qituvchi) oldindan jarayonni loyihalashtirishi maqsadga muvofiq. Bunda dasturchi, zarur hollarda loyihani moliyalashtiradigan tomonlar bilan hamkorlik qilishi muhim sanaladi. Albatta, loyihaning samarali yakuni g‘oyaning ishonchliligi, aniq maqsadga qaratilgani, mualliflarning kreativligi hamda pedagogik dasturiy vositalar imkoniyatlaridan oqilona foydalanishiga chambarchas bog‘liq.

Asar sujeti virtual borliq muhitida quyidagi kadrlar orqali gavdalantiriladi:

1. Koinotda “Qora kit” burji tomon harakatlanayotgan kosmik kema, ekipaj a‘zolari, Quyosh sistemasidagi samoviy jismlar, yuqoridan ko‘rinayotgan zangori Yer sayyorasi.

2. Fazoviy kema ichidagi hayot: gumbazsimon Bosh Pult, ro‘zg‘or ishlari bilan band ona, akvariumdagi rangli baliqlar, gullarni parvarishlayotgan qizaloq.

3. Ota va qizcha suhbat. Shahnozaning e‘tirozi.

4. “Kamalak” ekipaji somon yo‘lida duch kelgan tasodifiy hodisa.

5. Robotning ishdan chiqishi va qizchaga tahdidi.

6. Shahnozaning sinovdan muvaffaqiyatli o‘tishi.

Agar asar voqealari pedagogik ta‘lim dasturlari asosida simulyatsiya qilinsa, unda maxsus vositalar (ko‘zoynak, shlem,

qo‘lqop, kostyum) orqali o‘quvchi voqealar rivojida harakatlanishi mumkin bo‘ladi. Lekin avval asar mazmuni bilan chuqurroq tanishish, qo‘llanilgan so‘zlar ma’nosini aniqlash, tasvirlarning fizika va astronomiya fanlari qonuniyatlariga qay darajada mosligini o‘rganish zarur bo‘ladi.

O‘quvchilarning hikoyadagi kabi lavhalarga kino yoki multfilmlarda ko‘plab marotaba duch kelishganiga e’tibor qilinsa, o‘zlashtirishga qiyin va zerikarli tuyulmaydi. Buning uchun darslikda qo‘yilgan savol-topshiriqlar ustida ishlanadi, bu muhim bosqich sanaladi. 6-sinf o‘quvchisi uchun tanish bo‘lmagan fizika faniga oid *dozimetr, gravitomer, barometr, radiatsiya schyotchigi, kibernetik asboblari, pozitron miyali robot, infratovush to‘lqinlari yoki Somon yo‘li* kabi atamalar ma’nosini ochiqlovchi maqsadga muvofiq. Muallif tomonidan o‘ylab topilgan “Qora kit” burji, yerliklar qaysidir sayyorada uchratgan mingoyoqqa o‘xshagan oliy aql egalari, ularning muloqot tarzi (ko‘zlarining pastrog‘ini turli rangga kiritish orqali so‘zlashishi), okean suviga o‘xshash shakldagi yaratilishlar ham tasavvurga asoslanishni taqozo etadi.

O‘qituvchi o‘quvchilar diqqatini quyidagilarga qaratish orqali nutqini, tasavvurini, ijodiy va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga erishishi mumkin:

– “Qora kit” burji, u yerdagi hayot, o‘zga sayyoraliklarni qanday tasavvur qilganliklarini so‘zlab berish (uyga vazifa sifatida rasmini chizish yoki tasavvuridagi kosmik kema maketini yashash);

1. qahramonlarning Yerga qaytgan vaqtidagi tashqi ko‘rinishi, Shahnozaning tengdoshlari bilan fikrlashidagi farq nimalarda aks etishini ifodalash;

2. sayyoralararo vaqt nisbati haqidagi farazlarini bayon etish;

3. agar hayotda Shahnozadek muammoga duch kelib qolishsa, qanday yo‘l tutishiga doir fikrlari bilan tanishish;

4. o‘zbek oilasining samoviy sayohatidan jamiyatga qanday naf yetishi mumkinligi xususidagi fikrlari bilan o‘rtoqlashish;

5. asarning o‘zlari tomosha qilgan qaysi film (badiiy, hujjatli, multiplikatsion) epizodiga o‘xshashligini qiyoslab yoritish, o‘xshashliklarini aniqlash;

6. yozuvchining asarni yaratishdan qanday maqsadni ko‘zlagani taxmin qilish va shu asosda mulohazalarini bildirish;

7. hikoya o‘quvchilarda qanday g‘oyalar uyg‘otganini, ularni amalga qanday tatbiq etish mumkinligi haqidagi fikrlari bilan o‘rtoqlashish va hk.

Xulosa qilganda, dasturlashtirilgan manzaralar oldindan ma’lum vaqtga mo‘ljallangan bo‘lib, virtual muhitda sujetga ta’sir qilishni nazarda tutgan holda loyihalashtiriladi va o‘quvchilarning idrok etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Kreativlikni rivojlantirish maqsadiga qaratilgan virtual ta’lim texnologiyalari tasviriy san’at, musiqa va texnologiya fanlari o‘rtasidagi aloqadorlikka tayanishni taqozo etadi. Bu esa, asarda tasvirlangan makon va davr ruhini, muallif nuqtayi nazarini ochib berishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Cecilia, S. L. Virtual reality and environments. First published April, 2012. Printed in Croatia. Published by In Tech. ISBN 978-953-51-0579-4. – P. 27–32.

2. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.

3. Файзиева М., Сайфуров Д. Барча таълим йўналишлари учун “Виртуал таълим технологияси” модули бўйича ўқув-услугий мажмуа. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2016. – 155 б.

4. Шердонов З. Кимё фанини ўқитишда ахборот коммуникацион технологиялардан фойдаланиш // Maktabda kimyo. – Т., 2013. – №4. – 5–9-б.

5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III ҳарфи. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. –89-б.

6. www.ziyouz.com kutubxonasi.

ADABIY LABORATORIYADA BADIY ASAR QAHRAMONLARINING MIZOJI (TEMPERAMENT)NI ANIQLASH MASHG‘ULOTINI TASHKIL ETISH TAJRIBASI



Jamoliddin Nurmuhammadov
*ToshDO‘UTAU erkin tadqiqotchisi,
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi
huzuridagi ITMA bosh mutaxassisi*

e-manzil: jamoliddinnur13@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada o‘quvchilarni adabiy laboratoriya sharoitida badiiy asar qahramonlariga psixologik diagnoz qo‘yish, ularning mizojini (temperament) aniqlashga o‘rgatuvchi metodika aks etgan bo‘lib, obrazlarni tahlil qilishning noodatiy shakli keltirib o‘tiladi. Bunda o‘quvchilar o‘zlari mutolaa qilgan asar qahramoniga tirik shaxs sifatida qaraydi va ularning xarakter xususiyatlarini o‘rganuvchi tadqiqiy tajriba o‘tkazadilar. Qahramon shaxsiga o‘zi va o‘zgalarning fikrlarini test shaklida ochib beradilar.*

Kalit so‘zlar: *adabiy ta’lim, adabiy laboratoriya, mizoj (temperament), onlayn savolnoma, tavsifiy hisobot, laborant, 8-9-sinf, xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolik.*

Umumiy o‘rta ta’limning 8–9-sinf o‘quvchilarida ayni shu davrda (15, 16 yosh) “o‘tish jarayoni” kuzatiladi. “O‘tish davri” psixologiyasini bilish pedagogik nuqtayi nazaridan ham, psixologik nuqtayi nazaridan ham juda muhimdir.

15, 16 yoshdagi o'quvchilarda atrofni o'z tafakkuri doirasida keng tahlil qilishga urinish va bu borada o'z so'zini aytishga kuchli intilishni kuzatish mumkin.

“O'smirlik yoshi shaxsning tarkib topish jarayonida alohida o'rin tutadi. Bu davr asosiy davr hisoblanadi. Chunki bu yoshda kishi ruhiyatida g'oyat muhim psixologik o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu o'zgarishlar va shaxsiy rivojlanish, eng avvalo, mana shu shaxsning faoliyat xarakteriga bog'liqdir”[4].

Demak, 8–9-sinfda o'quvchilar mustaqil xulosalar chiqarishga va shu asosida o'zi to'g'ri deb bilgan ishlarni qilishga ko'proq moyil bo'ladilar.

Psixologiya ilmida insonga xos bo'lgan 4 xil mizoj (temperament) belgilab qo'yilgan.

“Mizoj (temperament) deganda biz, odatda, kishining tabiiy tug'ma xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan individual xarakterini tushunamiz. Mizoj, psixologik jihatdan olganda, kishidagi hissiyotning qo'zg'alishlarida va umumiy harakatchanligida ko'rinadigan individual jihatdir”[5, 57-b.].

Inson mizojiga oid bilimlar 8–9-sinflarda odam va uning salomatligi va biologiya darslarida berib o'tiladi. Shu bilimlar asosida o'quvchilar o'zlari va atrofidagilarning mizojini aniqlashga qiziqadilar.

Agarda shu qiziqishlarni badiiy asar qahramonlariga nisbatan qo'llab laboratoriya mashg'uloti o'tkazilsa, u hayotiy kechadi. Quyida uni o'tkazish metodikasi bilan tanishtiramiz.

Adabiy laboratoriya mashg'uloti

Mashg'ulot mavzusi: Badiiy asar qahramonlariga psixologik tashhis qo'yish – mizojni aniqlash.

Mashg'ulotdan maqsad: adabiy laborantlarga obrazlarning asardagi o'rni, xatti-harakati va gap-so'ziga qarab psixologik baho berishni o'rgatish.

O'tkazish shakli: Ijtimoiy tarmoq orqali onlayn so'rovnoma.

Kutiladigan natija: laborant (o‘quvchi) asar qahramoniga to‘g‘ri tashxis qo‘ya olishi; uni hayotiy o‘lchovlar asosida baholay bilishi; obrazni “tirik odam” sifatida tasavvur qilishi kutiladi.

1-qadam. Badiiy asar qahramonlariga psixologik tashhis – mizoj qo‘yish mashg‘ulotida mizoj haqida tushuncha berish bilan boshlanishi maqsadga muvofiq.

2-qadam. Bu bosqichda Google kompaniyasining forms.google.com dasturi, Telegramning “Опросы” funksiyasi haqida tushuncha berib o‘tiladi. Ushbu dasturlarda qanday qilib onlayn so‘rovnoma tashkil etish yo‘l-yo‘riqlari ko‘rsatib o‘tilgan.

3-qadam. 8–9-sinf “Adabiyot” darsligida berilgan istalgan yoki laboratoriyada belgilab olingan badiiy asardan bir nechta obraz tanlab olinadi. Bunda muallif tomonidan asarda kengroq tavsif berilgan qahramon tanlangani yaxshi natija beradi.

8–9-sinflar uchun mo‘ljallangan laboratoriya mashg‘ulotlarida ushbu sinflar “Adabiyot” darsliklaridan o‘rin olgan badiiy asarlar qahramonlariga psixologik tashxis qo‘yish amaliyoti o‘tkazildi. Bunda o‘quvchilar o‘zlari tanlagan obrazlarga mizoj belgiladilar va to‘rt mizoj xususiyatlaridan kelib chiqib, qahramon shaxsiga baho berishni o‘rgandilar.

Bu mashg‘ulotda psixologik tashxislashdan oldin o‘quvchilar darslikda berilgan asarning qahramonlarini tanlab oladilar va ularning asardagi o‘rni, nutqi, holati, tutumlari, tuyg‘ulari tasviri hamda o‘zini tutishidan kelib chiqib baholaydilar.

Namuna sifatida quyidagi asarlardan birini olishimiz mumkin:

O‘quvchilar tomonidan tanlangan asar va obrazlar jadvali

Sinf	Asar nomi	Tanlangan asar qahramoni
8	Shukur Xolmirzayevning “O‘zbeklar” qissasi	Ergashvoy, Botir cho‘pon O‘rmon aka
8	Chingiz Aytmatovning “Oq kema” qissasi	Bola Mo‘min chol O‘rozqul
9	Jek Londonning “Hayotga muhabbat” hikoyasi	Yo‘lovchi Bill
9	Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romani	Abdulatif Ulug‘bek

Mashg‘ulot ishtirokchilari tanlangan asar qahramonlari bo‘yicha Google forma dasturiga savolnoma joylashtiradilar. Laboratoriyada (Google formada) ushbu mashg‘ulot natijalarini umumlashtiruvchi jadval ham tuzib olinadi. Jadval so‘ngida esa eng ko‘p moslik aniqlangan mizoj tipi qayd etilinadi.

8–9-sinflar “Adabiyot” darsliklaridan o‘rin olgan badiiy asarlar qahramonlariga qo‘yilgan psixologik tashxis namunasi

T/r	Javoblar	Obrazga mos kelsa plyus (+) belgisini qo‘ying.		
		Bola	Mo‘min chol	O‘rozqul
1.	Chidamsiz.			+
2.	Doim yangilikka intiladi.	+		
3.	Harakatlari keskin va shiddatli.			+
4.	Harakatlari sust.	+		
5.	Ishga goh berilib ketadi, goh tashlab qo‘yadi.	+	+	

6.	Kamchilik va nuqsonlarga beshafqat.			+
7.	Kayfiyati tez o'zgaruvchan.	+		+
8.	Kishilarga kek saqlamaydi, xafa bo'lmaydi.		+	
9.	Masalaga ta'sir qilish va hal qilishga qobiliyatli.			+
10.	Muammolarda keskin va to'g'ri so'z.			+
11.	O'jar.			+
12.	O'zini bosishi qiyin.			+
13.	Qo'nimsiz va shoshqaloq.			+
14.	So'zlaganda nutqi tez, ehtirosli.			+
15.	Tabiati beqaror, qizishishga moyil.			+
16.	Tajovuzkor, janjalkash.			+
17.	Tashabbuskor va tezda bir qarorga keladi.			+
18.	Tavakkalchi.			+
19.	Tortishuvda topqir.		+	
20.	Yuz ko'rinishi ochilib-sochilib turgan.			
21.	Asosiy masaladan chetga chiqishga moyil.			+
22.	Bir ishdan ikkinchi ishga oson va tez kirisha oladi.		+	+
23.	Bir xil, mashaqqatli ishdan qiynaladi.	+		
24.	Chidamli va ishchan.		+	+
25.	Hamma vaqt kayfiyati yaxshi, tetik.			+
26.	Har qanday ishga zo'r qiziqish bilan kirishadi.	+		
27.	Har xil sharoitga oson moslashadi.			+
28.	Ishchan, g'ayratli.		+	
29.	Jamoatchi, dilkash va ko'ngilchan.		+	

30.	Ko'pchilik hollarda boshlagan ishini oxiriga yetkazmaydi.	+	+	
31.	Ko'pchilik hollarda masalani hal qilishda xayolparast va shoshqaloq.	+	+	
32.	Murakkab sharoitda ham o'zini tuta biladi.		+	
33.	Muvaffaqiyatsizlik va ko'ngilsizlikni yengil o'tkazadi.			+
34.	O'ziga ortiqcha baho berishga moyil.			+
35.	O'zini qiziqtirmagan ishdan tezda soviydi.	+	+	
36.	Qiziqishi va mayli turg'un emas.			+
37.	So'zlagan nutqi qattiq, tez, aniq, imo-ishoralari jonli hamda keskin.			+
38.	Tez uxlaydi va tez uyg'onadi.			
39.	Xushchaqchaq va quvnoq.			+
40.	Yangilikni tez egallashga layoqatli.			
41.	Bir ishdan ikkinchi ishga qiyin moslashadi.	+		
42.	Boshlagan ishni oxiriga yetkazadi.		+	+
43.	Chidamli va o'zini tuta biladi.	+	+	
44.	Chidamli, sabr-toqatli.	+	+	
45.	Ehtiyotkor va andishali.	+	+	
46.	Gapirganda nutqi bir xil, tekis imo-ishorasiz va hayajonsiz.	+	+	
47.	Ish tartibi va rejimiga qat'iy amal qiladi.		+	
48.	Ishda batartib va sharoitni hisobga oladi.		+	
49.	Ishga behuda kuch sarf qilmaydi.			
50.	Kamgap, behuda so'zlashni yoqtirmaydi.	+	+	
51.	Kek saqlamaydi, kechirimli.		+	

52.	Ko‘pchilik hollarda atrofidagi voqea-hodisalarni sezmay qoladi.	+	+	
53.	Kutishga, chidamga layoqatli.	+	+	
54.	Maqtovlarga befarq.	+	+	
55.	Muomalasi hammaga bir xil.		+	
56.	O‘z qiziqish va muammolarida hamma vaqt bir xil.	+	+	
57.	O‘zini noqulay vaziyatlarda tuta biladi.		+	
58.	Sovuqqon va xotirjam.			+
59.	Tartib va intizomni yaxshi ko‘radi.	+	+	+
60.	Yangi sharoitga qiyin moslashadi.	+	+	
61.	Atrofdagilardan o‘zi uchun kuyinish va yordam kutadi.	+	+	+
62.	Gapga ta’sirchan va tez o‘ziga oladi.	+	+	
63.	Gumonsirashga, maydakashlikka moyil.			+
64.	Haddan tashqari tez xafa bo‘ladi.	+		
65.	Hech kim bilan tortishmaydi	+	+	
66.	Indamas, o‘ta itoatkor.	+	+	
67.	Kamharakat va beso‘naqay.			
68.	Ko‘pchilikni yoqtirmaydi.	+		+
69.	Muvaffaqiyatsizliklarda o‘zini yo‘qotib qo‘yadi.			+
70.	Notanish kishi bilan tez til topisha olmaydi.	+		
71.	O‘z kuchi va imkoniyatlariga ishonmaydi.	+	+	
72.	O‘zi bilan o‘zi bo‘lishni yaxshi ko‘radi.	+	+	
73.	O‘ziga va atrofdagilarga talabchan.			+
74.	So‘zlaganda nutqi kuchsiz, ba‘zan shivirlab qoladi.	+	+	

75.	Suhbatdoshining xarakteriga ilojsiz ko‘nikadi.	+	+	
76.	Ta’sirchan, hatto yig‘lashi ham mumkin.	+	+	
77.	Tez charchaydi.	+	+	
78.	Tortinchoq va uyatchan.	+	+	
79.	Yangi sharoitda o‘zini yo‘qotib qo‘yadi.	+		
80.	Yolg‘izlikni yaxshi ko‘radi.	+		

So‘rovnoma o‘tkazib bo‘lingach, quyidagicha tavsifiy hisobot jadvali tayyorlandi:

Tavsifiy hisobot jadvali

Savolnoma raqami	Obrazlar	Bola	Mo‘min chol	O‘rozqul
1 dan 20 gacha moslik soni (xolerik)		4	3	14
21 dan 40 gacha moslik soni (sangvinik)		5	8	10
41 dan 60 gacha moslik soni (flegmatik)		12	17	3
61 dan 80 gacha moslik soni (melanxolik)		16	11	5
Mizoj tipi bo‘yicha xulosa		Ko‘proq melanxolik, qisman flegmatik	Ko‘proq flegmatik, qisman melanxolik	Ko‘proq xolerik, qisman sangvinik

Laborant-o‘quvchi tomonidan so‘rovnoma o‘tkazib bo‘lingach, natijalar qayd qilingan obrazga **tavsifnoma** tayyorlash vazifasi qo‘yiladi.

Shuningdek, 8–9-sinflar o‘quvchilari uchun asar syujeti, muallif qarashlarini har tomonlama tahlil qilib, mustaqil fikrlarni kitob-axborot va kitob sharhi shaklida bayon qilish malakasini rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar ham o‘tkazildi. Mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun quyidagicha “qadam-baqadam” (step by step) rejasi ishlab chiqildi:



“Qadam-baqadam” rejasi

Qadamlar	Mazmuni
1	Laboratoriya a’zolariga aniq ko’rsatmalar berish.
2	Kitob haqida hisobot yoki sharh tayyorlayotganda, avvalo, asar tahlil qilish yo’nalishini aniqlashtirib olish.
3	Tanlagan yo’nalishingiz bo’yicha asarni tahlil qilish yoki unga sharh yozishni boshlash.
4	Tayyor bo’lgan materialni laboratoriyada taqdimotini o’tkazish.
5	Taqdimotdan so’ng berilgan mulohazalar asosida kitob-axborot yoki kitob sharhga tuzatishlar kiritish.
6	Tayyor bo’lgan kitob-axborot yoki kitob sharhni ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va kuzatuvchilarning munosabatlarini o’rganish.
7	Kitob-axborot yoki kitob sharhlari bo’yicha laboratoriyaning boshqa a’zolari, o’qituvchilar, ijtimoiy tarmoq kuzatuvchilarining fikrlari asosida reyting shakllantirish.

Tahlil va natijalar. Mashg’ulot ishtirokchilarini baholash *Google forma* dasturiga savolnoma joylashtirib, bu bo’yicha olib borilgan ishlarni hisobot-tavsifnoma shaklida yoza olish malakasiga qarab o’tkazildi. O’quvchilarning bu boradagi faoliyatini baholashning nisbiy mezonini ishlab chiqildi:

5 ball – asar qahramoniga oid eng yaxshi savolnoma tuzgan, uni *Google formada* muvaffaqiyatli joylashtirgan, eng ko’p ishtirokchi ovozini yig’gan, eng yaxshi kitob-axborot yoki kitob sharhi tayyorlagan, ijtimoiy tarmoqda frontal tarzda ommalashtirgan va taqdimot o’tkazgani uchun;

4 ball – asar qahramoniga oid o’rta darajada savolnomani tuzgan, uni *Google formada* joylashtirgan, ko’p ishtirokchi ovozini yig’gan, o’rtamiyona kitob-axborot yoki kitob sharhi tayyorlagan,



ijtimoiy tarmoqda frontal tarzda ommalashtirgan va taqdimot o'tkazgani uchun;

3 ball – asar qahramoniga oid qoniqarli savolnoma tuzgan, ammo savollarda biroz kamchilik bo'lgan, uni Google formada joylashtirgan, kam sonli ishtirokchi ovozi yig'gan, sayoz kitob-axborot yoki kitob sharhi tayyorlagan, uni ijtimoiy tarmoqda qoniqarli ommalashtirgan va taqdimot o'tkazgani uchun.

Xulosa qilib aytish mumkinki, adabiy laboratoriyada badiiy asar qahramoniga psixologik diagnoz qo'yish, ularning mizojini aniqlashga urinish obrazlarni o'quvchiga yana-da yaqinlashtiradi. Bu esa o'quvchida analitik fikrlash va tahlil uchun baza vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi (1-qism). – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – 396 b.
2. Yo'ldoshev J. G', Usmonov S. A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: Fan va texnologiya, 2008. – 132 b.
3. Kambarova, S. Loyihalashtirish – tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish omili sifatida. – Til va adabiyot ta'limi, 2022. – 9 son. – 8 – 10-b.
4. Shukurova H. O'smirning psixologik va fiziologik rivojlanishi to'g'risida mulohazalar. Manba:
[https://www.oriens.uz/media/journalarticles/62 Shukurova Hulkar 436-444.pdf](https://www.oriens.uz/media/journalarticles/62%20Shukurova%20Hulkar%20436-444.pdf)
5. Ivanov P., Zufarova M. Umumiy psixologiya. –T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 357-b.

O'QUV TOPSHIRIQLARI

BLUM TAKSONOMIYASINI BIR RUBOIYNI O'RGANISH MISOLIDA QO'LLASH



Mahfuza To'ychiyeva

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
Davlat O'zbek tili va adabiyoti
universiteti O'zbek adabiyoti ta'limi
kafedrası dotsent v.b., ped. fan. fals.
dokt. (PhD)*

e-manzil: mahfuza.t.u.@mail.ru

Annotatsiya. *Maqolada Alisher Navoiy ijodini umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'rganish tajribasi haqida so'z yuritiladi. Blum taksonomiyasini bir ruboiyni o'rganish misolida qo'llash ko'rsatilib, o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish, yuksak insoniy qadriyatlarga intilish, shoirning poetik mahoratini his qildirish masalasi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Navoiy, ruboiy, adabiyot darsi, Blum taksonomiyasi, tahlil, sintez, bilish, tushunish, qo'llash, baholash.*

Adabiy ta'limda Alisher Navoiy hazratlari ijodining tizimli o'rganilishi uning dunyo tamadduniga qo'shgan hissasi, beqiyos o'rni bilan bevosita bog'liq. Buyuk donishmand falsafasi va badiiyati yosh kitobxonga qay tarzda taqdim etilsa adabiy ta'lim uchun samaraliroq bo'lishi, keyingi avlod bebaho ijod namunalarini yaxshiroq anglashi masalasi har doim adabiy ta'lim

uchun dolzarb bo'lgan. Navoiyshunoslik yutuqlari adabiy ta'limda ham aks etib borishi tabiiy. Adabiyot o'qitish bilan shug'ullanadigan mutaxassislar ta'limga qarashlarning o'zgarishlarni hisobga olgan holda shoir ijodini o'rganishning yangi-yangi usul va metodlari ustida izlanmoqdalar. Adabiyot o'qitish metodikasida Navoiy ijodini maktabda o'rganish masalasida salmoqli, yirik izlanishlar olib borilgan. Masalan, M. Sariboyevaning ilmiy ishida Alisher Navoiy “Xamsa”si tarkibiga kiruvchi dostonlarni zamonaviy usullarda o'rgatish bilan bog'liq masalalar tadqiq qilingan. Adabiyot darslarida qo'llaniladigan interfaol usullarning foydasi, qo'shimcha imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan, ushbu usullarning o'quvchilar mustaqil o'qishlari va erkin fikrlashlarini ta'minlashdagi samarasi ochib berilgan [3, 160-b.].

V. Qodirovning “Umumta'lim maktablarida o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari” nomli ilmiy ishida Navoiy ijodini o'rganish misolida bir qator nazariy-metodik va amaliy tavsiyalar berilgan. Masalan, o'qituvchi sinf taxtasiga Navoiyning “Kamol et...” qit'asini yozishi, o'quvchilar ham daftarlariga ko'chirib yozishlari, o'qituvchi oldin bergan ma'lumotlar, tushunchalarga suyangan holda savol-javob tariqasida qit'adagi asosiy so'zlarni sharhlab, tahlil qilishi lozim deb hisoblaydi. Eng avval “kamol” so'ziga e'tibor qaratilib, quyidagi savol beriladi: “Birinchi misra boshidagi “kamol” so'zi tasavvufdagi biz oldingi darsda o'rgangan qaysi tushunchani eslatadi?” O'quvchilar “kamol” so'zi “komil inson” tushunchasini eslatishini tezda yodga oladilar. O'qituvchi “komil inson” ruhan poklangan inson ekanligini savol-javob orqali xotirlatib, yanada mustahkamlaydi. Birinchi misradagi “... et kasbkim” iborasini o'qituvchi o'zi sharhlab berishi kerak: “... et kasbkim” ya'ni “kasb etmoq” iborasining inversiya (so'zlarning joy almashinuvi)ga uchragan shakli bo'lib, “shakllantirmoq”, “hosil qilmoq” kabi ma'nolarni ifodalaydi. Masalan, “Ulkan tog' olisdan qudrat kasb etadi” yoki “quyosh ufqqa bosh qo'yarkan go'zallik kasb etadi” kabi poetik ifodalar bo'lishi mumkin. Ular tog' qudratli bir sur'atni,

ko‘rinishni hosil qiladi, quyosh go‘zallikni shakllantiradi ma’nolarini bildiradi. Demak, birinchi misradagi “kamol et kasbkim” so‘zlari orqali Navoiy har insonga qarata: “Sen o‘zingda kamolni shakllantirgin, ya’ni ruhiy poklanishni hosil qilgin” demoqda. Shundan so‘ng keyingi so‘zlar ham shu tarzda sharhlanishi kerak deb tavsiya qiladi [4, 96-b.].

Rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini, sinovdan o‘tgan yondashuvlarini milliy ta’limga olib kirish o‘qitish va o‘rganish sifatining o‘sishida, adabiyot darslarining samaradorligini oshirishda va sohani jahon standartlariga mos rivojlanishida, fanni o‘qitishda maqsadlarni soddadan murakkabga va aniqdan mavhumga qarab rejalashtirish uchun xizmat qiladigan Blum taksonomiyasi haqida so‘z ketganda, unda kognitiv ko‘nikmalar (bilish, tushunish, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish bilan bog‘liq ko‘nikmalar): a) quyi darajadagi ko‘nikmalar; b) yuqori darajadagi ko‘nikmalarga bo‘linishiga juda ko‘p mutaxassislar tomonidan e’tibor qaratilgan [1, 5-b.]. Yuqori darajadagi ko‘nikmalar quyi darajadagi ko‘nikmalarga qaraganda murakkabroq jarayonlarni o‘z ichiga oladi va o‘quvchilarda ularni shakllantirish uchun o‘qituvchidan kreativ yondashuvni talab qiladi. Shu bilan birga, quyi darajadagi ko‘nikmalarni shakllantirmasdan turib yuqori darajaga o‘tish mumkin emas.

Quyi darajadagi ko‘nikmalarga tubandagilar kiritilgan:

1. Bilish – o‘quvchi ma’lumotni eslab qoladi va uni qaytara oladi. Bu bosqichning asosiy xususiyatlari: kim, nima, qachon, qayerda, qaysi, nega singari savollarga javob bera olish; nomini aytish, ajratib olish, topish, moslashtirish, ro‘yxatini tuzish, qayta so‘zlab berish, tasvirlash singari amallarni bajara olish.

2. Tushunish – o‘quvchi ma’lumotni tushuntira oladi, boshqa shaklga sola oladi, talqin qila oladi va tasniflay biladi. Bu bosqichning asosiy xususiyatlari:

a. o‘rganilayotgan hodisalarni solishtirib, o‘xshash va farqli tomonlarini ko‘rsata olish;

b. o‘z talqinini bera olish;

- c. fikrni isbotlash uchun matndan misollar keltira olish;
- d. keyin nima bo'lishi mumkinligini bashorat qila olish.

3. Qo'llash – o'quvchi ma'lumotni yangi hayotiy vaziyatlarda qo'llay oladi. Bu bosqichning asosiy xususiyatlari:

- 1. muammoli vaziyatlarni yecha olish;
- 2. asar qahramonlarini boshqa vaziyatlarga solib ko'ra olish;
- 3. asarga o'zgacha (alternativ) yakun bera olish.

Yuqori darajadagi ko'nikmalarga quyidagilar kiradi:

1. Tahlil (analiz) – o'quvchi murakkab tushunchani kichikroq qismlarga ajrata oladi va qismlar orasidagi bog'liqliklarni izohlab bera oladi.

2. Yaratish (sintez) – o'quvchi o'rgangan narsalari asosida yangi narsa yarata oladi. Asarga yangi obraz qo'shish, yangi sarlavha qo'yish, asar asosida ssenariy (hikoya, she'r va hokazo) yozish, musiqa bastalash, asarga plakat yaratish, asar asosida savollar (testlar) tuzish, sahna asari qo'yish, video suratga olish singari topshiriqlar bu bosqichga misol bo'la oladi.

3. Baho berish – o'quvchi mezonlar asosida biron-bir voqea-hodisaga o'z munosabatini bildiradi. Asar qahramonlari xatti-harakatlarini oqlash (qoralash), asarga baho berish, taqriz yozish, asarni birovga tavsiya qilish uchun fikrlar bildirish bu bosqichga misol bo'la oladi.

Blum taksonomiyasi bir necha marta takomillashtirishga harakat qilingan. (Yangilangan Blum taksonomiyasi “Eslab qolish, tushunish, qo'llash, baholash, tahlil qilish va yaratish” kabi bosqichlardan iborat. Biz tavsiya qilayotgan variantda *matn yaratish* baholash qismida o'z aksini topgan) Uning mohiyati piramida, zinapoya va quyida biz tanlagan shakllarda izohlashadi.


Amaldagi 6-sinf “Adabiyot” darsligida berilgan Alisher Navoiyning bir ruboiysi [2, 68-b.]. misolida Blum taksonomiyasini quyidagicha qo'llash mumkin.

Har kimki suchuk so'z elga izhor aylar,

Har nechaki ag'yor durur yor aylar.

So'z qattig'i el ko'nglini ozor aylar,

Yumshog'i ko'ngillarni giriftor aylar.



– Bilish bosqichi:

– Ruboiyni ifodali o'qish.

– Lug'at bilan ishlash:

suchuk – shirin

ag'yor – dushman

yor – do'st

giriftor – band, asir.

– Tushunish bosqichi:

– Matn mazmunini (u mumtoz matn bo'lgani uchun) aytib berish. O'quvchi o'z so'zlari bilan ruboiy matnini aytib berishi kerak bo'ladi.

– Ruboiyni sharhlash. Bu o'rinda sharhlash II.1-banddagi jarayon bilan birga kechadi. Masalan: “So'zlovchi agar yaxshi so'zlar bilan gapirsa, o'ziga nisbatan yomon munosabatda bo'lgan inson fikrini ham yaxshi tomonga o'zgartirishi mumkin. Agar so'zlovchi qo'pol bo'lsa, suhbatdoshini o'zidan sovitishi, bezdirishi mumkin. Bu o'zaro munosabatlarning yomon bo'lishiga olib keladi” kabi.

– Qo'llash bosqichi:

– Matndagi so'zlarni ma'nodoshlari bilan solishtirish:

qattig'i – qo'poli, yomoni

yumshog'i – yaxshisi, shirini

el – xalq, inson, do'st

Masalan: *“So'z qattig'i el ko'nglini ozor aylar”* misrasida *“qattig'i”* so'zi o'rnida *“yomoni”* qo'llansa, ma'noda qanday o'zgarish bo'ladi? Yomon so'z tufayli ko'ngil *“ozor aylar”* bo'lishi tabiiy. Bu o'rinda shoir qo'pol so'zlash haqida yozar ekan, o'zi ham bunga amal qilgan holda so'zning *“qattig'i”* shaklini qo'llangan.

– Tahlil bosqichi:

1. Bu bosqichda o'qituvchi quyidagi afsonani keltirishi mumkin: *“Bir kuni shoh o'ng qo'l vaziri bilan shikordan qaytib kelayotganida, pastqam bir uyning oldida beli bukchaygan, hassaga tayangan holda bir qo'li oldinda tilanchilik qilib turgan qariyaga ko'zi tushadi. Shoh vazirga ishora qilib deydi: – Hu anovi mo'ysafidni ko'rayapsanmi? Bizlarga yoshligimizda saboq bergan Ali Safiy degan ustozga juda o'xsharkan-a?”*

Vazir: – Ma'zur tuting, o'sha qariya Ali Safiyning xuddi o'zidur, dedi.

Shoh darg'azab bo'ldi: – Men yurt hukmdori, sen vazir bo'la turib, bizga alifbodan saboq bergan ustozimizning shunday ko'yg'a tushishiga sabab ne?!

– Men ustozga ko'p bor maslahat soldim, unamadi. Yaxshisi, o'zingiz bir so'rab ko'rmaysizmi? – dedi vazir.

Shoh otdan sakrab tushib, Ali Safiy hazratlarining oldiga borib, ko'rishdi.

– Ustoz, bu ahvolotingizning boisi nedur? – deb so'radi.

– To'g'ri, – o'smoqchilab so'z boshladi ustoz, – men sizlarga chin dildan, chin so'zdan saboq berdim. Menga ham saboq bergan ustozlar ko'p bo'lgan. Ular ichida ikkitasi meni xush ko'rib, doim ardoqlab yurardi. Biri nima deyishni o'rgatardi, ikkinchisi esa nima demaslikni. Nima demaslikni bilaman-u, nima deyishni o'rganishim kerak, – deb, birinchi ustozga qo'l berdim, oqibatda shunday ko'yg'a tushdim. Keyin anglab yetdim: nima deyishdan ko'ra, nima demaslikni bilish donolik ekan.

Navoiy o'gitlaridan biri shunday: *“So'zni ko'ngulda pishqormaguncha tilga kelturma, har nekim ko'ngulda bor, tilga*

surma”. O’quvchilarga qo’pol so’zlashi orqali pand yeganlar haqida qanday hikoyatlar, ertaklar borligi haqida so’ralib, bir tush ta’birini ikki xil aytib, biri qatl qilingan, biri mukofotlangan munajjimlar hikoyati ham eslatiladi. Ulug’ mutafakkir so’zning qanday aytilishi, ifodalanishiga ham diqqat qiladi. Halim tabiatli kishi yumshoq, kishi diliga ozor yetkazmaydigan so’zni topib aytadi. Shuning uchun ham “kimdir topib so’zlaydi, kimdir qopib”, deyishadi. Bu, albatta, insonning fe’l-atvori, saviyasi bilan bog’liq. Kaykovus “sovuq so’z bir tuxumdur, undin dushmanlik hosil bo’lur” deyishi bilan haqli. Navoiy xuddi shu fikrlarni to’rtlik shakliga keltirilgani aytiladi.

– Yaratish bosqichi:

Darslikda keltirilgan yana qaysi ruboiy mazmuni shu ruboiy bilan hamohang ekanligini topish va izohlash talab etiladi.

Ko’nglungni orit barcha yomon xislatdin

Kim, yaxshi qiliq dalil erur rahmatdin.

Badxo’ylic ul vahshat erur shiddatdin

Kim, elga xaloslik yo’q vahshatdin.

Yoki:

Xub el bila suhbat tutubon xub o’lg’il,

Yaxshini talab qilg’il-u matlub o’lg’il.

Shirin so’z ila xalqqa marg’ub o’lg’il,

Yumshoq de hadisingni-yu, mahbub o’lg’il.

Ruboiylar didaktik tahlilga tortilishi, ularda ifodalangan g’oyalarning nozik farqlarini o’quvchilar bilan birgalikda izohlash lozim bo’ladi:

“Shirin so’z ila xalqqa marg’ub o’lg’il” misrasini izohlang.

Odamga yoqadigan so’z faqat maqtov, xushomad bo’ladi, deb tushunish mumkinmi?

“Do’st achchiq so’zlagan emas. Achchiq so’zni ham totli so’zlay olgandir do’st!” – degan Mavlono Jaloliddin Rumiy. Rumiy so’zlari qaysi misra bilan hamohang?

– Baholash bosqichi:

1. Bu bosqichda o‘quchilarga, ruboiy mazmunini beruvchi hikmatlar, xalq maqollaridan topish topshirig‘i beriladi.

2. O‘quvchilar o‘zlari guvoh bo‘lgan hayotiy voqea, o‘qigan badiiy asar, ko‘rgan kino, multfilmlaridagi “so‘z qattig‘i” tufayli ozor chekkan qahramonlar haqida matn yozishadi va unda xalq maqollaridan foydalanishadi.

Shu tariqa 6-sinfda Navoiy ruboiy va hikmatlarida ilgari surilgan pokiza axloq, yuksak insoniy qadriyatlarga intilish, odam fe‘l-atvoridagi illatlar, turli ko‘rinishdagi tuban xulqlardan qochish kabi fikrlarning badiiy talqini o‘rganilar ekan Blum taksonomiyasini qo‘llash orqali o‘quvchini kreativ, mantiqiy fikrlash va samarali muloqot qilish, real hayotiy muammolarga yechim topa olishiga yo‘naltirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi. An‘anaviylikdan zamonaviylikka. – T.: Fan Ziyo nashriyoti, 2020. – 161 b.

2. Mirzayeva Z., Djalilov K. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik. – T.: Respublika ta‘lim markazi. – 224 b.

3. Сарибаева М. Умумтаълим мактабларида Алишер Навоий эпик асарларини замонавий усулларда ўргатиш (“Хамса” асари мисолида): пед. фан. номзоди ... дисс. – Т., 2011. – 162 б.

4. Қодиров В. Умумтаълим мактабларида ўзбек мумтоз адабиёти намуналарини ўқитишнинг илмий-методик асослари: пед. фан. доктори ... дисс. – Наманган, 2019. – 271 б.

BOSHLANG'ICH SINIF “ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI” DARSLIGIDAGI MAVZULAR USTIDA ISHLASH USULLARI



Mutallib Hazratqulov

*SamDU Maktabgacha, boshlang'ich
va texnologiya kafedrası dotsenti*

e-manzil: hazratqulovmutallib@gmail.com


Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda zamonaviy darsliklar bilan ishlash metodlari yoritib berilgan. “O'qish savodxonligi” darsligida berilgan mavzularning mazmuniy tomonlari tahlil qilingan. Darslikdagi mavzular bilan ishlashning ilmiy-metodik asoslari ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *darslik, matn, nutq mashqlari, anglash, tahlil, metod, ilmiy-metodik asos.*

2023-yildan nashr etila boshlangan 4-sinflar uchun “O'qish savodxonligi” darsligida “Do'stlar sayohati” mavzusi berilgan [1, 14–17-b.]. Bu mavzu darslikda “Tog'lar qanday paydo bo'lgan?”, “Qumlar qanday paydo bo'lgan?” kabi sarlavhalardan iborat kichik matnlar ko'rinishida tavsiya etilgan. Bu matnlar “Diqqat bilan o'qing” shartli belgisi ostida berilgan bo'lib, ular avval o'qituvchi tomonidan o'qib beriladi va o'quvchilar o'ituvchiga ergashgan holda ichdan o'qiydilar.

Matn ma'lumot berishga asoslangan bo'lib, o'quvchilar tabiat hodisalari, yer sayyorasi bilan bog'liq qiziqarli ma'lumotni o'zlashtiradilar. Bu matnni o'rganishning “Tabiiy fanlar” yoki tabiat bilan bog'liq matnlardan farqi shunda bo'lishi kerakki, bunda


o‘quvchilarda tilning funksional imkoniyatlaridan foydalanish darajasi – nutq mashqlari bilan ishlash imkoniyatlariga urg‘u berilishi kerak. O‘quvchilarning matnni eshitish va tushuna olish, his qilish, anglash, aytib bera olish ko‘nikmalari birinchi planga ko‘tarilishi lozim.



1-rasm

Matndagi vulqon otilishi, lavaning hosil bo‘lishi, qumning qanday paydo bo‘lishi kabi ma‘lumotlarga ega bo‘lishdan ham muhim narsa, o‘quvchilarning bu ma‘lumotlarni qanday qabul qilayotganliklari, qanday tushunayotganliklari va qanday tavsiflab bera olish ko‘nikmalarining rivojlantirilishi o‘qituvchining diqqat markazida turishi kerak. O‘qituvchi o‘quvchi bilan ishlashda mana shu jihatlarga e‘tibor qaratmog‘i muhim.

Matn ostida berilgan savollar quyidagicha:



2-rasm

Matn ostida berilgan savollar an’anaviy va sujetbop, tayyor javobga asoslangan. Oddiyroq aytganda bolani fikrlatish, qiziqishlarini oshirishga qaratilmagan. Xalqaro tadqiqotlar asosida tuzilgan savollar esa, mantiqiy fikrlashni talab etadi.

Darslikda berilgan topshiriqlarning bir xilligi o’quvchilarning kommunikativlik qobiliyatlarini yuzaga chiqarish imkoniyatiga yo’l bermayapti. Masalan, “Topshiriqni bajarish” shartli belgisi bilan berilgan topshiriqlardagi “Hikoyani rollarga bo’lib o’qing”, “Joy nomlari berilgan gaplarni topib o’qing” shartlarini bajarish o’quvchilarning fikriy rivojlanishi, dunyoqarashining kengayishi uchun hech narsa bermaydi. Bu vaqtni o’tkazish uchun bajariladigan amalga o’xshaydi.

“Izohli lug’at” belgisi ostidagi so’zlarni ko’rsatishda ham namuna sifatida ikkitagina so’z keltirilgan. Vaholanki, matnda “jins”, “Taiti” so’zlaridan tashqari Sahari daryosi, O’rtayer dengizi, lava, yer qatlami singari so’zlar izohi ham o’quvchilar uchun tushunarli bo’lmasligi mumkin. Bu ishlarni bajarish o’qituvchining yodidan ko’tarilmasligi lozim.

O’quvchilar bilan “Do’stlar sayohati” mavzusi ustida ishlashda quyidagi savollardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi:

1.Sherzodning dadasi tog’lar haqida yetarli ma’lumot beroldimi? Sizningcha, undan ham ko’p ma’lumotlar berishi, Sherzod yana ham ko’proq narsa bilishi mumkin edimi? Siz Sherzodga yana nimalarni aytgan bo’lardingiz?

2.Matn “Bir kuni...” jumlasini bilan boshlanyapti. Sizning bu kunni yilning qaysi fasli deb o’ylaysiz? Fikringizni asoslang.

3.Matnda Sherzodning “Voybo’!..” deyishiga va hayratlanishiga sababchi bo’lgan narsa nima edi, Sizningcha?

- A. Lava
- B. Vulqon
- C. Qumlar
- D. Tog’lar

4. Sherzodning dadasi aytgan ma’lumotlar ketma-ketligini to’g’ri qo’ying.

1.u judayam qaynoq.

2.biz turgan joyimiz yerning qattiq qismi.

3.u tashqariga yer qatlamini ko‘tarib olib chiqadi.

4.ba‘zan bu suyuqlik yer yuzasiga chiqadi.

5. Sherzod va Vali bilan bog‘liq jumalarni raqamlar bo‘yicha to‘g‘ri qo‘ying.

Sherzod: _____

Vali: _____

1) cho‘milibdi, 2) tushundim, 3) qoyil, 4) voybo‘, 5) minoralar yasabdi, 6) hayratlandi.

6. *“Harsanglarning joni bordek tuyuladi, uzoqdan o‘rmon ko‘zga tashlanadi...”* Sizningcha, bu jumlar Sherzod bilan bog‘liq tabiat manzarasimi yoki Vali borgan joy bilan bog‘liqmi? Sababini tushuntiring.


7. Siz ham Sherzod kabi tog‘lar qanday paydo bo‘lganligini tushuna oldingizmi? Yoki yana savollaringiz bormi?

8. Tabiatdagi yana nimalarni paydo bo‘lish sababi bilan qiziqasiz? Buni bilish uchun kimdan yordam so‘ragan bo‘lardingiz?

9. Quyoshning qanday paydo bo‘lganligini biror kishidan so‘rab ko‘rganmisiz? Sizga qanday javob berishgan?

10. Sherzod va Vali borgan joylarni xayolan tasvirlashga harakat qiling.

11. Rasmdan matnda tasvirlangan voqealarga o‘xshash joylarni ko‘rsatishga harakat qiling.



3-rasm




12. Uyga borganingizda o'zingizga yaqin kishingiz (otangiz, onangiz, bobongiz, akangiz, opangiz)dan tabiatdagi sizni o'ylantirgan, qiziqtirgan narsangizni so'rab, javobini bilib keling.

Agar o'qituvchi matn bilan bog'liq qiziqarli, hayotiy namunalardan foydalanib, darsini qiziqarli tashkillashtira bilsa, matn sujetidagi murakkablik o'quvchi uchun o'z kuchini yo'qotadi va soddalashib qoladi. Sababi o'quvchilar yuksak fikrlarga diqqatni qaratishganda voqealar bayoni uning pastki qismlarida qolib ketadi. Bu o'quvchilar uchun ham bilim, ham imkoniyat vazifasini o'taydi. Afsuski, aksariyat o'qituvchilr asosiy e'tiborni matn sujetiga qaratishadi, sujet voqealarinigina bilib olishni maqsad qilib olishadi. Bu – xato!

O'qituvchi matnni o'qib, o'quvchilar yordamida qisman tahlil qilgach, uni hayot bilan bog'lay olishi kerak. Shundagina o'quvchilar matnning hayotiylik qimmatini, hayotiy zaruriyatini anglashgacha borishadi.

4-sinflar uchun “O'qish savodxonligi” darsligining 18-sahifasida “Chaqmoq” she'ri berilgan [1, 18-b.]. 5-mavzuda 45 minut o'rganilishga mo'ljallangan vaqtda jami 8 ta topshiriq joylashtirilgan. Dastlab berilgan harflardan foydalanib tabiat hodisalariga oid so'zlar topish topshirig'i berilgan. O'quvchilar jami 12 ta harfdan foydalanib tabiat hodisalariga oid so'zlarni topishadi. Bunda sinfni guruhlarga ajratib va musobaqa tarzida o'tkazish ham yaxshi natija beradi.

Topshiriqni bajarish asnosida o'quvchilar chaqmoq, momaqaldir oq, shamol, do'l kabi so'zlarni hosila qilishadi.



4-rasm



She'r matnini o'rgatish tartibi: ifodali o'qish, tushunarsiz so'zlar ustida ishlash, she'r tahlili kabi uch bosqichda amalga oshirilishi mumkin.

Dastlab o'qituvchi she'rni ifodali o'qib beradi. She'rni ifodali o'qishda ohangdorlikka, to'xtamlarga, obrazlilikka rioya qilib o'qish she'r mazmunini o'quvchilar tasavvuriga oson yetib borishini ta'minlaydi. Bundan tashqari o'quvchilar har bir so'zning taftini, haroratini, jozibasini ham his qila olishlari lozim. Bu jarayon o'quvchilarning she'r mohiyatiga kirib borishlaridan tashqari ularning she'rni sevib qolish, uni yodlab olishga bo'lgan havaslarini ham oshiradi.

O'qituvchi she'rni o'qib bo'lib, uni sinfdagi yaxshi o'qiydigan bir o'quvchiga ham o'qitishi mumkin. O'quvchilar ichidan she'r o'qilishi qolgan o'quvchilarga ham she'rni ifodali o'qiy olishga ishonchni paydo qiladi.

She'r o'qilgach, undagi tushunilishi qiyin, izohtalab so'zlar ma'nosi ochib beriladi. Bu jarayon o'quvchilar bilan birgalikda ham bajarilishi mumkin. O'quvchilardan ba'zilar "falak" so'zining ma'nosini bilsa, qayerdadir eshitgan yoki o'qigan bo'lsa, aytishi mumkin.

She'r tahlilida har bir qator tahlil etilishi, har bir qatordagi so'zlar, ma'no, mazmun o'quvchilar bilan birgalikda sharhlanishi, tushunilishi o'quvchilar uchun nafaqat so'zlarning jozibasini, ifodaviyligini, balki tabiat haqidagi, borliq haqidagi bilimlarning ham ortib borishiga sabab bo'ladi. Masalan, "Chaqmoq chaqib olamni Qilich solar boshiga" misralaridagi "qilich solmoq" nimaligini o'quvchilar bilsalar-da, aynan hozir she'rda nima maqsadda qo'llanganligi obrazli tushuntirilishi lozim.

Jang tasvirlari ifodalangan ertaklar, multfilmlar, badiiy filmlarda qilich ishlatilgan lavhalar tasavvur ettirilish va bu lavhani chaqmoq chaqilgan vaqtdagi bir lahzalik yorug'lik bilan taqqoslanilishi lozim. O'quvchilarning tasavvur olamlari shu qadar keng va o'tkir bo'ladiki, o'qituvchining bu talabini tezda o'zlashtirib olishadi.

“Taraqlaydi arava, Ot tuyog‘i yo‘l ochar” misralarini sharhlashda ot-aravaga minib ko‘rgan, uning yonida bo‘lgan o‘quvchilar fikrini eshitib ko‘rish mumkin. Nega arava taraqlab yurishi izohlanishi shart. Ot tuyog‘ining yo‘l ochishi qachon va qanday sodir bo‘lishi o‘quvchilar tasavvurida gavdalantirilishi she‘rdagi badiiylikning yuzaga chiqarilishini ta‘minlaydi.

Oldingi qatordagi satrlar bilan keyingi qatordagi so‘zlar taqqoslab ko‘rilsa, ular o‘rtasidagi o‘xshashik darhol ko‘zga tashlanadi. Chaqmoq chaqishidagi ovoz va aravaning taqirlashi, falakning qirlar qoshiga chopishi va otning tuyog‘i she‘r misralaridagi ketma-ketliklarning bir-biriga mazmun, ifoda va badiiylik asosida bog‘lanib ketishi hamda misralardagi quvnoqlik, jozibadorlikning paydo bo‘lish jarayonini o‘quvchilar qalbiga yetkaza olishlik mahoratni talab etadi. Mahoratli o‘qituvchigina she‘r tahlilida o‘z o‘quvchilariga uning o‘ziga xos ajib manzaralarini tushuntirib bera oladi.

*“Qilichi yaraqlab bulut bag‘rini tilishi va bir ozdan so‘ng falakning yetti rangda kulish”*lari ham ajoyib tasvir usullarini o‘zida mujassamlashtira olgan. Bu mujassamlik o‘quvchilarini hayratlantirishi, o‘yga toldirishi, quvnatishi uchun o‘qituvchi bu “manzaralar”ni mohirlik bilan tushuntirib bera olmog‘i kerak bo‘ladi.

Darslikda tushunarsiz so‘zlar izohi uchun bitta “falak” so‘zi izohlangan. She‘rdagi jala, anhor, kamalak, dengiz so‘zlarini izohlab ketish ham foydali hisoblanadi.

She‘r tahlilida “Savollarga javob bering” shartli belgisi asosida berilgan savol va topshiriqlardan foydalanish mumkin, biroq bu savollar she‘r tahlilini to‘liq ochish uchun yetarli emas. Shu boisdan she‘rni hayot bilan bog‘lab, o‘quvchilarning kundalik-doimiy taassurotlaridan foydalanish holda tahlillash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, oxirgi marta havo bulutli bo‘lib chaqmoq chaqqan paytini kim eslay olishi, nimalarni kuzata olganligi, qanday hayajon va tuyg‘ular kechirganligi bilan bog‘liq suhbat, savol-javoblar yaxshi samara beradi.

Darslikning mavzuga oid 2-sahifasida topishmoqlar berilgan. Bu topishmoqlarga birgalikda jamoaviy tarzda javob topiladi.

Shundan so‘ng she‘rga oid krossvord berilgan. O‘quvchilar she‘rdagi so‘zlardan foydalanib krossvordni yechishlari kerak bo‘ladi. Bu topshiriq o‘quvchilarning topqirligi, ziyrakligini oshirish bilan birga she‘rni eslab qolish, uni takrorlash, yanada yaxshi bilib olish imkoniyatlarini oshiradi.



5-rasm

Umuman olganda, 45 minutlik darsda “Chaqmoq” she‘rini 4-sinf o‘quvchilariga o‘rgatish integratsiyalashtirilib – tabiat hodisalariga, kundalik hayotga bog‘lanib, qiziqarli topshiriqlar, topishmoqlar, o‘yin vositalari asosida tashkil etilishi o‘quvchilarning mavzuni to‘liq o‘rganib olishi, borliqni bilishi, aqliy rivojlanishi bilan birga she‘rga, badiiy adabiyotga, darsga qiziqishi ortishini ham ta‘minlaydi.

Har bir darsni qiziqarli, mazmunli tashkil etish uchun faqat darslik bilan kifoyalanmasdan hayot bilan bog‘lash, turli janrlar va hayotiy tajribalarga asoslanish ham darsning mazmundorligini oshiradi.

Mavzu so‘ngida uyga vazifa uchun she‘rni yod olish va tabiat hodisalari haqida qiziqarli ma‘lumotlar to‘plash topshirilgan. Shuni unutmaslik kerakki, dars qiziqarli va mazmunli tashkil etilsa, o‘quvchilardan she‘rni yodlash qattiq talab qilinmasa ham ularda yodlab olish istagi o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladi.

Tabiat hodisalariga oid ma‘lumotlar to‘plash o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lib, ularga bu topshiriqni bajarishda ota-onalari, yaqin kishilaridan yordam olishlari mumkinligi aytib o‘tilsa, ular bu topshiriqni a‘lo darajada bajarib keladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Aydarova U. B. O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. – T.: Novda Edutainment, 2023. – 80 bet.
- Husanboyeva Q., Hazratqulov M., Xolsaidov F. Ona tili va o‘qish savodxonligiga o‘rgatish metodikasi. Darslik. – T.: Innovatsion-ziyo, 2022. – 252 bet.
- Yo‘ldoshev Q., Yo‘ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. – T.: Kamalak nashriyoti 2016. – 464 b.
- Хусанбоева Қ. Таҳлил – адабиётни англаш йўли. – Т.: “Муҳаррир” нашриёти, 2013. – 432 б.

ОҚУШЫЛАРДЫ ШЫҒАРМА ЖАЗУҒА ҚАЛЫПТАСТЫРУДЫҢ КЕЙБІР ЖОЛДАРЫ



Ергаш Абдувалитов

Низомий номидаги TDPU

*Қозоқ тили ва адабиёти кафедраси
мудури, педагогика фанлари
доктори, профессор*

e-manzil: abduvalitov64@mail.ru

Аннотатсия. *Ushbu maqolada qozoq adabiyoti darslarida yozma ishlarni o'rgatish metodikasi masalalari yoritilgan. Yozma ishga javob haqida o'ylash, vazuyatni ko'rish, o'z his-tuyg'ularini va fikrlarini to'liqroq ifodalash va nutqni yuqori darajaga ko'tarish imkoni to'g'risida so'z yuritiladi.*

Аннотация. *Мақалада қазақ әдебиеті сабақтарында жазба (шығарма) жұмыстарды алу мәселесі қарастырылған. Жазба жұмысқа жоспар құру технологиясы мен бірге, оқушының ойлау қабілетін арттыруға және сауатты жазуға үйретеді.*

Кілт сөздер: *шығарма, жай жоспар, күрделі жоспар, эпиграф, қорытынды, сөз саптау, логика, әдістеме, мәтін, материал.*

Ана тілін үйрену, сондай-ақ басқа пәндерді де игеру барысындағы жетістіктер мен кемшіліктер баланың қалай сауаттануына байланысты болады. Қалай болғанда да жазба жұмыстары орындалатын сабақтардың табысты болуы, көбінесе, мұғалімдердің оқыту әдістемесімен айқындалады. Мұғалім оқушылардың шығармашылық дамуын қамтамасыз ететіндей алдына нақты айқын мақсаттар қоя білуі керек,




қандай дағдылардың қалыптасуына жету керектігін алдын ала болжайды. Ондай дағдылар төмендегідей: өз ойын, пікірін сауатты әрі көркем жеткізе білу; байқағыштығын, шынайы құбылыстарды бағалай білу; ой-өрісін, ұғымын кеңейту; ізденгіштікке ұмтылу; «өз ойы мен сөзін» айта білу дәрежесін қалыптастыру, әлбетте, фантазиялық еркіндігі мен орфографиялық сауаттылықты нығайту.

Жазу жұмыстарына байланысты маңызды шарттардың бірі – оқушылардың жазба жұмыстарына дайындалуы мен орындауының дұрыс ұйымдастырылуы. Жазба жұмыстарының, әсіресе, көлемді түрлерін (мазмұндама, шығарма) жазуға дайындалу және жазу орындарына қарай мынадай түрлерге бөлуге болады: а) сыныпта; ә) үйде; б) сыныпта-үйде; в) үйде-сыныпта.

Бақылау жұмыстары шығарма жазуға дайындықтың алғашқы, яғни, материал жинау кезеңі болмақ. Мұндай нақты жоспар оқытушыларды белгілі мақсатқа жеткізіп, оларды әр нәрсегетереңірек үңіліп, зейінмен қарауға үйретеді. Нәтижеде, оқушыларда өзіндік бақылағыштық әрекеттің қалыптасуына негіз болады.

Негізінде шығармаға материал жинаудың мазмұнын төмендегідей іс-әрекетті қамтиды: шығарма тақырыбын ашатын, негізгі ойды қамтитын материалдарды (сөз, сөз тіркесі, ой қорытындысы, мақал-мәтелдер, афоризмдер, өлең шумақтары) жинақтау; әдеби, ғылыми еңбектерден үзінді, пікірлерді қамтып алу; өзіндік пікір, қорытынды пікірді іріктеу; оқуға тиісті әдебиеттердің тізімін ұсыну; сұрақ-тапсырмалар және материал жинау; өзіндік пікірді қалыптастыру; оқушыларға алдын ала шығарма тақырыптарын ұсыну; жоспар, эпиграф жазу.

Осындай жұмыстардан кейін шығарма тақырыбы ашылмаса, берілген көркем туындының негізгі жерлері сыныпта қайта оқылады немесе мұғалім тарапынан айтылған тақырыпта жазылған жазба жұмыстардың үлгілерін оқып,



тыңдайды. Оқушылармен жүргізілген осы сипаттағы дайындық кезеңі, сөз жоқ, өзінің тиімді нәтижесін береді.

Шығарма жазуға дайындық барысындағы жауапты жұмыстардың бірі алынған тақырыпқа сәйкес қосымша материалды жинақтау қажет. Бұл – оқушылардың шығарма тақырыбына сәйкес білімін толықтырып, логикалық ойлау жүйесін қалыптастырады. Психолог ғалым А. Н. Луктың «Материалды жинау, біріктіріп жүйелеу – жинақталған білімді логикалық жағынан салыстыру, топтастыру, қорыту, бұл – белсенді ой процесі» [5,49-б.] деген пікірі біздің ойымызды дәлелдей түседі.

Шығарма жазу алдындағы материал жинау және іріктеу шығармашылық бағыттағы күрделі жұмысқа жатады. Мәтін ішінен шығарма тақырыбын ашуға көмектесетін және негізгі ойды дәлелдей алатын қосымша материалдар қажет.

Материалды топтауда шығарма тиімді жазылу үшін оқушыларға төмендегідей тапсырмаларды жүктеуге болады: материалды айтайын деген ойдың жоспарына сай топтау; бақылау мазмұны бойынша материалды қайта топтау; материалды қайта топтауда жіберілген кемшілікті түзету; жиналған материалдың болашақ шығарманың үш бөліміне ыңғайлап қайта ұсыну.

Материалды жинақтап іріктегенде оқушылардың мәтінді көркемдік ерекшелігі жағынан толық, жан-жақты талдай білуі, мәтіндегі кейбір авторлық нақты дәлелдемелерді жүйелеп көрсету үнемі ескеріліп отыруы керек. Демек, бұл жерде материалды дұрыс іріктеп білу процесі іске асырылады. Оқушылар өздік пікірін нақты үзінділер, мысалдармен дәлелдеп, қорытып жатса, шығарма сапасы арта түседі. Сондықтан материал жинақтау жұмысының мазмұнына кейде дәйексөзді іріктеуді де жатқызуға болады. Оқушылар нақты үзіндіні, мысалды негізінен өз ойын бекіту кезеңінде, зерттеуші-ғалымдардың, ақын-жазушылардың пікірін оқырмандарға тақырыпқа сай таныстыруда қолдануы керек. Бұл арада ескеретін бір жәйт – оқушы шығармасында міндетті

түрде үзінді, мысал болуы шарт емес. Оның ретіне қарай тақырыпты жан-жақты ашу барысында көрініс берген жөн.

Дайындық кезеңіндегі үлкен жауапкершілікті талап ететін жұмыстың түрі – шығарма тақырыбын таңдау. Оқушының таңдаған тақырыбы материалды жетік білетіндігімен, көңілге жақындығымен, жазуға мүмкіндік болатындығымен ерекшеленуі керек. Тақырып таңдау – бұл жұмыстың кіріспесі, шығарманың қалай басталып, қалай аяқталуы да осыған байланысты болады. Егер шығарма тақырыбы дұрыс таңдалмаса, сапалы шығарма жазылмақ емес.

Шығарма жазуға дайындық кезеңінде болашақ жұмыстың идеясын (өзінің және автордың айтпақ ойын) анықтап алып, шығармаға материал жинау, оны іріктеп, керектісін алып, содан соң барып жоспар құруға кіріскеніміз жөн. Жоспар жазып отырғанда әр бөлімнің тұсына шығармаға қажет ойымызды, материал алынған кітаптың бетін, өлеңнің атын, авторын жазып қою керек. Осы жұмысты атқаруда шығарма тақырыбы мен идеясын жиі-жиі еске алып отыруымыз қажет. Жоспар құру – шығарма жазудың негізгі бөлігі, себебі, жоспар оқушы ойының жүрісін бақылап, ойды тәртіпті, жүйелі болуына және өзекті мәселелерді анықтауға көмектесіп, іріктелген материал мен мазмұнның сабақтастығын нығайтады. Жоспардың бар элементі тақырыпты ашуға қызмет етуі тиіс, жоспар тақырыпқа билік (өктемдік) жүргізеді. Материалды жақсы білетін оқушы қысқа да нұсқа, жүйелі жоспар құра алады. Ал ойлы құрастырылған жоспар материалды жетік меңгерген өз иесінің қолтаңбасын танытады. Жоспар – өзінің құрылымдық құрылысы бар, көлемі анықталған, оқушыны шығарма жазуда ойлануға бағыттаптын, тақырыптың дамуын қалыптастырып, кейде үлкен тақырыпты шағын тақырыпшаға бөлшектейтін, ойды біріктіріп тұратын жүйе.

Жоспар логикалық үш бөліктен (Кіріспе, негізгі бөлім, қорытынды) тұратыны көпшілікке мәлім. Бірақ мектеп тәжірибесінде үлкен олқылық бар екеніне ешкім мән бермейді. Яғни, мұғалімдердің де, оқушылардың да үш бөлімнің нақты қызметіне, рөліне көңіл бөлмеуін айтар едік. Кіріспе бөлім – шығарманың орталық проблемасын ашудың басқышы. Мұнда оқушы кейде алға қойылған мәселелердің тарихи жағдайы мен байланысын көрсетсе, кейде жазушының ойын, көзқарасын не ол туралы өзгенің пікірін жазады. Негізінде бұл бөлім бүкіл жұмыстың мазмұнымен байланысты жазылады. Кей сәтте кіріспені оқушының келесі бөлімге психологиялық жағынан дайындап өткізудің көпірі деп санауға болады. Бұл бөлімде тақырыпты таңдау, оқушының, автордың мақсаты, пікірі жинақталады. Негізгі бөлім тезис пен аргументтерге толы логикалық талдаудың өзі, ой қорытындысының жиынтығы. Бұл бөлімде шығарманың негізгі мазмұны, тақырыбы ашылуы керек. Көлемі де өзге бөлімдерден қомақты болуы шарт. Қорытынды бөлімде айтылған ой жинақталып тұжырымдалады. Бұл бөлімде ой аяқталып, мазмұны алдыңғы бөлімдермен байланысты болуы қажет. Мұғалім мен оқушы есте сақтауы үшін төмендегідей нұсқауды ұсынамыз: шығарманың үш бөлімі тұтас бір бөлікті құрайды, үшеуі бірігіп, шығарманың мақсаты мен мазмұнын көрсетеді. Дегенмен, оқушылар бөлімдер арасындағы «көпірді» анық аңғаруы керек. Әрбір бөлімнің өзіне тән мөлшері, көлемі болады. Кіріспе мен қорытынды бөлім біріккенде бүкіл жұмыстың төрттен бір бөлігін қамтуы қажет.

Енді шығарма жоспарын құрудағы жіберілетін кемшіліктердің түрлері: тақырып мазмұнын түсінбеу салдарынан негізгі тақырыпқа үйлеспейтін тақырыпшалардың жоспарда жазылуы; жоспардың күрделі, түсініксіз құрылуы; қорытындының шығарма мазмұнына сай келмеуі; жоспардың шығарма мазмұнына сай жазылмауы.

Шығармаға жоспар құру оқушыға жазба жұмысында жүйелілікті сақтауға әсерін тигізеді. Мектеп шығармасы – белгілі бір тақырыпта жазылған ой қорытындысы. Өзіндік көзқарасты аңғартатын дәлелдеме. Сондықтан да оқушылардың қысқа болса да жоспар құруын міндетті деп санаймыз. Дайындық кезеңінде оқушылардың өз ойы, көзқарасы, пікірі шығармада айқын көрініп тұру қажеттігін олардың есіне жиі салып қоюдың артықшылығы жоқ. Себебі, шығарма – ең әуелі, оқушының өз дүниетанымдық көзқарасын білдіретін төл туындысы, өзіндік сөз саптауы.

Шығарма жоспарының бөлімдерінде қандай мәселелер қамтылатынын сөз еттік. Енді «Ыбырай – қазақ балалар әдебиетінің атасы» тақырыбында жаздырылатын шығарманың жоспарын оқушыларды қатыстыра отырып жасатсақ, оның үлгісі төмендегідей болып шығады:

Жоспар:

I. Кіріспе:

1. XIX ғасырдың екінші жартысындағы тарихи жағдай мен қазақ әдебиетінің сипаты.

2. Ы. Алтынсариннің жазушылық өмірі мен ағартушылық идеясының өзектілігі.

II. Негізгі бөлім:

1. Ыбырайдың педагогикалық қызметі.

2. Мектепе оқулығын жазуы.

3. Балаларды өнерге, білімге шақыруы.

4. Ыбырай әңгімелерінің кейіпкерлері – жастар мен шаруалар.

5. Оқушыны жаңа талап жастар ортасынан іздеу.

III. Қорытынды

Ыбырай Алтынсарин қазақ мәдениеті мен тарихынан алатын орны.

Шығарма жұмысына дайындықтың тағы бір кезеңі – көркем мәтінмен жұмыс. Көркем мәтінді түсініп талдауда оның мазмұнын білу ғана жеткіліксіз. Оқушылардың

психологиялық, жас ерекшеліктерін ескере отырып, әдебиет теориясынан мәлімет беріп бару мұғалімнің үнемі үздіксіз жүргізетін жұмыстарының бірі болып саналады. Методист-ғалым Р. Р. Майман «Мы считаем обязательным слияние длительного процесса подготовки к сочинению с анализом литературного произведения» [6, 13-б.].

Шығарма жазуға дайындықтың бір кезеңі оқушылармен мәтіндегі мағынасы түсінуге қиын тиетін сөздер мен тұрақты сөз тіркестері бойынша сөздік жұмысын жүргізу болып табылады. Мұның өзінен көркем шығарманың тілдік ерекшеліктеріне мән беріліп, оқушының логикалық ойлау қабілетін арттыруға болады. Бұл жерде ең бастысы, оқушы ізденеді.

Шығарма жазар алдында оқушыларға әр түрлі мазмұнды қамтитын әдеби тапсырмалар беру мүмкін. Олар: прозалық шығарманың бір эпизодын драмаға айналдырып жазу; өлең сюжетін қара сөзге айналдыру, эпизодқа талғау жазу; кейіпкермен тілдесу (оқушының өзіне ұнайтын бір кейіпкеріне арнау); тақырыптқа ауызша, жазбаша ой толғау ұйымдастыру, қабырға газетіне мақала жаздыру т.б.

Шығармаға дайындық кезеңінде болашақ шығарманың идеясы мен тақырыбын ашуда көмектесетін әдеби көрнекіліктің бірі эпиграф болып табылады. Шығарма жазуда эпиграф қойылуы тиіс! Себебі ол, біріншіден, шығарма жазуға дайындығын (әйтеуір көшіріле салынған емес) көрсетсе, екіншіден, алынған эпиграф шығармада қарастырылатын мәселенің тақырыбымен ұштасып, онда не туралы сөз болатындығын алдын ала аңғартып тұрады. Эпиграф таңдаудың көздері мыналар: кемеңгер-данышпандардың сөздері, қоғам қайраткерлерінің сөздері, халықтың мақал-мәтелдері, ақын-жазушылардың шығармалары мен қанатты сөздері т.б.

Жоғарыдағы «Ыбырай – қазақ балалар әдебиетінің атасы» тақырыбына ақынның өз өлеңін:

Желкілдеп шыққан көк шөптей,



Жаңа өспірім достарым...
Біз болмасақ, сіз барсыз,
Үміт еткен достарым,
Сіздерге бердім батамды[1, 6-б].
Эпиграф етіп алуға болады.

Сондай-ақ, эпиграфтың шығармадағы мәнін әдіскер-ғалым Б. А. Орлов былай бағалайды: «Эпиграф очень часто выполняет роль, не оказывая сколько-нибудь заметного влияния на содержание и стиль сочинения. Следовательно, эпиграф принесет пользу тогда, когда в нем выражается пафос сочинения, ваше увлечение темой» [8, 5–7-б.].

Оқушыларды шығарма жазуға жүйелі түрде үйретудің жолдарына төмендегідей әдіс-тәсілдер жүйесін, мұғалім мен оқушылар арасындағы жұмысты ұсынуға болады:

1) мұғалім материалды қысқаша түсіндіріп, шығарманың бас жағын сыныпта оқытуы; 2) сұраққа жауап аларлықтай маңызы бар эпизодтарға көңіл бөліп, оларға ат қою; 3) көркем туынды кейіпкерлерін топтау; 4) шығарманың негізгі бөліміне не сюжеттік желісіне баса назар аударып, мәтіннен үзінді ұсынып, ой-пікір жинақтау; 5) болашақ шығармаға керекті шешендік сөздерді, мақал-мәтелдерді жаттату; 6) сурет арқылы қиялда ой туғызу.

Бүгінгі таңда шығарма жазу әдістемесін жүзеге асыруда шәкірттердің жоғары деңгейдегі білім-білік дағдыларын қалыптастыру, ойлау жүйесінің дамуына жағымды ықпал жасап, шығарма жазудың тиімді әдістерін меңгеру, идеясын анықтау үшін шығарманы талдау керек. Оқушылар шығарманы негізгі идея бойынша ғана жазып үйренуі қажет. Ал, шығарма тақырыбын талдауда маңызды мәселелерге, яғни, дәлелдеудің сенімді шығуы, талау бөліктерінің бір-бірімен тығыз байланысты болуы, қорытындының нақты жасалуын қамтамасыз ету керек.



Пайдаланылган әдебиеттер:

1. Алтынсарин. «Өнер-білім бар жұрттар». – Алматы: «Мектеп», 1975. – 176 б.
2. Ақшолақов Т. Шығарманың көркем айшықтарын таныту. – Алматы: «Рауан», 1994. – 150 б.
3. Бітібаев Қ. Әдебиетті оқыту әдістемесі. – Алматы: «Рауан», 1997. – 288 б.
4. Дуйсабаева Д. Formation of Linguo-Culturological Competence of Future Native Language Specialists. <https://ijssrr.com/journal/issue/view/21>.
5. Лук А. Н. Память и кибернетика. – Москва: Наука, 1966. – 249 б.
6. Майман Р. Р. Практикум по методике преподавания литературы. – Москва: «Просвещение», 1995. – 313 б.
7. Nurjan B. Abduvalitov, Ergash B. Abduvalitov, Baurjan N. Sayfullaev. "Methods of comparative analysis in the study of samples of uzbek and world literature" <https://spast.org/techrep/article/view/4576>
8. Орлов Б. А. Как написать сочинение по литературе. Пособие для учащихся 8 кл. средней школы. – Москва: «Просвещение», 1977. – 257 с.
9. Sayfulayev B. Structural Features of Uzbek-Kazakh Dialectal Phrasemas. <https://cajssh.centralasianstudies.org/index.php/CAJSSH/article/view/311>
10. Sayfulayev B. Some Problems of Phraseology of Turkic Languages (On the... of Phraseosomatizm). <http://dx.doi.org/10.47814/ijssrr.v5i4.263>
11. Yusupov B. B. Motherland and Patriotism in the Lyrics of Tulegen Aibergenov. <https://ijssrr.com/journal/issue/view/28>
12. Қалдыбаев Т. Әдебиет сабақтарында тіл ұстарту. – Т.: «Ўзбекистон», 1999. – 278 б.



TADQIQ, TAHLIL VA TAVSIYA

KAM KOMPLEKTLI SINFLARDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI



Saodat Yuldosheva

*O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti
dotsenti*

e-manzil: saodat.yuldosheva@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada kam komplektli umumta’lim muassasalarida komplekt sinflarni tashkil etilishining omillari, ta’lim jarayonining afzalliklari va muammolari, samarali ta’limni tashkil etishda mustaqil ishlar, individual topshiriq va tarqatmalardan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kam komplektli umumta’lim muassasalari, sinflarni komplektlash, o‘quv jarayonini tashkil etish, mustaqil ish, individual topshiriq va tarqatmalar.

Respublikamizda an’anaviy umumiy o‘rta ta’lim maktablari bilan bir qatorda chekka tumanlarda joylashgan kam komplektli maktablar ham faoliyat yuritib kelmoqda. Ma’lumki, avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-sonli Qarorida, keyin 2020-yil 20-iyundagi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Moliya vazirligi hamda Sog‘liqni saqlash vazirligining “Umumta’lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro‘yxatlarini



shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 8-mh, 28, 124/1-sonli Qaroriga muvofiq o‘quvchilar soni yetarli bo‘lmagan umumta‘lim muassasalarida, olis (tog‘li, cho‘lli) hududlarda joylashgan umumta‘lim muassasalarida hududiy xalq ta‘limi bo‘linmalari va hududiy moliya organlari bilan kelishilgan holda komplekt sinflarni tashkil etish belgilangan. Jumladan, kam komplektli umumta‘lim muassasalarida (filiallarda) boshlang‘ich sinf o‘quvchilari quyidagi hollarda bitta sinfga birlashtirilishi mumkinligi qayd etilgan:

o‘quvchilar soni 8 nafargacha bo‘lgan I – IV sinflar;

o‘quvchilar soni 12 nafargacha bo‘lgan uchta boshlang‘ich sinf;

o‘quvchilar soni 24 nafargacha bo‘lgan ikkita boshlang‘ich sinf (I va III, II va IV sinflar) [4].

Respublikamizda qishloq joylarda kichik va aholi kam yashaydigan olis hududlar (tog‘li, cho‘lli) mavjud bo‘lib, bu joylarga bir sinfga belgilangan me‘yordan anchagina kam bo‘lgan 7 yoshli bolalar bo‘lganda kam komplektli sinflar ochiladi. Bu shunday komplekt sinfki, unda bir o‘qituvchi bir vaqtda bir necha sinfda ishlaydi. Bu sinflarda soni 3 tadan 24 tagacha o‘quvchi bo‘lishi mumkin. Ya‘ni, boshlang‘ich sinflar komplekt (*1-sinf + 3-sinf; 2-sinf + 4-sinf; 1+2+3+4-sinflar*) tarzda birlashtirilib, o‘quvchilarga ta‘lim beriladi.

Kam komplektli umumta‘lim muassasalaridagi ta‘lim an‘anaviyga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Bunda o‘qituvchi har bir o‘quvchi bilan individual yondashib ishlashi, ta‘lim-tarbiyani samarali tashkil etish kabi imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Har bir bolaning individual xususiyatlari va yashash sharoitlarini yaxshi o‘rganadi, sinfi boshqa-boshqa bo‘lgan o‘quvchilarning hamkorlik faoliyatini tashkil eta oladi. O‘qituvchi har bir o‘quvchidan tez-tez so‘rab turish, ularning bilimidagi kamchiliklarni aniqlash va tuzatish, o‘z vaqtida daftar tekshirishi mumkin bo‘ladi. Bunday ta‘limning tarbiyaviy ahamiyati ham bor: o‘quvchining irodasi mustahkamlanadi, katta sinf o‘quvchilarining kichik sinf o‘quvchilariga yordam berishlari orqali sinfda

uyushqoqlik, ishchanlik, qiyinchiliklarni mustaqil va hamkorlikda bartaraf qilish, o'z-o'zini tekshirish malakasi tarbiyalanadi.

Bunday maktablarda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar komplekt sinflarda ishlash tajriba va malakasiga ega bo'lishlari lozim. Bunday sinflarda o'quvchilarni o'qitishda o'qituvchilardan darslarga jiddiy tayyorgarlik ko'rish va salohiyat talab etiladi. O'qituvchi 45 daqiqalik darsni kompleks tarzda loyihalashtirib, ikkala sinf o'quvchilari bilan vaqtni to'g'ri taqsimlab ishlash jarayonini tashkil etishi kerak bo'ladi. Kundalik hayotda komplekt sinflarda ta'lim berayotgan o'qituvchilar ayrim qiyinchiliklarga ham duch keiadi. Jumladan, Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanidan o'qituvchi quyidagilarni bayon etadi: *“Bir soatda ikki sinfga, ikki mavzuda dars o'tish, o'quvchilardan mavzuni so'rash mushkul. Bunday vaziyatda o'qiyotgan o'quvchida ham zamonaviy ta'lim olish imkoniyati yo'q. O'quvchilarda darsga qiziqish sust. Chekka hududlardagi bunday maktablarda tahsil olayotgan o'quvchilarning shart-sharoiti bilan shahar maktablaridagi sharoitni solishtirib bo'lmaydi. 1–4-sinflarda haftasiga 16 soat dars o'tiladi. Dars ikki sinfga bir vaqtda o'tilsa-da, alohida dars ishlanma, konspekt yozib, ikki mavzuga tayyorgarlik ko'riladi. Ikki o'quv reja, ikki xil darslik bo'yicha ishlanadi”* [7].

Darhaqiqat, bunday sinflarda dars berish uchun o'qituvchi:

1. Har kuni darsga tayyorlanishi va turli fanlardan eng kamida 8 soat dars o'tishi kerak. Bunday sinf uchun darsni loyihalashtirish oddiy maktabdagi bir sinf bilan ishlashga qaraganda ko'p vaqt talab qiladi va ishlash darajasi qiyin. Nafaqat darsni loyihalashtirish, balki ikki xil sinfdagi ikki xil o'quv fani va mavzu (*ba'zida uch yoki to'rt xil sinfdagi uch yoki to'rt xil o'quv fani va mavzu*)ni 45 daqiqaga muvofiqlashtirish anchagina vaqt talab qilishi bilan birga ular optimal pedagogik samara beradigan darajada faoliyatni yo'lga qo'yishi ham lozim. Bu bor tajribasi va mahoratini ishga solgan oliy toifali o'qituvchi uchun ham qiyin jarayon. Ya'ni, o'qituvchidan tegishli bilimlarni bilishdan tashqari maksimal darajada kuch,

sabot, uyushqoqlik, matonat, mahorat va qat’iyatlilikni talab qilinadi.

2. O’qituvchi bir sinf bilan darsning yarmi yoki 1/3 qismi davomida shug’ullansa (*o’tilgan mavzuni so’rash, yangi mavzu bayoni va mustahkamlash*), darsning qolgan vaqtida o’quvchilar mustaqil ishlashiga to’g’ri keladi. O’quvchilar mustaqil ish bajarayotgan vaqtda o’qituvchi boshqa sinf bilan band bo’ladi.

3. Komplekt sinfda ikki xil sinf o’quvchilarining diqqat-e’tibori bir-biriga chalg’ishi kuzatiladi. Ya’ni, bir sinf o’quvchilari, ayni vaqtda o’qituvchi rahbarligida ishlayotgan boshqa sinf o’quvchilarining xalaqit berishiga qaramay, mustaqil ishlashlari kerak bo’ladi. O’quvchilarda ham bunday muhitda ta’lim olish ko’nikmasini shakllantirish taqozo etiladi.

Bunday yondashuvda o’qituvchi ko’proq mustaqil ish shakllaridan, didaktik tarqatmalardan unumli foydalanib, o’quvchilarni band qilishi mumkin bo’ladi. Bir vaqtning o’zida ikki sinf o’quvchilariga ikki xil mavzuni o’rgatish, mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlovchi mashq va topshiriqlarni bajartirish va o’zlashtirish darajasini nazorat qilish kabi vazifalarni amalga oshirish kerak bo’ladi. Komplekt sinflarda faoliyat asosan doimiy mustaqil ishlarni amalga oshirish bilan olib boriladi. Mustaqil ishlar darsning 50% dan ortig’ini tashkil etadi. Ikki sinf o’quvchilarning bir qismi bevosita o’qituvchi rahbarligida ishlasa, ikkinchi qismi o’qituvchi bergan topshiriqni mustaqil bajarish bilan shug’ullanadi. Bu jarayon muntazam almashinib turadi. Mustaqil ishning bajarilish hajmi va vaqti o’qituvchining boshqa sinf bilan olib boradigan ishning hajmi va vaqti bilan bog’liq bo’ladi.

Ona tili va o’qish savodxonligi o’quv fanini ikki xil sinfda kompleks tarzda o’qitishda ham mustaqil ishlar amalga oshiriladi. Mustaqil ishlash jarayonida o’quvchilarda quyidagi bilim, ko’nikma va malakalar rivojlanadi:

1. *o’qib tushunish hamda mustaqil o’qib, bilim orttirish;*
2. *tinglab tushuntirish;*
3. *nutq so’zlash;*
4. *yozish, grammatik savodxonlikni shakllantirish;*

5. *o'z ishini mustaqil ravishda tashkillashtira olish, rejalashtirish;*
6. *mayda muammolarni hal qila olish va o'z faoliyatida qo'llay olish;*
7. *o'zgalar nuqtayi nazarini tushuna olish va shaxsiy fikrga ega bo'lish;*
8. *qiyinchiliklar oldida chekinmaslik;*
9. *xatti-harakatlar, ish natijalari uchun mas'ullik kabilar.*

Ona tili va o'qish savodxonligi o'quv fanini puxta o'zlashtirgan o'quvchi kundalik hayotda duch keladigan turli vaziyatlarda o'zini tanishtira olishi, suhbatdoshining fikrini tushunishi va unga mantiqli javob bera olishi, berilgan manbadan mavzuga oid materiallarni izlab topishi va o'rganishi, shaxsiy fikrini aytishi, bahs-munozarada erkin ishtirok etishi kerak bo'ladi. Buning uchun o'qituvchi:

1. o'quvchining fikrlash salohiyatini, aqliy rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o'stirishi;
2. o'quvchilarni o'z-o'zini, moddiy borliqni tilning ifoda vositalari yordamida ifodalashga hamda o'z fikri va his-tuyg'ularini ona tilining keng imkoniyatlari doirasida bayon eta olishga o'rgatishi lozim.

O'qish savodxonligini oshirishda asosiy e'tibor sog'lom e'tiqodli, o'zga insonning tuyg'ularini anglaydigan, nozik hissiyotli, yuksak didli, axloqan barkamol, aqlan yetuk, o'z xatti-harakatlariga mas'ul bo'la oladigan komil shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishishi talab etiladi. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun kam komplektli sinflarga mo'ljallangan o'quv-didaktik tarqatma materiallarni takomillashtirish hamda innovatsion usullarga asoslangan mustaqil ish shakllaridan foydalanish talabi ortib bormoqda. Ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan o'quv-didaktik tarqatmalarning o'rinli va unumli qo'llanilishi o'quv sifati va samaradorligining oshishiga, o'quvchilarda mazkur fanlarga nisbatan mehr-muhabbat hissining kamol topishiga zamin hozirlaydi.

Barchaga ma'lumki, bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun nashrdan chiqarilayotgan tayyor to'plam shaklidagi (jadvallar, sxemalar, asarlarga ishlangan suratlar, adiblar suratlari va hk.) hamda o'qituvchi tomonidan o'quv dasturidagi mavzular yuzasidan tayyorlangan tarqatma materiallar amalda qo'llanilmoqda. Ba'zida sinf o'quvchilari tomonidan mustaqil ish tarzida tayyorlangan sifatli, talabga javob beradigan ishlar ham tarqatma material sifatida ishlatilmoqda. Biroq bularning barchasi sinf bilan frontal ishlashda, butun sinfga yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, takrorlash jarayonlarida qo'llaniladi. O'quvchilarning yakka tartibda ishlashiga mo'ljallangan topshiriqli tarqatma materiallar esa sinf o'zlashtirish salohiyatiga qarab ijodiy yondashilib o'qituvchi tomonidan yaratiladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, tarqatma didaktik materiallar o'quvchi dunyoqarashini, didini tarbiyalaydi. Tayyorlanadigan tarqatmalar sifatli, chiroyli dizayn va shaklda, ishlatishga qulay bo'lishi lozim. Estetik jihatidan o'ziga xos tarzda nafosat va did bilan yaratilgan har qanday tarqatma material o'quvchilarda ruhan baland kayfiyat uyg'otadi va ishchanlik holatini oshiradi. Shu bilan birgalikda yaxshi, sifatli tayyorlangan tarqatma material sinf o'quvchilarida ijobiy taassurot uyg'otadi, ularning diqqatini o'qituvchi va darsga jalb etadi, o'quvchilarning ustozga nisbatan hurmat hissini orttiradi. Didaktik tarqatma materiallar o'quv jarayonida trenajyor vazifasini o'taydi va o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malakalarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Tarqatma materiallarni qo'llash vazifasiga ko'ra ikki toifaga bo'lish mumkin:

- mavzuni takrorlashda qo'llaniluvchi tarqatmalar (yoritilgan mavzuning ayrim punktlarini takrorlash maqsadini o'z ichiga oladi: reja, qoida-ta'rif, namunaviy misollar, jadvallar, ko'rgazma suratlar namunalari, bibliografik ma'lumotlar va hk.);

- yangi mavzuni o'zlashtirishda faollikka undovchi tarqatmalar (amaliy mashg'ulotlarda yangi mavzuni tushuntirishda yordamchi vosita sifatida taqdim etiladi. Bularga: nazorat savollari, muammoli



vaziyatlar, “sabab va oqibatlar” daraxti, darajali topshiriqlar, sxemalar, jadvallar va hk.).

Tarqatma materiallarni yaratishda mavzu maqsadiga mos keladigan turini tanlash kerak. Tarqatma materiallarni darsning boshlang‘ich qismida tarqatilishi maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv, avvalo, o‘quvchilarning diqqatini jamlashga xizmat qilsa, ikkinchidan, mavzu yuzasidan ularning ma‘lum bir tasavvurga ega bo‘lishlariga yordam beradi. Shu bilan birga ularni yangi mavzu asosida yaratiladigan muammolar va g‘oyalar haqida oldinroq o‘ylashga majbur etadi. Ikkinchi toifadagi yangi mavzuni o‘zlashtirishda faollikka undovchi tarqatmalarni yaratishda sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish darajasiga qarab tabaqalashgan (darajaviy) topshiriqlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Ya‘ni, o‘zlashtirishning I darajasida o‘quvchilar avval o‘rgangan materialni bilishi tekshiriladi; o‘zlashtirishning II darajasida tashqi yordamsiz esda qolganlari bo‘yicha o‘zlashtirilgan ma‘lumotlarni qayta aytib berish va shular asosida namunaviy topshiriqlar yechish ko‘nikmalari tekshiriladi; o‘zlashtirishning III darajasida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash ko‘nikmalari tekshiriladi. Quyida “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligidan mustaqil faoliyatni tashkil etishda qo‘llash mumkin bo‘lgan ayrim individual topshiriqlar namunalaridan keltirib o‘tamiz:


1-tarqatma. *o‘, i, e* unlilari bilan boshlanuvchi so‘zlarni yozing.
Namuma:

<i>o‘</i>	<i>i</i>	<i>e</i>
O‘yin	ish	Elak
O‘jar	ishtaha	Etak
O‘rdak	itoat	ertak
...	...	...

2-tarqatma. Juftlikda yoki yakka tartibda ishlash uchun mo‘ljallangan. Berilgan “*O*” , “*I*” , “*U*” unli harflariga “Idrok xaritasi”ni tuzish. *Namuna:*



IDROK XARITASI



Bu kabi tarqatma materiallar o`quvchilarda mavzu bo'yicha o'z bilimlarini mustahkamlashga, mustaqil va ijodiy fikrlashga, lingvistik tushunchalarini boyitishga, nutqiy ko'nikma va malakalarining rivojlantirilishiga xizmat qiladi. Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mazkur didaktik tarqatmalar o'qituvchiga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

1. darsni frontal tushuntirishdan oldin ijobiy muhit yaratiladi;

2. sinf o'quvchilarining diqqat-e'tiborini tortganligiga ishonch hosil qilinadi;

3. o'quvchi ishonchini ta'minlaydi;

4. dars jarayoni samarali tashkil etiladi;

5. bahs, muzokara vaziyati uchun ijobiy muhit yaratiladi;

6. o'quvchilarning vizual qabul qilish ehtiyojlarini ta'minlaydi;

7. murakkab o'zlashtiriladigan mavzularni soddalashtirib, qulay yo'l bilan tushunishga yordam beradi va darsning sifatini kafolatlaydi;

8. mavzu haqidagi axborot to'ldiriladi, kengaytiriladi.

Didaktik tarqatma materiallar o'quvchiga o'quv fanini oson va qulay o'zlashtirishda xizmat qilishi lozim. Shu bilan birgalikda tarqatmalar o'quvchilarni:

9. tezroq anglashga;

10. esda saqlashga;

11. hech qanday qaydlarsiz butun e'tiborni noverbal axborotdagi asosiy g'oyalarga qaratishga;

12. o'z taklif va mulohazalarini berishga;

13. g'oyalar ustida amaliy mashg'ulot o'tkazishga, tahlil qilishga;

14. olgan ma'lumotlarni amaliyotga, muammoli vaziyatlarga tatbiq eta olishga;

15. kerakli daqiqalarda axborot to'plashga yo'naltiradi.

Xulosa qilib aytganda, tarqatma materiallar kam komplektli sinflar o'quvchilarining mustaqil faoliyatini tashkil etishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ular darsning ajralmas qismi sifatida oldindan tayyorlanishi kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. –T.: O'zbekiston, 2020.
2. Mirziyoev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-sonli Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining, 2020-yil 20-iyundagi “Umumta'lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro'yxatlarini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 8-mh, 28, 124/1-sonli Qarori.
5. Azimova I., Mavlonova K. “Ona tili va o'qish savodxonligi” metodik qo'llanma. RTM, 2021-yil.
6. Davletshin M. G. va boshqalar. «Yosh davrlar va pedagogik psixologiya». — T.: TDPU. 2009.
7. Kam komplektli sinflarda ta'lim muhiti qanday? Umumiy o'rta ta'lim 12 / 04 / 2019 <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/2735.htm>
8. Karimova V. M., Sunnatova R. I., Tojibayeva R. N. Mustaqil fikrlash. –T.: Sharq. 2000.
9. Xidirov S. J. Umumta'lim muassasalarida sinflarni komplektlashning asosiy jihatlari. International scientific journal of biruni. Vol. 2, Issue 2. May. (2023) P: 123-128. ISSN (E) 2181-2993 www.birunijournal.uz

NOTIQLIK SAN’ATI VA NUTQ MADANIYATI FANINI O’QITISHNING DOLZARB MASALALARI



Ravshanbek Mahmudov

*Guliston Davlat universiteti
professori, Falsafa fanlari nomzodi,*

manzil: ravshanbek.jalilovich@mail.ru.

Annotatsiya. *Maqolada o’qituvchi nutqining ta’lim-tarbiyadagi roli, uning turlari, shakllari, ko’rinishlari borasida so’z yuritiladi. San’at va madaniyat turlari, notiqlik san’atining o’quvchilar dunyoqarashini o’stirishdagi ahamiyati to’g’risida ma’lumot beriladi.*

Kalit so’zlar: *nutq apparati, notiqlik, san’at, san’at turlari, madaniyat, til, o’qituvchi fazilatlari, urg’u, ohang, gap, so’z, talaffuz, dunyoqarash, savodxonlik, barkamollik.*

Yangi O’zbekiston fuqarolarini shakllantirishda, ularda eng yaxshi insoniy his-tuyg’ular va yuksak fazilatlarni kamol toptirishda keng xalq ommasi o’rtasida, mahallalar, umumiy o’rta, o’rta maxsus va kasb-hunar ta’limi hamda oliy maktab singari o’quv yurtlari yoshlari o’rtasida o’qiladigan ma’ruzalar, o’tiladigan darslar hamda o’tkaziladigan suhbatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Inson dunyoqarashining o’zgarishida ma’ruza va suhbatlarning sermazmun bo’lishi bilan birga, ularning tinglovchilarga tushunarli bo’lishi va ta’siri ham muhim ahamiyat kasb etadi. Notiq nutqining jozibaliligi va ta’sirchanligi tinglovchilar e’tiborini o’ziga tortadi.

Ma'lumki, komilliyak sari yuz burgan insonda hamma narsa – kiyimi ham, qalbi ham, fikri ham, so'zi ham go'zal bo'lmog'i lozim. Shu ma'noda elning oldida nutq so'zlaydigan notiq, avvalo, kiyinish madaniyatiga o'zi to'liq amal qilgan bo'lishi zarur. Ma'ruzachi-notiq ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, estetik, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy kabi muhim masalalarni tushuntirishga juda katta e'tibor qaratuvchi shaxsdir. Uning bilimi, fikr, so'z va so'zlashdagi go'zalligi bu sohada muvaffaqiyat garovidir.

“Notiqlik san'ati” tushunchasi notiq va san'at so'zlarining birikuvidan hosil bo'lgan. Notiq – arabcha so'z bo'lib, u nutq so'zlovchi, gapga chechan, gapga usta, so'zamol ma'nolarini bildiradi [3, 512-b.] San'at ham arabchada badiiy ijodiyot va uning barcha sohalarini ifodalaydi. San'at – ko'chma ma'noda yuksak mahorat, ustalik ma'nolarida ham keladi [4, 20-b.]. Demak, “notiqlik san'ati” so'z birikmasi yuksak bilim va tajribaga ega bo'lgan holda ustalik bilan chiroyli, ma'noli, sodda, hamma tushunadigan tilda so'zlay bilish hamda jamoaning diqqatini o'ziga qarata olish mahoratiga egalikni anglatadi.

Notiqlik til bilan uzviy bog'liq. Tilni yaxshi bilgan, so'zlarni o'z o'rnida qo'llay olgan inson nutqini hamma eshitadi, tushunadi. Notiq bo'lish uchun, avvalo, so'z boyligi ko'p bo'lishi zarur, ikkinchidan, notiq qaysi so'zni qachon, qayerda, qanday qo'llay olishni bilishi shart. Nutqida «ammo», «demak», «chunki», «va», «jumladan», «misol uchun» kabi so'z, ibora va bog'lovchilarning ortiqcha qo'llarnilishi yoki takrorlanishi notiqning kamchiligi hisoblanadi. Uchinchidan, notiqdan o'zbek tili grammatikasining qonun-qoidalarini puxta bilish, bu qoidalarga amal qilish talab etiladi. To'rtinchidan, notiq fonetikani puxta o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Unli, undosh tovushlarni qanday talaffuz qilishni, so'zga urg'uni to'g'ri qo'yishni bilishi zarur. Notiq o'zbek tilining sintaksisi, stilistikasini puxta o'rgangan bo'lib, so'zni o'z o'rnida qo'llay olishi taqozo etiladi. O'zbek tilida gapira olish degani – o'zbek tilini bilish degani emas. Har qanday so'zamol inson notiq bo'la olmaydi. Notiqlik – bu san'at. San'at esa insonlarni hayratlantiradi, lol qoldiradi, kuldiradi, yig'lata oladi. Notiqdan so'z

qo'llashni, sinonim, antonim, omonim, paronimlar va metaforani yaxshi o'zlashtirish hamda ulardan o'rni bilan foydalanishni bilish ham talab etiladi.

Nutq nima? Nutq arabcha so'z bo'lib, so'zlash, gapirish qobiliyati ma'nolarini bildiradi. Ya'ni nutq inson tomonidan aql-idrok ko'magida o'zlashtirilgan voqea-hodisalarni avlodlarga so'z bilan yetkazib berilishi jarayonidir. Nutqdan tevarak-atrofdagi yangiliklar, xabarlar, ma'lumotlar va yangi bilimlarni kishilarga yetkazib berishda foydalaniladi. Yaxshi nutq madaniyatlikning, zamonaviylikning, kompetentlikning belgisidir (3, 12-b.).

Madaniyat – nima? Madaniyat ham arabcha so'z bo'lib, jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmuyini anglatadi. Madaniyatlik – o'qimishlik, ta'lim-tarbiya ko'rganliklik, ziyolilik, ma'rifatlik. Bir so'z bilan aytganda ichki komillikka erishgan shaxs.

Har qanday inson jamiyatda yashaydi. Uning tevarak-atrofini turli-xil tilda gapiruvchi insonlar o'rab olgan. Demak, inson ular bilan muloqot qilishga majbur. Muloqot – arabcha so'zdan olingan bo'lib, uchrashuv, so'zlashuv-aloqa ma'nolarini bildiradi. Muloqotning manbayi esa so'z. Inson so'z yordamida muloqotga kirishadi. Demak, notiq muloqot madaniyatini ham yaxshi egallagan bo'lishi joiz.

Oliy maktabda o'qitiladigan notqlik san'ati va nutq madaniyati fani bo'lajak o'qituvchilarning nutqini takomillashtirish, shaxslararo hamda jamoa bilan bo'ladigan muloqotlarda o'z fikrini erkin, ravon bayon eta olish ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Buning uchun notiq ma'lum me'yordagi so'z boyligiga ega bo'lishi, har bir so'zning mazmun-ma'nosini to'liq bilishi, so'zning ko'chma ma'nosini tushunishi, uning ko'chma ma'nolarga ega ekanligini, yashirin ma'nosi ham mavjudligini nazardan qochirmasligi zarur. Notiq har bir so'zni to'g'ri talaffuz qilishdan tashqari, uning mazmunidan kelib chiqqan holda tushunib, ohang bilan aytishi, ishlatishi kerak bo'ladi. Aytilayotgan so'z tinglovchiga ta'sir etishi kerak. Buning uchun so'z yoqimli

ovozda, chiroyli, to‘g‘ri, ma‘nosi o‘zida yashiringan holda aytilishi lozim. Notiqlik san‘atiga – nutq madaniyatiga ega bo‘lgan inson, avvalo, tilni, tilshunoslikni mukammal bilishi shart.

Insoniyatning tilini o‘rganadigan fan lingvistika yoki tilshunoslik deyiladi. Tilshunoslik – tilning xususiyatlarini, mohiyatini, funksiyalari, tilni tadqiq qilish usullarini o‘rganuvchi fan. Notiq til yordamida gapiradi, fikr bayon qiladi. Nutq tovushlarining xususiyatlari, ohang, ton, tembr, ritm kabilar fikrni ta‘sirli bayon qilishda yordam beradigan xususiyatlardir.

Notiqlikning san‘at sifatidagi mohiyati shundan iboratki, notiqning mahorati so‘zdan o‘z o‘rnida, zargarona, ehtiyotlab, ma‘nosiga, mantig‘iga, xususiyatiga qarab foydalanishdir.

So‘z bila kufr ahli musulmon bo‘lib,

So‘z bila hayvon degan inson bo‘lib,

– deganida hazrat Alisher Navoiy naqadar haq edi. Yunon mutafakkiri Demokrit: “So‘z – ishning soyasi”, deb baho bergan. “Nutq – g‘oyat kuchli vosita, lekin undan foydalanish uchun kuchli aql zarur”, – degan edi nemis faylasufi Gegel. “So‘z qancha sodda bo‘lsa, u shuncha ta‘sirchan bo‘ladi” (Bismark). “Til – so‘zlovchi istagini eshituvchiga yetkazadigan tarjimondir” (Abu Rayhon Beruniy) va hk. Ulug‘larning so‘z haqidagi hikmatlaridan ko‘rinadiki, so‘z nafaqat notiq, balki oddiy inson uchun ham ahamiyatli bo‘lib, odam umri davomida u bilan ishlaydi, undan foydalanish uchun o‘z so‘z zaxirasini vujudga keltiradi.

Notiqlik san‘ati va nutq madaniyati fani, avvalo, tilshunoslik fani bilan uzviy bog‘liq. Tilshunoslik fani notiqlikning asosiy xususiyatlarini, funksiyalarini ko‘rsatib beradi. Mazkur fan ham doimo o‘lishda, o‘rganishda takomillashib boradi. Ayni zamonda, ijtimoiy-siyosiy fan sifatida tilshunoslikdan tashqari psixologiya, adabiyot, fizika, matematika, tarix, pedagogika, xullas, barcha fanlar bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanadi.

Notiqlik san‘ati va nutq madaniyati fani metodologiyasini falsafa fani belgilab beradi. Falsafa jamiyat va tabiatdagi barcha voqea-hodisalar rivojlanishda – dialektik o‘zgarishda, deb o‘rgatadi. Shu ma‘noda notiq ham o‘z-o‘zidan so‘zamol, gapga

chechan bo‘lib qolmaydi, balki u badiiy kitoblarni ko‘p o‘qishi, tevarak-atrofidagi kishilar bilan muomala qilishi natijasida so‘z boyligi ortib, so‘zni o‘z o‘rnida, oqilona qo‘llaydigan bo‘lib boradi.

Notiqlik san‘ati va nutq madaniyati fani tarix fani bilan ham uzviy bog‘liq. Chunki tarix fani o‘tmishni, tarixni, ajdodlarning suxandonlikka qo‘shgan ulkan hissalarini bugungi avlodga yetkazib beradi.

Notiqlik san‘ati va nutq madaniyati fanining psixologiya bilan bog‘liqlik jihati shundaki, psixologiya – inson ruhiyatini o‘rganadi. Notiq so‘zga chiqqanda tinglovchilarning yosh xususiyatlari, bilimlilik darajasi va jinsini ham hisobga olib gapirishi taqozo etiladi. Agar notiq, qayerda bo‘lishidan qat’i nazar, bilganini gapiraversa, u istalgan natijaga erisholmaydi. Uning fikrini tinglovchilar tushunishlari, qabul qilishlari kerak. Tinglovchilarning munosabati, ularning yosh xususiyatlari va vaqt ham inobatga olinishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyot – odob-axloqni yoddan bilish, unga amal qilish degani. Insonning barcha jihatdan tarbiyalanishida, his-tuyg‘usining o‘rishida, so‘zning qadrini his qilishida adabiyotning ahamiyati beqiyos. Notiqlik san‘ati va nutq madaniyati fani adabiyot bilan ham chambarchas aloqada rivojlanib beradi. Bu fan matematika, fizika, jismoniy madaniyat, kimyo kabi fanlar bilan ham bog‘liqlikda faoliyat olib boradi. Chunki bu fanlar insonni mustaqil fikrlashga, faraz qilishga, keng mushohada yuritishga yo‘naltiradi. Tinglovchilarning jismoniy imkoniyatlari ham hisoblashishni taqozo etadigan hodisadir.

Bizga ma‘lumki, inson hayotida til muhim ahamiyatga ega. Insonning butun hayoti til bilan bog‘liq. Inson til yordamida fikr almashadi. Shuning uchun notiq tilni o‘ta hurmat qilishi, e‘zozlashi uning qoidalarini, fonetikasini, grammatikasini to‘liq o‘zlashtirgan bo‘lishi shart.

Notiq o‘z fikr-mulohazalarini, qarashlarini, bayon qilmoqchi bo‘lgan mavzusini chiroyli, shirali, jarangdor, yoqimli ovozda, tushunarli, sodda, aniq tarzda hamma sohadagi kishilarga birday

ta'sirli yetkazuvchidir. Notiqlik san'ati kishidan bilim, malaka, tajriba talab qiladi. Shuning uchun hamma ma'lumotli, ko'p narsa biluvchi kishi ham notiqlik san'atiga ega bo'la olmaydilar. Jamiyatning barcha jabhalarida notiqlik san'ati kerak bo'ladi. Chunki inson jamiyatda yashaydi, tevarak-atrofidagi insonlar bilan xohlaydimi-yo'qmi, aloqa qiladi. Bu aloqa til yordamida, nutq ishtirokida notiqlik san'ati orqali amalga oshadi. Har bir inson tevarak-atrofidagi odamlar bilan aloqa qilmasligi, salomlashmasligi, fikr almashmasligi, biror narsa so'ramasligi yoki ish buyurmasligi, topshiriq olmasligi, agar o'qituvchi bo'lsa, talabalarga ma'ruza o'qimasligi, savol-javob qilmasligi mumkin emas.

Nutq odobi – nutqning adabiy til me'yor-mezonlariga asoslangan, mantiq ilmi talablariga bo'ysungan holda namoyon bo'ladi. Har bir inson so'zlash, tevarak-atrofidagi insonlar bilan muomala qilishida fikrini ilmiy, sermazmun, aniq-ravshan, ravon, to'g'ri, ta'sirli, badiiy, mantiqiy, jarangdor, jozibali bayon etishi lozim. Nutq madaniyatiga ega bo'lish har bir aqli raso inson uchun zarurdir.

Nutq madaniyati, ayniqsa, o'quv yurti o'qituvchilari, targ'ibot-tashviqotchilar, suxandonlar, tashkilot rahbarlari, davlat va jamoat arboblari, deputatlar, senatorlar, yozuvchi, shoirlar nutqida ko'proq namoyon bo'ladi. Nutq madaniyatida faqat ravon, chiroyli gapirishning o'zi kamlik qiladi. Nutq madaniyatiga qisqa, lo'nda, sodda, tushunarli aniq, ayniqsa, to'g'ri gapirish ham kiradi. Afsuski, keyingi paytda “Axborot”, “Yangi davr”, “Diyor yangiliklari”da berilayotgan ko'rsatuvlarda, muxbir intervyu olganida 5–7 daqiqagacha gapirtirishi yoki shevada so'zlashiga e'tiborsizlik ko'rsatishi kabi holatlar kuzatilyapti. Bu tinglovchilarni bezdiradigan, g'ashini keltiradigan hodisa. Nutq madaniyatining o'sishi va rivojlanishida ommaviy axborot vositalari – radio, televideniye, adabiyot va san'atning muhim roli bor.

Notiqlik san'ati va nutq madaniyati fanining bir maqsadi, bo'lajak tarix, milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi,

ijtimoiy ish yo‘nalishi mutaxassislari nutqini to‘g‘ri shakllantirishga hissa qo‘shishdir.

Insoniyat paydo bo‘lgandan buyon notqlik u yoki bu darajada mavjud bo‘lgan va qo‘llanib kelingan, rivojlanib borgan. Yunon faylasufi Mark Tulliy Siseron “Notqlik san’ati” kitobida: “Har qanday ruhiy harakat tabiatan o‘zining shaxsiy qiyofasi, ovozi va qaddi-qomatiga ega. Insonning butun jismi hamda uning ruxsori, ovozi xuddi tanbur torlariga o‘xshab, ularga tekkandagi ruhiy harakatga monand ohang beradi, jaranglaydi”, degan edi.

Notqlik san’ati taraqqiyotiga Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Oybek, Maqsud Shayxzoda, Erkin Vohidov va boshqa ko‘plab ijodkorlar o‘z hissalarini qo‘shganlar [4: 65–123-b.]. Notqlik manbalarda ma’viza, va’zxonlik, suxandonlik, so‘zga chechanlik deb ham atalgan.

Notqlikning uchta manbayi mavjud:

1. Tabiiy iqtidor.
2. Nazariy bilim.
3. Amaliy mashg‘ulot, taqlid.

Bir qator adabiyotlarda notqlik mahoratining o‘ziga xos maqsadi quyidagicha ta’kidlab ko‘rsatilgan:

1. Ma’lumot berish.
2. Ishontirish.
3. Huzur baxsh etish.
4. Hayajonlantirish.
5. Ruhlantirish.

Notqlik san’ati va nutq madaniyati fanining vazifalari notiqda quyidagi sifatlarni shakllantirishdan iborat etib belgilangan:

1. axloqiy va ma’naviy qonunlarga to‘la rioya qilish;
2. Suqrotning “o‘zingni bil” aqidasi mohiyatan o‘zlashtirish;
3. Konfutsiyning “o‘zingga lozim topmaganlaringni boshqalarga ravo ko‘rma” tarzidagi hikmatini anglatish;
4. bilimli, keng dunyoqarashga ega bo‘lish;

5. O‘zbekiston va dunyo tarixini, jahon mutafakkirlari hayoti va ijodini mukammal o‘rganish;
6. eng kamida yuzta g‘azal, yuzta she‘rni yoddan bilish;
7. notiq islom dini ahkomlarini mukammal o‘rgangan bo‘lishini talab qilish;
8. notiq o‘zbek tili qonun-qoidalarini, eski o‘zbek tilidagi so‘zlar ma’nolarini puxta o‘zlashtirgan bo‘lishini ta‘minlash;
9. hozirjavoblik, askiya qila olish, chiroyli javob topa olish qobiliyatiga ega bo‘lish;
10. notiq yuz ifodalarini o‘qish san‘atini (fizionomiyani) puxta o‘zlashtirgan bo‘lishi;
11. bolalar, o‘quvchilar, talabalar, keksalar, ayollar, kampirlar “tili”ni, xususiyatlarini, “fazilatlarini”, psixologiyasini, xarakterini to‘liq o‘rgangan bo‘lish;
12. notiq badiiy adabiyotdagi poetik san‘atlarni o‘zlashtirgan bo‘lishi va nutqida ulardan o‘rinli foydalanishni bilishi;
13. notiq tinglovchilarga xayrxohlik ruhida gapira olishi;
14. notiq so‘zlarni o‘z joyida, tinglovchilar qalbiga yetib boradigan, hamdardlik, yaqinlik ruhida, ohangida so‘zlay olishi;
15. notiq aktyor bo‘lishi, kerak bo‘lsa, yig‘lashi, kulishi, rol ijro eta olishi;
16. notiq faqat so‘zi bilan emas, balki yuz ifodasi, qoshi, labi, og‘zi, tanasi, qo‘l-oyoqlari harakatlaridan ham unumli foydalanishi;
17. notiq tinglovchilar bilan muloqotga kirisha olish iste’dodiga ega bo‘lishi, kirishimli bo‘lishi va hk.

Xullas, har jihatdan mukammal, keng bilimli, hamma bilan kelishib keta oladigan, kamtar, samimiy, kichik fe‘l, mehnatsevar, o‘z ustida ishlab charchamaydigan, o‘zidan hech qachon qoniqmaydigan, hamisha izlanuvchan kishigina notiq bo‘lishi mumkin.

Notiqlik san‘ati va nutq madaniyati namunali nutq tuzish san‘atini ham o‘rganuvchi fandir. Yoshlarda madaniy nutq malakasini shakllantirish, rivojlantirish o‘zbek adabiy tili me‘yorlariga javob bera oladigan darajada, nutq tuzish malakasini o‘stirishdan iboratdir. Nutqning turli shakllari – poetik nutq,

gazeta nutqi, minbar nutqini hosil qilish, targʻib qilish ham bu fanning vazifalariga kiradi. Nutq – adabiy til bilan uzviy bogʻliq. Namunali nutqning barcha xususiyatlari: toʻgʻrilik, aniqlik, mantiqiylik, soflik, tushunarlik, soʻz boyligining koʻpligi, taʼsirchanlik, joʻyalilik kabi fazilatlarini oʻzida mujassam etishga erishish juda muhimdir.

Notiq nutqida begona, tushunarsiz, oʻzlashmagan soʻzlar boʻlmasa, bunday nutq oʻrnak boʻlarlidir – sof nutqdir. Shu jihatdan olganda, nutq: a) sof nutq; b) boy nutq; d) aniq nutq; e) mantiqli nutq; f) ifodali nutq; g) obrazli nutq; h) taʼsirli nutq; i) joʻyali nutq kabi sifatlarga ajratiladi. Bularning har biriga har kim turlicha taʼrif berishi mumkin. Asosiy gap, nutq tuzish sanʼatining qanday oʻrgatilishida.

Yangi Oʻzbekiston talabiga javob beradigan yetuk mutaxassislar madaniyatligi, nutq madaniyatini qanchalik mukammal oʻrganganliklari bilan ham belgilanadi. Notqlik sanʼati va nutq madaniyati insonning soʻzga qanchalik boy boʻlishi va adabiy talaffuz meʼyorlariga toʻgʻri rioya qilishlarini hisobga oladi. Notqlik sanʼati va nutq madaniyati muloqot obyektlari – radio, televideniye, turli xil uchrashuvlar, yigʻilishlarda ravon, chiroyli, mazmunli, sanʼatkorona nutq soʻzlashi orqali namoyon boʻladi. Bunday notiqlarni turli davralarga, turli tashkilotlarga maʼruza oʻqishga, intervyu olishga taklif qiladilar

Xulosa qilib aytganda, notqlik sanʼati va nutq madaniyati fani chiroyli, mazmunli, ifodali gapirishni, fikrini aniq, ravshan bayon eta olishni boʻlajak pedagoglarga, soha mutaxassislariga, voizlarga, teleboshlovchilarga, diktorga, boʻlajak rahbarlarga oʻrgatish yoʻlida faoliyat olib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: Oʻzbekiston, 2023.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. – T.: Oʻzbekiston, 2021.
3. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. I jild, T., 1981. 512-bet)
4. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. I jild, T., 1981. 512-bet)

MILLIY-MUMTOZ MUSIQA SAN’ATI NAMUNALARINI IDROK ETTIRISH USULLARI



Abdurahim Sultonov

Guliston Davlat universiteti dotsenti

e-manzil:

sultonovabduraxim48@gmail.com

Annotatsiya. Maqolda bolalikdan musiqa, qo’shiq aytishga qiziqqan o’quvchida musiqiy dunyoqarash va musiqiy didning shakllanishi, musiqani tinglab, esda saqlab qolish, hamda o’sha musiqa yoki qo’shiq ritmi(usul)ni his etish qobiliyati yuqori darajada bo’lgan bolalar qo’shiqning ijro etilishi, musiqiy asar, ya’ni qo’shiq tempi va xarakterini ham yaxshi bilishi lozimligi haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: milliy va mumtoz musiqa, maqom ashulalari, san’at, qobiliyat, musiqiy zehn, idrok.

O’zbekiston mustaqilikka erishganidan keyin musiqa san’atiga, mumtoz qo’shiqlar, maqomlarga alohida e’tibor qaratila boshlandi. Milliy va mumtoz musiqa san’ati namunalarini bolalikdan, doimiy ravishda, televideniye, radioda va konsert dasturlarida tinglab borgan bolalar o’sha yoqimli va xush navolarni o’zlariga, ya’ni xotiralariga xuddi magnit tasmasiga yozganday “yozib oladi”lar. Ularning yuragi musiqa ohanglari bilan zavqlanadi, qo’shiqning so’zlarini tinglab, yoki o’zlari aytib maza qiladilar va qo’shiq ritmini dildan his qiladilar. Agar shunday qobiliyatli bolalar musiqa maktablariga borib, u yerdagi mutaxassis-ustozlardan to’g’ri saboq olishni boshlashsa, ular musiqaning ifoda vositalarini ham bilishib, to’g’ri yo’nalishdan borgan bo’lishadi. Bunday bolalarning sehrli musiqa olamiga kirishi va ularda musiqiy dunyoqarash shakllanishi

oson kechadi.

O'ta qobiliyatli va musiqiy zehni o'tkir, “quyma quloq” bolalar milliy va mumtoz ashulalarni, maqomlarni tinglab ijro qilish bilan birga bu ashulalar haqida, uning ijro etilishi haqida fikr-mulohaza yuritadigan hamda uni idrok eta oladigan bo'lishadi. Mumtoz ashulalarning usulini ham his etib kuylash mahoratini egallaydilar. Ma'lumki, milliy va mumtoz ashulalar, xususan maqom ashulalari qat'iy usulga tayanadi. Bu ashulalarni ijro etish davomida xonanda ashulaning ritmini doimiy his qilib borishi shart. Bu ashulalarni ijro etish sozandalar: tanbur, dutor va yana doira jo'rligida bo'ladi. Sozandalar bilan bir asarni birga ijro qilish uchun ijrochida jo'rnavozlarni ham tinglab, ular bilan bir xil usulni his eta bilish kerak.

Bunday milliy va mumtoz ohanglarni birgalikda ijro qilish faoliyatida bolalarda deyarli barcha musiqiy psixologik xususiyatlar shakllanadi. Chunki bu faoliyatda ular o'zlari bevosita musiqiy asarni ijro etadilar va sozandalarga jo'r bo'ladilar. Avval ular milliy ohangdagi ashulani, musiqiy asarni tinglab ko'radilar (musiqiy idrok). Bu esa musiqaning ritmik ko'rinishini eslab qolishni (musiqiy xotira), qaysi cholg'u sozida jo'r bo'lsa yaxshiroq jaranglashini (musiqiy did) tanlashni taqozo etadi. Bolalar bu faoliyatda mustaqil fikrlaydi (musiqiy tafakkur), natijada ularning musiqiy dunyoqarashi shakllanib boradi. Milliy va mumtoz, maqom musiqalarini, ashulalarini tinglash faoliyatlari jarayonida bolalar ruhan birlashadilar hamda jamoaviy birga kuylash davomida tarbiyalanadilar.

Buyuk mutafakkir Abu Ali Ibn Sino musiqa ovozlarning kishi ruhiga ta'siri haqida ham o'z fikrlarini bayon etgan [1]. Bu borada buyuk alloma mashhur «Qonun-fit-tib»(Tib qonunlari) asarida quyidagilarni ta'kidlaydi: «Tanani chiniqtirishda chaqaloqlar uchun juda foydali vositalar qatoriga, birinchidan yengil tebratish, ikkinchidan, odatda uxlatish uchun aytiladigan qo'shiqlar, allalar kiradi. Bolaning ushbu ikki narsani idrok etish darajasiga muvofiq uning jismoniy mashqlarga va musiqaga moyilligini aniqlaydilar.

Ularning birinchisi tanaga, ikkinchisi esa ruhiyatga tegishlidir» [1, 57-b.]. Musiqa – eshitish organi orqali idrok etilsa-da, u kishi organizmining umumiy ahvoliga – qon aylanish tizimi, nafas olishga va boshqa jihatlariga ta’sir qiladi.

Abu Ali Ibn Sino ma’naviy tarbiya bolaning chaqaloq yoshidan belanchagini tebratish davomida (jismoniy tarbiya) alla (qo’shiq) aytish vositalari bilan mushtarak tarzda olib borilishi lozimligini aytib o’tgan [1, 93-b.]. Ibn Sinoning musiqaga oid asarlari u yashagan davr musiqa ilmidan juda muhim ma’lumotlar berishi bilan ham qimmatlidir. Bolalarning milliy va mumtoz musiqani idrok etish malakalarini shakllantirish, uning tilini tushunish, har bir bolaning o’z sevimli musiqiy asarlar doirasini paydo qilish, ularda musiqiy asarlarning mualliflariga, ijrochilariga nisbatan minnatdorlik hissini o’yg’otish, milliy va mumtoz musiqaga nisbatan qiziqish uyg’otish muhim vazifalardandir.

Musiqiy asarlarni tinglash faoliyatida, ayniqsa milliy-mumtoz ashula va kuylarni tinglashda takror va takror tinglash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi [2, 56-b.]. Musiqa tinglashda ham eshitilgan musiqiy asarni qayta-qayta tinglab turish, ushbu asarni yaxshiroq tushunish va o’zlashtirishga imkon yaratadi. Eng asosiy talablardan biri shundaki, o’quvchi tinglangan asar haqida o’z taassurotlarini aytib bera olishi kerak. Har bir bolaning o’z fikr-mulohazalarini bayon qilishi eshitilgan asar haqidagi taassurotlar qo’lamini kengaytiradi. Masalan, musiqa tinglashda: «Siz bu mumtoz ashulani avval ham eshitganmisiz? Birinchi marta qaysi xonanda ijrosida, qayerda eshitgansiz? Ashula sizga yoqdimi? Nimasi bilan yoqdi? Bu ashula so’zlarining ma’nosini tushuntirib bera olasizmi?» kabi savollar orqali bolalarni yanada diqqat bilan tinglashga, ularni o’zlari e’tibor bermagan ayrim jihatlarini idrok etish va anglashga, mustaqil fikr yuritishga odatlantirib boradi.

Musiqiy asarlarni, o’quvchilar uchun qabul qilinishi qiyinroq kechadigan milliy-mumtoz asarlarni, maqom taronalarini idrok qilish uchun o’quvchilar bu asarlarni oldin yaxshilab tanib-farqlab olishi lozim. Odam kimnidir tanimasa uni yaxshi bilmaydi. Yaxshi bilmasa, u haqida ma’lumotga ega bo’lmasa, uni yaxshi ko’rmaydi.

Yaxshi koʻrmasa unga beʼetibor boʻladi, eʼzozlamaydi, qadriga yetmaydi. Shuning uchun oʻquvchilar avvalo bu asarlar bilan “yaxshilab tanishib” olishlari zarur. Bolalarni oilada, maktabda kichik yoshligidan xorijiy, notanish, maʼnisiz musiqalar bilan emas, oʻzimizning ota-bobolardan meros boʻlib kelayotgan milliy-mumtoz musiqa va ustoz-hofizlar ijro etgan ashulalar bilan tanishtirish kerak. Ana oʻshanda oʻquvchi va talabalar tinglagan musiqiy asarlarini tushunib idrok qila oladi.

“Musiqiy idrok – tafakkurning boshlangʻich bosqichi”, – deydi mutaxassis olimlar [2, 78-b.]. Oʻquvchi va talabalarda mumtoz musiqaga, xususan maqom ashulalariga havas oʻygʻotish uchun ular oʻzlari eshitayotgan mumtoz ashula yoki maqom taronalarini sevib, yoqtirib, zavqlanib tinglashi katta ahamiyatga egadir. Bu xislat faqat yuksak badiiy-estetik saviyadagi asar vositasida amalga oshiriladi. Inson yaxshi milliy ohangdagi ashulani mahoratli ijrochidan tinglaganda, unda musiqiy asarga nisbatan taassurot, fikr-mulohazalar uygʻonadi. Tinglovchilarning maqom musiqasi namunalarini yoki mumtoz ashulani tinglab idrok etishlari, undan qanchalik taʼsirlanishlari, musiqiy asarning tinglovchilar hissiyotiga va ongiga taʼsiri musiqaning qanday yangrashi, sozanda yoki xonandaning asarni qay darajada ijro etishiga bogʻliqdir.

Lekin buning oʻzi maqom va mumtoz musiqa sanʼati namunalarini tinglash uchun yetarli emas. Har qanday mumtoz asarni, inson xoh u Yevropa klassik kompozitorlarining simfoniya yoki operalaridan biror qismini tinglayotgan boʻlsin, xoh “Shashmaqom” sarahborlarini tinglayotgan boʻlsin oʻsha tinglovchi huzur qilib tinglayotgan musiqiy asarning ijodkorlari, ijrochilari va mualliflari haqida, tinglanayotgan asarning yaratilgan davri, shakli, oʻlchovi, usuli va boshqalar haqida tushunchaga ega boʻlsa, musiqiy asarni tinglashda asarning mazmun-mohiyatini toʻla-toʻkis tushunadi, shuningdek, asar tinglovchiga ijobiy taʼsir qiladi, ichki hissiyot va kechinmalarni hosil qiladi. Shu oʻrinda barchamiz uchun muammo boʻlib kelayotgan mavzu boʻyicha bir qator savollar tugʻiladi: Yosh avlodni milliy va mumtoz musiqamiz durdonalarini,

maqom taronalarini tinglashga tayyorlash uchun hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablari, ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at maktablari, Litsey va kollejlarda va oliy o'quv dargohlarining musiqiy yo'nalishlarida qanday ishlar olib borilayapti? Umumta'lim maktablari madaniyati fani bo'yicha mutaxassis o'qituvchilar yetarli mi? Bu maktablarda milliy musiqa cholg'u sozlari bilan ta'minlanganlik qay darajada? Musiqa madaniyati darslarini to'laqonli va qiziqarli olib borilishi uchun o'quv dargohida alohida xona ajratilgan mi? Musiqiy qobiliyatga ega bo'lgan o'quvchilar bilan alohida mashg'ulotlar olib borilayapti mi?" va hk.

Odatda musiqa olamiga ilk qadamlarini qo'yayotgan bolalar yoki katta yoshdagilar ham cholg'u sozida musiqa chalishni, biror bir qo'shiq yoki ashulani o'rganishni nota yozuvi orqali amalga oshiradi. Nota yozuvida asarning tonalligi, shakli, ritmi (usuli), tempi, xarakteri va boshqa dinamik belgilari aniq aks etgan bo'ladi. Yevropalik buyuk kompozitorlarning asarlari yoki har qanday kichik mi, kattami nota yozuvida yozilgan musiqiy asar – o'sha nota yozuvi qoidalariga amal qilib chalinadi. Bundan kelib chiqadiki, buyuk nemis kompozitori I. S. Baxning fortepiano uchun yozilgan asari dunyoning hamma joyida bir xil chalinadi va bir xil eshitiladi. Chalingan musiqiy asarning ijro darajasiga beriladigan baho ijrochining mahorati va texnikasiga qarab belgilanadi.

Mumtoz ashulalarimiz, hamda maqomlarimizdagi kuy va ashulalar akademik, musiqashunos olim Yunus Rajabiy rahbarligida nota yozuviga tushurilgan. Bu mumtoz musiqiy asarlarning barchasining nota yozuvi bor. Milliy mumtoz ashula va kuylarning ham ustoz hofiz va sozandalar ijro qilganidek to'g'ri o'rganilishi nota yozuvi orqali aniqlashtiriladi. Lekin milliy va mumtoz kuy va ashulalarni o'rganishda ustozlarning ijrolarini yaxshilab tinglamasdan, avval quloqlariga so'ngra yuraklariga astoydil joylamasdan bu mumtoz navolarni talab darajasida ijro qilib bo'lmaydi. Shuning uchun musiqiy asarlarni tinglash faoliyati milliy va mumtoz ohanglarning o'rganilishida katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda milliy va mumtoz musiqamizni, maqom taronalarini tinglashga tayyorlash uchun maktabgacha ta’lim muassasalarida, umumta’lim maktablarida, ixtisoslashtirilgan musiqa va san’at maktablari, litsey va kollejlarda va oliy o’quv dargohlarida qanday ishlar olib borilayapti?

Bu savolga javob hanuzgacha qoniqarli emas. To’g’ri, Respublika radiosi va televideniya milliy va mumtoz musiqamizni, maqomlarni targ’iboti yo’lga qo’yilgan. Respublika radiosining “Mahalla” kanalida doimiy ravishda o’tgan asrda yashab, ijod qilgan ustoz hofizlar ijrosidagi milliy-mumtoz ashula va qo’shiqlar berib borilayapti. Televideniya ham bu borada sezilarli ishlar amalga oshirilayapti. Lekin faqat bu ishlarning o’zini yetarli, qoniqarli deb bo’lmaydi. Mamlakatimizda milliy musiqamizning mahoratli ijrochilari, maqomlarimiz va mumtoz xonandalarning ashula va qo’shiqlarini aholiga, xususan yosh avlod ongiga singdirishning eng ma’qul yo’li bu – televideniya va radioda muntazam milliy musiqamiz durdonalarini eshittirish va ustoz san’atkorlar bilan shu mavzudagi musiqiy ko’rsatuv va dasturlarni ko’paytirish.

Televideniya va radioning birinchi navbatdagi vazifasi aholining barcha qatlamlari uchun milliy mentalitetimizga munosib bo’lgan tarbiyaviy, milliy, adabiy- musiqiy dasturlarni targ’ib qilish va tushuntirish. Bu borada, ya’ni milliy musiqa san’ati durdonalarini targ’ibot qilishda O’zbekiston teleradio kompaniyasi bir muncha sezilarli ishlarni amalga oshirmoqda. Xususan, televideniya ekrani orqali “Tarannum”, “Javohir”, “Aytishuv”, “Maqom kechasi” va boshqa bir qancha jiddiy musiqiy ko’rsatuvlar, radio to’lqinlarining “Mahalla” kanallarida muntazam ravishda mumtoz-milliy ashula va kuylardan tuzilgan konsert dasturlari tinglovchilar e’tiboriga havola qilinmoqda. Respublika radiosining “Oltin fond”idan joy olgan ustoz-hofiz xonandalarning mumtoz ashulalari bilan birga umidli yosh xonandalarning ham ashula va qo’shiqlarini ham eshitishga musharraf bo’layapmiz.

Biroq bu ko’rsatuv va eshittirishlardan o’n chandon ko’proq

boshqa kanallarda ijro darajasi past saviyadagi xonandalar va mentalitetimizga yot bo'lgan xorijiy estrada ijrochilarning chiqishlari hamon davom etmoqda. Mutasaddilar bu holatga o'z kanallarining “Tijorat kanali” ekanligini ro'kach qilishmoqda. Ko'plab xorijiy davlatlarda, Rossiya, Ozarbayjon, Turkiya, Qozog'iston va Tojikiston telekanallarida iqtidori past darajadagi xonandalar o'zlarining "san'atlari"ni namoyish qilishmaydi. Yuksak ijro mahoratiga, hamda yoqimli ovozga ega bo'lgan xonandalargina televideniye orqali san'atini havola etishadi, sahnaga olib chiqishadi. Bizning telekanallarimizda ko'rinayotgan, xalqimizga tanilib qolgan juda ko'p “zo'raki xonandalar” jonli ijroda mahoratlari yo'q bo'lsa-da, o'zlarining “san'at”larini namoyish qilishda davom etishmoqda. Bu holat saviyasi past “qo'shiq”larni majburan tinglayotgan muxlislarning musiqa tinglash darajasi(saviya)ni ham pasaytirmoqda.

Hammamizga ma'lumki, televideniye orqali har kuni o'zbekistonlik taniqli va tanilmagan rejissyorlar suratga olgan, mashxur aktyorlarimiz ishtirok etgan telenovellalar, video va badiiy filmlar hamda turli ko'rsatuvlar namoyish etiladi. Bu ko'rsatuvlardagi voqealarning aksari o'zbek xonadonlarida bo'lib o'tadi. Ayrim ijodkorlarimiz mumtoz va tarixiy asarlarni ham ekranga olib chiqishgan. Lekin o'sha videofilmlarda va ko'rsatuvlarda milliy musiqamizdan, milliy cholg'u sozlarimizdan ancha yiroq bo'lgan boshqa xalqlarning cholg'u sozlaridan, musiqalaridan foydalaniladi. O'sha video va teleko'rsatuvlarga musiqa bastalagan o'zbek bastakori o'zimizning milliy ohanglarimizdan, milliy cholg'ularimizda ijro etilgan kuylardan foydalanib, yangi musiqa ijod qilganda menimcha o'sha asarning ta'sirchanligi yanada oshgan bo'la edi.

Bunga ham bir tasdiq keltirish mumkin: hind filmlarida xoh u “Retro” bo'lsin, xoh zamonaviy film bo'lsin, albatta hind milliy cholg'u sozi setorning va hind nayining milliy ohangini eshitamiz. Simfonik orkestrning ham chalgan kuylari hind xalq milliy nolalariga boy. Turk seriallarida ham doimiy ravishda soz cholg'usining mahzun navolarini, xatto skripkaning ham turk

xonishlariga vobasta ingrayotganini shohidi bo‘lamiz.

Taniqli kompozitor, o‘zbek simfonik musiqasining zabardast vakillaridan biri Mirsodiq Tojiyev: “bastakor birinchi navbatda milliy kuy va ashulalarni yaxshi bilishi kerak. Ayniqsa maqom taronalarini ijro etishni yaxshi egallagan bo‘lsa, nur ustiga “degan edi. Albatta, ustoz o‘zining ko‘plab asarlarida xalq ohanglaridan unumli foydalangan. O‘tgan asrda yashab, ijod qilgan bir qancha kompozitorlar milliy-mumtoz kuy va ashulalar, xususan maqomlar asosida ko‘plab simfonik asarlar, ariya va romanslar, badiiy filmlarga musiqalar yozishgan. Yunus Rajabiy, To‘xtasin Jalilov, Sulaymon Yudakov, Manas Leviyev, Mutal Burxonov, Ikrom Akbarov, Doni Zokirov, Sayfi Jalilov, Mirsodiq Tojiyevlar ana shunday musiqiy asarlar yozishgan.

Milliy ohanglar asosida yaratilgan har qanday asar, xoh u xor jamoasi uchun yozilgan bo‘lsin, xoh akapella bo‘lsin, xoh mumtoz yoki zamonaviy estrada qo‘shig‘i bo‘lsin, xoh simfonik asar yoki ariya bo‘lsin, xoh bolalar repertuaridagi qo‘shiqlar bo‘lsin – bunday milliylik bilan yo‘g‘rilgan musiqiy asarning umri albatta uzoq bo‘ladi. Bunga yuqorida sanab o‘tgan buyuk o‘zbek kompozitorlarining o‘lmas asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Milliy va mumtoz musiqiy asarlar – bamisoli mumtoz adabiyot namoyandalari Alisher Navoiy, Bobur, Nodirabegim, Uvaysiy, Ogahiy, Muqimiy, Furqat kabi shoirlarning “shoh” asarlari kabi mangulikka dahldor asarlardir.

O‘tgan asrning 60–70-yillarida san‘at ixlosmandlari nafaqat qo‘shiq tinglashga ishqibozlik qilishardi, balki konsertlarda, to‘y-ma‘rakalarda, san‘atkorlar tashrif buyurgan davralarda xonandaning mumtoz ashulasiga shinavandachilik qilib, birga qo‘shilib kuylashardi. Eng “ommabop” bo‘lgan sevimli xonandalarning qo‘shiqlarini hamma yoddan kuylay olardi. Ayniqsa, taniqli san‘atkorlar taklif etilgan davralarda “ashaddiy” shinavandachilik to tonggacha davom etgan holatlar ham ko‘p bo‘lgan. Vodiya Ma‘murjon Uzoqovning “falak” avjli ashulalarini sevib tinglaydigan, birga jo‘rovoz bo‘lib kuylaydigan shinavanda

muxlislar bisyor bo'lgan bo'lsa, Xorazmda Komiljon Otaniyozovning mayin-mayin sho'x sozlariga esh bo'lib xonish qilishda biri-biridan qolishmaydigan “suvora” ijrochilarini har qadamda uchratish mumkin edi.

Shu o'rinda bir muhim jihatni ta'kidlab o'tish lozim. Xorijiy mamlakatlarda, xususan, Arabiston yarim oroli tevaragi mamlakatlarida, Hindistonda, Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya, Malayziya, Indoneziya, Kavkaz xalqlarida va dunyoning ko'plab mamlakatlarida har bir fuqaro “milliy musiqa”ga bo'lgan munosabatlarini birinchi darajali deb bilishadi. Bu mamlakatlarda yosh avlodni milliy musiqa va milliy urf-odatlar ruhida tarbiyalash bilan birga o'zlarining xududlaridagi aholi doimiy ko'p to'planadigan dam olish maskanlari, madaniyat-istirohat bog'lari, ovqatlanish shahobchalari, kutubxona va muzeylarda meros milliy musiqalarini ovoz kuchaytirish uskunalari orqali mayin ohanglarda majburiy eshittiriladi. Mana shu yo'l bilan yoshu qarining qulog'iga milliy ohanglar singdiriladi.

Bizda bo'lsa, hamma joyda buning aksi. Qayerga bormang, eng so'nggi xorijiy estrada musiqalarining “namuna”lari ovoz kuchaytirgich uskunalari orqali baralla eshittirilib, aholining tinchligini buzish bilan bir vaqtda yoshlarni milliy ohanglarni tinglab ulg'ayishlariga to'sqinlik qilmoqda. Milliy musiqalarni bolalar bog'chasidan boshlab eshitirilishi qonunan yo'lga qo'yilmasa ertaga milliy musiqamizdan, milliy urf odatlarimizdan bexabar avlod paydo bo'ladi. Bu holatni hozir, bugungi kunda to'g'ri yo'lga qo'yilmasa keyinroq o'z o'rniga keltirish, tuzatish uchun ancha yillar kerak bo'ladi. Bizning yurtimizda yuqorida qayd etilgan mamlakatlardagi milliylikni amalda joriy qilish zarur deb hisoblayman.

Yosh avlodni milliy va mumtoz musiqamizni, maqom taronalarini tinglashga tayyorlash uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablarida, ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at maktablari, litsey va kollejlarda, oliy o'quv dargohlarida sezilarli darajada ishlar yo'lga qo'yilgan. Bu ishlar o'sha maktablarda faoliyat olib borayotgan ustozlarga katta

mas’uliyat yuklaydi. Ta’lim muassasalarida mumtoz musiqa san’atimiz durdonalaridan yaxshi xabardor bo’lgan mutaxassislar bor bo’lgan musiqa va san’at maktablarida, bolalarga bu borada mumtoz musiqiy asarlar, ularning mualliflari va ilk ijrochilari haqida kerakli ma’lumotlar berilib borilmoqda. Ammo umumta’lim maktablarida bu borada ishlar yaxshi ketyapti, deb bo’lmaydi. Chunki respublikamizdagi 70 foiz umumta’lim maktablarida musiqa madaniyati fanidan malakali musiqa o’qituvchilari yetishmaydi. Bu maktablarda o’quvchilarga musiqa sirlarini o’quv dasturidagidek o’rgatish u yoqda tursin, musiqadan nazariy bilimlar ham umuman berilmaydi. Bolalarga mashg’ulotlarda bajarilishi lozim bo’lgan musiqa tinglash darslari ham musiqa madaniyati fani o’qituvchisining nazaridan chetda qolib ketmoqda.

Mumtoz musiqiy asarlarni eshittirishdan oldin, o’quvchi va talabalar bilan tinglanayotgan asarning yaratilish tarixi va birinchi ijrochilari haqida qisqacha suhbat o’tkaziladi va suhbatda asarning mazmuni va harakteri, asar mualliflari haqida ularga so’zlab beriladi. “Qanday musiqani tinglayapsiz va tinglayotgan musiqangiz haqida nimalarni bilasiz? Mualliflari va ijrochilarini bilasizmi? Bu musiqani tinglab qanaqa zavq va mazmun olayapsiz?” kabi savollar bilan murojaat qilinadi.

Yuqoridagi savollar bilan yoshlarning musiqiy olamini bilib olish mumkin. Chunki, musiqani tushunib, yaxshi ko’rib tinglash bilan ko’r-ko’rona, atrofida gilar nimani tinglasa shuni tinglashning farqi bor. Bunday vaqtlarda ya’ni, qanday musiqani tinglash kerakligi bo’yicha bir qarorga kelishda qiyinchilikka duch kelinsa, yoshi kattalarga murojaat qilish kerak. Yosh o’tgan sayin har qanday odam milliy musiqani tushunib, yoqtirib, maza qilib tinglaydigan bo’lib qoladi. Aslida tinglanayotgan musiqa insonga birinchi navbatda zavq bag’ishlashi kerak. Uning ohanglaridan quloqlarga yoqimli navolar joylashishi, yuraklar orom olishi va tinglovchi o’sha musiqaning olamiga beixtiyor kirib, maza qila olishni bilish kerak.

Inson turli yoshda turli xil yo’nalishdagi musiqalarni tinglashni

xush ko‘radi. Kichik yoshdagi bolalar soddaroq kuy va oddiy so‘zlar bilan ijro qilinadigan kichik hajmdagi qo‘shiqlarni tinglashadi. Maktab yoshidagi o‘quvchilar, talabalar ko‘proq estrada qo‘shiqlarini, o‘zlarining tili bilan aytganda tushunsa tushunmasada, xorijiy estrada qo‘shiqlarini “yaxshi ko‘rib” tinglashadi. Lekin ular tinglaydigan musiqa asarlarining hammasi ham o‘zlarining yoshiga mos emasligi va ular musiqani badiiy-g‘oyaviy jihatdan hamma vaqt ham maqsadga muvofiq idrok eta olmasligini hisobga olish lozim.

Xulosa qilib aytganda, inson kamolotida musiqa, qo‘shiqning, ayniqsa maqom san‘atining roli benihoya kattadir. Davlatimiz rahbarining 2023-yil 22-dekabrda bo‘lib o‘tgan ma‘naviyat va ma‘rifatga bag‘ishlangan video konferensiya yig‘ilishida “maktablarda maqom o‘qitilsin” degan topshiriq berdilar. Demak, mumtoz musiqalar, qo‘shiqlar Uchinchi Renessans bunyodkorlarini tarbiyalashda ahamiyati kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абу Али Ибн Сино. Қонун-фит-тиб. – Т.: “Шарқ” нашриёти, 2020. – 233 б.
2. Каримова Д. Олий таълимда музика таълими фанларини ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 2018 – 129 б.
3. Шавкат Мирзиёев. “Миллий мақом санъатини ривожлантириш ва ёшлар онгига сингдириш” тўғрисидаги 2017 – йил 17 ноябрдаги Қарори.
4. Юнус Ражабий. Ўзбек халқ музыкаси. 1,3, 5,9-жилдлар. – Т.: Фан, 1959.

АКАДЕМИЯЛЫҚ ЛИЦЕЙЛЕРДЕ Т. ҚАЙЫПБЕРГЕНОВ ДӨРЕТИҰШИЛИГИН ОҚЫТЫҰ МЕТОДИКАСЫ



Қонисбай Юсупов
Бердақ атындағы Қарақалпақ
Мәмлекетлик университети,
профессори, Педагогика илимлериниң
докторы

e-manzil:yusupovqonisbay@gmail.com

Аннотация. Ушбу мақолада Т. Қаипбергеновнинг ижодини ўрганишда адабиёт ўқитувчиларидан маъруза машғулотларини тўғри ташкил этиш ҳамда зарур методлардан фойдаланиш борасида талаб этиладиган педагогик маҳорат ҳақида сўз юритилади.

Таянч сўзлар: адабиётшунос, образ, ижоди, стил, метод, жанрлар, тил, таълим, дарс жараёни, ёзувчи, асар, роман.

Педагогика бойынша В. Л. Голиш [1], Н. Ғуломова [2], Г. М. Давлетшин [3], А. З. Зуннунов [4], Ә. Пахратдинов [5], Б. Султонов [6], Ў. Қ. Толипов [7], Б. Тўхлиев [8], Қ. Юсупов [9; 10.] қусаған алымлардың мийнетлеринде оқытыў формалары, лекция, семинар ҳам методлар бойынша ҳәрқыйлы көз қараста методикалық пикирлер билдирилген. Усы көз қарастан қарақалпақ әдебиятын оқытыў методикасында академиялық лицейлерде жазыўшылардың дөретиўшилигин үйрениў бойынша методикалық пикирлер аз айтылған. Сонлықтан Т. Қайыпбергеновтың дөретиўшилигин академиялық лицейлерде оқытыў бойынша базыбир методикалық пикирлерди билдирип өтгенди мақул көрдик. Бағдарламада берилген Т. Қайыпбергеновтың

дөретиўшилигин оқытыў барысында сабақ түрлери, лекция хәм методлардан дурыс пайдаланыўда хәрбир әдебиятшы муғаллимнен үлкен методикалық шеберлик талап етеди.

Т. Қайыпбергеновтың дөретиўшилигин оқытыўда машқалалық лекция, монографиялық лекция, шолыў лекциясы, энергия алмасыў лекцияларын пайдаланыў мақсетке муўапық болады. Усылардың ишинде машқалалық лекцияның қолланыў усылларына тоқтап өтейик. Бул лекция түринен пайдаланыў сабақта өтилежақ материалдың көлемине, сабақтың мақсетине хәм ўазыйпаларына муўапық болады.

Т.Қайыпбергеновтың дөретиўшилигин машқалалық лекция менен оқытыў ушын ең дәслепп машқалалық ситуацияларды жаратыў хәм сабақ барысында жүзеге келтириўде әдебиятшы муғаллимнен теориялық саўатлылық хәм методикалық шеберлик талап етиледі. Муғаллим бул машқалаларды сабақ барысында хәр түрли усыллар менен әмелге асырады. Бириншиден, бағдарламада берилген жазыўшының дөретиўшилигин оқытыўда машқалалық ситуацияны келтирип шығаратуғын мәселелерди ажыратып алады. Буның ушын оқытыўшы жазыўшы прозасының мазмунын, дөретпелериниң жанрлық өзгешеликлерин, оның дөретпелери бойынша изертлеў жумысларын тереңнен билиўи тийис. Буннан соң жазыўшының дөретиўшилиги бойынша қарама-қарсылыққа ийе болған, жасырын машқалалы сораўларды муғаллим излеп, таба билиўи керек. Екиншиден, жазыўшының дөретиўшилигинен машқалалық жағдайды жүзеге келтиретуғын мысалларды билиўи керек. Мәселен, «Маман бий» романындағы Аманлық образын таллаў арқалы бирқанша қарама-қарсылықлы пикирлерди оқыўшылар жүзеге келтириўи мүмкин. Мәселен, оның қарындасына билмей қосылыўы, оннан оқыўшылардың түңилиўи, Маман бийдиң узақтан оларды таныўы, оларға өлим шарасын қолланыўы усаған мәселелер оқыўшыларға терең ой салады. Усы пикирлердиң кайсысы дурыс

екенлигине оқыўшылар өз көз қарасларын билдиреди. Нәтийжеде олар арасында қарама-қарсылықлы пикир пайда болыўы мүмкин.

Xulosa qilib aytganda, autentik materiallarni berish orqali o'quvchiga o'rganilayotgan tilining standartlashtirilgan qoliplaridan boshqa qirralarini o'rganishga, til egalari kabi muloqot qila olishga, til hududining madaniy xususiyatlarini anglashga yordam beradi. O'rganganlari orqali bimalol muloqot qilish, bahsga kirishish, tanqid qilish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin bo'ladi. Berilayotgan materiallar qay turda bo'lishidan qat'i nazar, o'quvchining tilga bo'lgan qiziqishini so'ndirmaydigan, aksincha, qiziqish uyg'otadigan, ehtiyojiga mos keladigan va jonli muloqotga oson kirishishida ko'mak beradigan bo'lishi kerakligini hisobga olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun til o'rgatuvchidan kuch va g'ayrat talab qilinadi. Aslida, bunday materiallarni izlab topish hozirgi axborot almashinuvi davrida

qiyin kechmaydi. Faqatgina ularni saralash jarayoni o‘qituvchidan vaqt talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adams T. (1995). What Makes Materials Authentic? ERIC Document Reproduction Service No. ED 391389, 1995. – 8 p.
2. Alimova S.F. Chet tilini o‘qitishda autentik videomateriallardan foydalanishning nazariy asoslari // Oriental renaissance. – 2022, № 2. – B. 35-40.
3. Asilova G.A. O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda autentik materiallarni tanlash tamoyillari // O‘zbekistonda xorijiy tillar. – 2023, № 6 (53). – B. 172-185.
4. Azimova N. Uzbek: an elementary textbook. – Georgetown University Press, 2010. – 502 p.
5. Doniyorova G. Sh. Oliy ta’lim talabalariga iqtisodiy ingliz tilini o‘qitishni takomillashtirish // Oriental Renaissance. – 2023, № 3. – B. 576-580.
6. Ergasheva G., Mo‘tul jamoasi. O‘zbekona. – T.: Muharrir nashriyoti, 2020. – 96 b.
7. Eltazarov J. Özbekçe öğreniyoruz. – Ankara, 2021. – 254 s.
8. Gebhard J. G. Teaching English as a foreign language: A teacher self-development and methodology. Ann arbor: the University of Michigan Press, 1996. – 284 p.
9. Harmer J. The Practice of english language teaching. – London: Longman, 1994. – 370 p.
10. Казакова М. А., Евтюгина А. А. Аутентичные текстовые материалы в обучении иностранному языку // Образование. Личность. Общество. – 2016. Вып. 4. – С. 50–59.
11. Muhitdinova H. S. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish metodikasi (o‘quv qo‘llanma). – T.: Vneshinvestprom, 2020. – 327 b.
12. Nunan D. Second language teaching and learning. – Boston: Heinle and Heinle Publishers, 1999. – 330 p.
13. Rafiyev A., O‘zturk T., Nuriddinova D. Chet elliklar uchun o‘zbek tili. – Toshkent, 1997. – 176 b.
14. Sirojiddinov Sh., Ermatova D., Najimova D. Xorijliklar uchun o‘zbek tili (A1 daraja). – T., 2022. – 121 b.
15. Temizyürek F., Gülelgül Birinci F. Yabancı Dil Öğretiminde Otantik Materyal Kullanımı. – Bartın, 2016, Sayı: 5. – S. 54-62.
16. How can teachers use authentic materials to enhance language learning? <https://www.linkedin.com/advice/3/how-can-teachers-use-authentic-materials-enhance-language>

**ALISHER NAVOIYNING “HAYRAT UL-ABROR” DOSTONINI
O‘RGANISH BO‘YICHA TAVSIYA**



Rustamova Lobarxon

*Namanagan viloyati To‘raqo‘rg‘on tuman
XTBga qarashli 1-IDUM ona tili va
adabiyot fani o‘qituvchisi. NamDUNing
mustaqil tadqiqotchisi.*

emanzil:lobarrustamova1311@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” asarini qanday oson usullarda o‘qitish yaxshi natija berishi haqida so‘z boradi. Barcha umumta’lim maktablarida quyida keltirilgan usullardan samarali foydalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar: *“Xamsa”, durroj, saxiylik, kreativ fikr, Hirotnoma, xasis, “Hayrat ul-abror”.*

Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarda namoyon bo‘ladi. Tarixiy merosni asrab-avaylash va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustivor yo‘nalishlaridan biridir [1, 12-b.].

Uyg‘onish davri-uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan bugungi kunda Alisher Navoiyning bezavol adabiy merosi misolida o‘zbek adabiyoti va madaniyatini chuqur o‘rganish va ommalashtirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda [2]. Ulug‘ o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning o‘lmas asarlari mana, bir necha asrlardan buyon xalqimizning

ma'naviy ehtiyojini qondirib kelmoqda. Zotan, shoir asarlariga bo'lgan talab va ehtiyoj biror asrda ham kam bo'lmagan. Turkiy xalqlar adabiyotiga nazar tashlasak, qanchadan -qancha shoirlar kelib ketmadi, deysiz. Lekin hech biri Navoiydek “xo'b” va “ko'p” ijod etmagan. Tom ma'noda Navoiy turkiy xalqlar adabiyoti osmonining qo'l yetmas quyoshi, dunyo adabiyoti daho shoirlaridan biri [3, 6–9-b].

Darhaqiqat, Navoiy ulkan san'atkor, aytgan so'ziga o'zi amal qilgan pokiza qalb e'tiqodli, valiy bir insondir. Har bir davrning qaysi sohasi va mavzusi bo'lmasin, astoydil istalsa, Navoiy asarlaridan javob topiladi.

E'tibor berilsa, hazrat Navoiy “Xamsa” sining tarkibidagi har bir asarni Allohga hamdu sano va munojot bilan boshlab, keyingi ikki-uchta bobni Rasullloh sallolohu alayhi vassallamning na'tu tavsiflariga, mo'jizalarining bayoniga bag'ishlangan. “Hayrat ul-abror”ning birinchi bobini “Basmala”ga bag'ishlab, unda ushbu muborak iboraning fazilatlari va mazmun-mohiyatini ajoyib bir shoirona uslubda bayon qiladi. Hatto “Saddi Iskandariy”da hamdu sano, munojot va na'tlardan keyingi beshinchi bobning sarlavhasida ushbu besh dostonni besh mahal nomozga o'xshatadi va ularning har birini oyatlar bilan izohlaydi.

Alisher Navoiyning “Xamsa” asariga kirgan birinchi doston “Hayrat ul-abror”, ya'ni “Yaxshi kishilarning hayratlanishi” deb nomlanadi. Mazkur doston 63 bob, 20 ta maqolatdan tashkil topgan. Har bir maqolat bir mavzuga bag'ishlangan bo'lib, shoir, avvalo, o'quvchini bir mavzu bilan tanishtiradi. So'ngra o'sha mavzuga munosabat bildirib, uni har jihatdan tasvirlaydi. O'quvchining tasavvurlari aniq bo'lishi uchun juda ko'p qiyoslar keltiradi va eng so'ngida mavzuga mutanosib ibratli hikoyatni bayon qiladi.

“Sher bilan durroj” hikoyati o'rin olgan o'ninchi maqolatning “Rost so'z ta'rifida” qismi ham xuddi shunday qurilishga ega.

Dostonning bir qismi rostlik, to‘g‘rilik tushunchalariga bag‘ishlangan.

5-sinfda Alisher Navoiy hayoti va ijodi hamda “Hayrat ul-abror” dostonini o‘rganish uchun o‘quv dasturda 3 soat vaqt berilgan. 1-soatda shoir hayoti va ijodiga oid ma’lumotlar berilsa, 2–3-soatlarda “Hayrat ul-abror” dostoni bo‘yicha mashg‘ulot olib boriladi.

O‘quvchilarning yoshini hisobga olgan holda mutafakkir hayoti va qoldirgan ma’naviy merosiga bag‘ishlangan 1-soatni “Tafakkur”, “Kim ziyrak?”, “Aqliy hujum” usullari orqali, 2–3-soatlarda “Loyiha”, “Impuls-plakat”, “Musobaqa” usuli orqali tushuntirish mumkin.

O‘quvchilar 4 guruhga ajratiladi, nomlanadi. (“Adabiyotchilar”, “Tarixchilar”, “Geograflar”, “Biologlar”). O‘quvchilar guruh nomlarini o‘zlari tanlashlari mumkin. Guruhlarning javoblarini baholab boradigan turli fan o‘qituvchilaridan iborat hay’at a’zolari tayinlab olinadi.

Darsning avvalida Alisher Navoiyning hayoti va ijodiga oid ma’lumotlar “Klaster” usuli orqali so‘raladi. Bunda o‘quvchilar shoir hayot yo‘li va ijodiga doir bilgan ma’lumotlarini keltiradilar. Shundan so‘ng “Kim ziyrak?” usuli orqali tezkor savol-javob orqali o‘quvchilar bilimi sinaladi. Ixtiyoriy 2 nafar o‘quvchiga qiyidagi savollar beriladi:

1. Navoiy qayerda tug‘ilgan? (Hirotda)
2. Uning to‘liq ismi nima? (Nizomiddin Mir Alisher)
3. Navoiyning ustozlari kimlar? (Abdurahmon Jomiy, Lutfiy)
4. “Xamsa” necha dostonidan iborat? (5 dostonidan)

Savollarning barchasiga to‘liq javob bergan o‘quvchiga shoirning hikmatli so‘zi yozilgan rag‘bat taqrqatmasi beriladi.

Dars jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar o‘quvchi yoshiga, qabul qilish xususiyatiga mos bo‘lgan holda bo‘lishi lozim. Texnologiyalar soddadan murakkabga qarab qo‘llanilishi kerak. O‘quvchilar quyi sinflarda ham Alisher Navoiy haqida ma’lumot olishgan. Bugungi kun talabiga muvofiq har bir

o'quvchi kreativ fikrlashga ega bo'lishi zarur. Shu o'rinda “Tafakkur” metodini qo'llaymiz.

O'quvchilar Alisher Navoiy qachon, qayerda tug'ilganligi, hikmatli so'zlari, shoir haqidagi rivoyatlarni yozadilar.

“Kim ziyrak?” usulida o'quvchilar yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, o'zlarini qiziqtirgan savollarni yozadilar, guruhlar o'z savollarini almashadi. Shunda shoir haqidagi ma'lumotlar mukammal bo'ladi.

Darsning ikkinchi soatlarida Navoiyning “Xamsa” dostoni, unga kiritilgan asarlar haqida, “Hayrat ul-abror” dostonida odob-axloq, kamtarlik, saxiylik, to'g'r iso'zlik kabi ibiratli fazilatlarini, xasislik, yolg'onchilik, odobsizlik kabi salbiy hislatlarni “Loyiha” metodi orqali katta vatman qog'ozda bayon etadilar.

Bobomiz har bir inson o'ziga to'g'rilikni odat qilmog'i haqida so'z yuritar ekan, kimki to'g'rilik yo'lini qanday ekanligini bilmoqchi bo'lsa, bu yo'l ikki xil bo'ladi, deydi. Birinchisi, to'g'riso'z odam. Agar u to'g'ri so'zli bo'lsa, uning ishi, o'zi ham to'g'ri bo'lishi kerak. Ikkinchi toifa kishilar andisha bilan, betgachoparlik qila olmay, “to'g'ri” deguvchidir. Navoiy birinchi toifani to'liq ma'qullagan holda, ikkinchisi ham “yomon emas” deya inkor qilmaydi. Albatta, iloji boricha yolg'onni gapirmagan ma'qul.

Shu o'rinda shoir zamonasidan biroz noliydi. Odamlar rostgo'ylikdan chekinayotgani, yolg'on-yashiq kuchayib ketayotganidan xavfsiraydi. Shundanmi, shoir o'z atrofini qamragan odamlardan to'g'ri, rost gapirgani qashshoqlik, yetishmovchilikdan boshqa narsa bilmaydi, deydi. Zero, egrilikning ham, to'g'rilikning ham o'z ta'rifi bor. Egrilik yolg'ondan paydo bo'ladi, to'g'rilik haqiqatdan. Demak, muallif, yolg'on so'zlash, yolg'on harakat qilish egrilikka olib keladi, deb hisoblaydi.

Darsning 3-soatida o'quvchilardan bugungi kunda atrofimizdagi odamlar yolg'onchilik va rostgo'ylikka qanday munosabatda bo'layotganliklari so'raladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun o'quvchilarga “Aqliy hujum” orqali quyidagi savollar beriladi:

1. Siz rost gapirasizmi?
2. Yolg'onchilik shunchaki odatmi yoki nuqson?
3. Qanday insoniy fazilat va illatlarni bilasiz?
4. Haqiqatni gapirishdan cho'chimaysizmi?
5. Asar sizda qanday taassurot qoldirdi?
6. Asarni o'qigach, siz o'zingizni qanday inson deb hisoblayapsiz?
7. Yolg'onning zararini tavsiflab bera olasizmi?
8. Qanday illatlar durrojni fojiaga olib keldi?
9. “Sher va durroj” hikoyatiga o'xshash qanday hikoyatlarni bilasiz?
10. Ota-onangiz bilan rostgo'ylik va yolg'onchilik haqida so'z yuritganmisiz?

Savollarga javob bergan o'quvchilar shoirning hikmatlari yozilgan rag'batlarga ega bo'ladilar, eng ko'p rag'bat olgan guruh g'olib hisoblanadi.

Yuqoridagi savollar o'quvchilarni rostgo'y va haqiqatgo'y bo'lishga undaydi.

Adabiyot, tarix, geografiya va biologiya fani materiallari asosidagi savol-javoblar musobaqasi o'tkaziladi. Musobaqani o'tkazish uchun yuqorida nomlari sanalgan fan o'qituvchilari birgalikda ish olib boradilar va uni boshqaradilar. Musobaqadan bir hafta avval o'quvchilarning qiziqishlariga qarab ularni turli guruhlarga bo'linadi (Yuqorida guruhlarning nomlari keltirildi). Musobaqa shartlari tushuntiriladi.

O'qituvchilar tomonidan tuzilgan savollar guruhlarga beriladi. Quyida savollardan namunalar:

- “Xamsa” va “Boburnoma” haqida qisqacha ma'lumot bering (“Adabiyotchilar” guruhi uchun).
- Asarlardagi ijtimoiy hayot haqida, o'sha davrning ko'zga ko'ringan tarixiy shaxslari haqida gapiring (“Tarixchilar” guruhi uchun).
- Alishe Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur bo'lgan joy nomlarini sanang (“Geografiya”).

○ XIV–XVI asrlardagi ijtimoiy hayot haqida, shuningdek, o’sha davrning ko’zga ko’ringan tarixiy shaxslari haqida gapiring (“Tarixchilar” guruhi uchun).

○ Ikki buyuk shoirning tabiatga munosabatini ifoda etuvchi asarlari, ularning ahamiyati haqida so’zlang (“Biologlar” guruhi uchun).

Musobaqada hay’at a’zolari o’quvchilarning javoblarini baholab beradilar. Eng ko’p ball to’plagan guruh a’zolari g’olib bo’ladi va hay’at a’zolari tomonidan Alisher Navoiy asarlaridan iborat kitoblar jamlanmasi bilan taqdirlanadilar.

“Noma” (maktub) usuli orqali “Hayrat ul-abror” dostonidan olingan matnlar uch bo’lakka bo’linadi, o’quvchilar matnni o’qiydilar va uning mazmuni bilan tanishadilar, bir-birlariga yetkazadilar. Sinfdagi barcha o’quvchilar maktubni o’qib bo’lgach, matnning mazmuniga qarab doskada qismlarga ajratilgan bo’laklarni yopishtirib chiqadilar. Bu usul orqali jamoaviy bo’lib matn ustida ishlash, o’qish savodxonligi, topqirlik, ziyraklik va bilimlilik darajasi oshib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Ajdodlar faxrimiz. Yoshlarga donolar o’giti. – T.: G’afur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 127 b.
2. Rafiddinov S. Mumtoz adabiyot durdonalari: Navoiydan chu topqaylar navoye. – T.: “Hilol-nashr”, 2014. – 221 b.
3. Abdullayev K. “Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatish jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanish”. – T.: “Nodirabegim” nashriyoti, 2021. – 90 b.
4. Ahmedov S., Qosimov B., Qochqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot darsligi. 5-sinf. 1-qism. – T.: Sharq, 2015. – 217-b.

TA'LIMDA BAHOLASH

ONA TILI TA'LIMIDA O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI BAHOLASH ASOSLARI



Shohruh Abdiraimov

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat
O'zbek tili va adabiyoti universiteti
doktoranti, ped. fan. fals. dok. (PhD)*

e-manzil: shohruh.abdiraimov@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash jarayoni pedagogik, metodik muammo nuqtayi nazaridan o'rganilib, o'quvchilarning ona tilidagi matnlarni o'qib tushunish ko'nikmasini baholashning psixofiziologik, psixolingvistik asoslari va o'qib tushunish ko'nikmasini amaldagi baholash tizimlarida tekshirilish holati tahliliy tadqiq etiladi.*

Kalit so'zlar: *baholash, o'qib tushunish ko'nikmasi, psixolingvistika, psixofiziologiya, matn, o'quvchi, test metodikasi, domen, subdomen, konstrukt, baholash mezon.*

Ma'lumki, jahon pedagogikasida “ta’lim uchburchagi” degan tushuncha mavjud, bu ta’lim jarayonining uchta asosiy komponenti bo’lib bu haqda bir qancha olim o’z fikrini bildirgan. Jumladan, ingliz olimi Jon Orlando [Shihab Jimaa, 2011] “o’quv rejasi (DTS, o’quv dasturi), o’qitish va baholash ta’limning uchta asosiy tarkibiy qismi”, – degan. Boshqa bir ingliz olimi Dylan Viliam [13, 16-b.] esa quyidagicha ta’kidlaydi: “baholash – o’qitish va ta’lim maqsadi o’rtasidagi ko’prik”. Ya’ni baholash o’qitishning ta’lim maqsadiga mosligini o’lchovchi, tekshiruvchi mezon ekanligini uqtiradi.

Darhaqiqat, baholash ta’lim jarayonining muhim komponenti. Odatda, imtihon og’zaki tarzda yoki yozma ish, yoki test topshiriqlari yordamida olinadi. Bu o’tkazilayotgan imtihon maqsadidan kelib chiqib belgilanadi. Shuningdek, baholash jarayonida test topshiriqlaridan foydalanishda savol mazmuniga mos topshiriq metodikasidan foydalanish lozim. Ayniqsa, bu inson psixikasi bilan bog’liq bo’lgan o’qib tushunish malakasini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologiyaga doir manbalarda keltirilishicha, 17–18 yoshda o’quvchilar o’spirinlik davrini boshdan kechirayotgan hisoblanadi. O’spirin yoshidagi o’quvchilarda tafakkur rivojlanishi tezlashadi. Bu davrda o’quvchilarning aqliy qobiliyati quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turishi qayd etiladi: *tafakkur mazmundorligi; tafakkur kengligi; tafakkur mustaqilligi; aqlning tashabbuskorligi; aqlning pishiqligi; tafakkurning tezligi*. Bular baholash mazmunini belgilash uchun muhim hisoblanadi.

Shuningdek, baholash mazmunini belgilashda psixolingvistikadagi matnni tushunish bosqichlarini ham hisobga olish lozim. Matnni tushunish bosqichlari olimlar tomonidan turlicha darajalashtirilgan.

Jahon tilshunosligida T. A. Apollonskaya boshchiligida bir guruh olimlar matnni qabul qilish darajasi bo’yicha tajriba-sinov o’tkazishadi hamda matnni idrok qilishning 3 ta asosiy darajasini belgilashadi: ***verbal-sintagmatik daraja; designativ daraja; dinatativ daraja***. O’zbek tilshunosligida I. Azimova ham bir guruh talabalar ishtirokida eshitilgan matnni tushunish yuzasidan tajriba sinov o’tkazib, matnni qabul qilishining beshta darajasini qayd etadi: ***assotsiativ daraja; leksik-morfologik daraja; kontekstual daraja; struktural daraja; matn darajasi***.

Shuni ta’kidlash kerakki, matnni o’qiganlarning barchasida ham bu bosqichlar amalga oshavermaydi. Shuning uchun ham muayyan matnni bir xil o’qib chiqqan o’quvchilar tushunishining har xil bo’lishini guvohi bo’lamiz. Bu uning fiziologik va psixologik jihatlariga, ya’ni qabul qilish qobiliyati yoki ruhiy-psixik yoinki

jismoniy holatlariga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek, matnni o'qib tushunishga ta'sir etuvchi boshqa omillar ham mavjud. O'qib tushunish malakasini baholashda berilgan matnni tushunishga ta'sir etuvchi omillar PISA xalqaro baholash tizimiga doir tavsiyalardan quyidagicha izohlanadi: *matn bilan bog'liq bo'lgan omillar; o'qib tushunuvchi bilan bog'liq omillar; topshiriq bilan bog'liq omillar*. Demak, o'qib tushunish malakasini baholash mazmunini belgilashda **matn-o'quvchi-topshiriq** uchligini diqqatdan qochirmaslik lozimligini dalillaydi.

Umumiy o'rta ta'limda o'quvchilarning, bitiruvchilarning BKM va kompetensiyalarni baholaydigan, saralash, xulosalash vazifasini bajaruvchi **summativ sinovlarni** tahlil qilamiz. Bizda umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilarining DTSda belgilangan malaka talablarini bajarganlik darajasini tekshiruvchi bir-biridan mazmunan va metodik jihatdan farq qiluvchi ikkita sinov tizimi bor. Ular:

1. Umumiy o'rta ta'limning yakuniy davlat attestatsiyasi imtihonlari.

2. Oliy ta'lim muassasalariga qabul imtihonlari.

Dastlab Yakuniy davlat attestatsiyasiga [<https://lex.uz/docs/-1331874>] to'xtaladigan bo'lsak, bu sinov tizimida bitiruvchilar muayyan mavzuda bayon yoki insho yozishadi. Yozma ishlar mazmunan va savodxonligi nuqtai nazaridan baholanadi. Umumiy o'rta ta'limning yakuniy davlat attestatsiyasida bitiruvchining yozish (insho orqali) yoki eshitib tushunish va yozish (bayon orqali) malakalari baholanmoqda. O'qib tushunish, so'zlash malakalari esa tekshirilmaydi.

Katta motivatsiya kuchi va rag'batga ega bo'lgan, keyingi ta'limga o'tish uchun yo'llanma beradigan Oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonida talabgorlarning ona tili va adabiyot o'quv fanlaridan BKM va kompetensiyalari yopiq turdagi test topshiriqlari yordamida baholanadi. Bu imtihon jarayonini tashkil etish, topshiriqlar mazmuni va metodikasini belgilash bilan Davlat test markazi (DTM) shug'ullanadi.

DTMning rasmiy veb sahifasida e’lon qilingan ona tili va adabiyot o’quv fanlaridan namunaviy test topshiriqlari [https://dtm.uz/upload/file/pdf/nt/Ona_tili.pdf]ni tahlil qiladigan bo’lsak, ularning har birida jami 30 ta topshiriq berilgan, shundan 17 tasi ona tili, 13 tasi adabiyotdan. Ona tilidan tuzilgan topshiriqlar tarkibida fonetika, leksikologiya, morfemika, so’z yasalishi, morfologiya va sintaksis bo’limlari yuzasidan sof nazariy tahlilga yo’naltirilgan topshiriqlar salmoqli o’rinni egallashini, ya’ni 77 foizni tashkil etishining guvohi bo’lamiz. Yozish savodxonligiga xizmat qiladigan imlo, punktuatsiya va uslubiyatga doir topshiriqlarga juda kam o’rinlar ajratilgan – u bor-yo’g’i 23 foiz. DTM oliy ta’lim muassasalariga kirish test sinovlarida bunday topshiriqlardan foydalanishining bir qancha sabab va omillari mavjud. Test topshiriqlari amaldagi DTS, o’quv dasturi va darsliklarga asosan shakllantiriladi. Bundan tashqari, test topshiriqlarini yaratish bilan bog’liq bo’lgan sub’yektiv omillar ham mavjud.

Umuman olganda, o’rta ta’limda ona tilidan asosan ikkilamchi ko’nikma – matnni lingvistik tahlil qila olish ko’nikmasi yoki faqat yozma savodxonlik baholanib kelinmoqda. Baholash turlari va metodikasi farqlanmayapti. Summativ baholash formati o’rniga asosan formativ baholash metodikasidan foydalanilmoqda. Baholash jarayoni loyihalashtirilmayapti. Baholashda foydalaniladigan topshiriqlar formati va spetsifikatsiya taqrizdan o’tkazilmayotgan bo’lishi mumkin. Shu bois ona tili ta’limida o’quvchilarda aynan lingvistik tahlil ko’nikmasini rivojlantirishga e’tibor berilmoqda. Shuning uchun til o’qitishdagi yondashuvni o’zgartirish kerak, DTS va o’quv dasturlarida so’zlash, yozish, tinglab tushunish, o’qib tushunish malakalarini rivojlantirish yuzasidan aniq talablar belgilanishi, ularni baholash mexanizmlari yuzasidan aniq tavsiyalar berilishi maqsadga muvofiqdir.

Ma’lumki, har qanday baholash o’lchovlarini ishlab chiqish muayyan tartibda amalga oshiriladi. Shu bois matnni o’qib

tushunish malakasini baholash mezonlari va metodikasini ishlab chiqishda quyidagilarni amalga oshirish talab etiladi:

1. baholash maqsadini aniqlash;
2. baholashning domen, subdomenlarini va konstrukt (indikator)larini o'quvchining yosh xususiyatlaridan kelib chiqib aniqlashtirib olish;
3. baholash mezonlarining nazariy asoslarini dalillash va baholash tartiblarini ishlab chiqish;
4. test topshiriqlarining formatini yaratish;
5. test topshiriqlarining turlari va metodikasini mazmunga mos tarzda belgilash;
6. test topshiriqlarining qiyinlik darajasini belgilash;
7. baholash uchun topshiriq tuziladigan matnlarni tanlashda ularning xususiyatlariga e'tibor berish;
8. testlarni ekspertizadan o'tkazish;
9. test topshiriqlarini tajriba-sinovdan o'tkazish;
10. testlarning validligini va ishonchliligini baholash.

O'qib tushunish malakasini baholash mazmunini belgilashda psixolingvistik tadqiqotlarda qayd etilgan til o'zlashtirishning modellarini ham alohida hisobga olish kerak, chunki til o'zlashtirishning o'ziga xos tabiati mavjud. Til o'zlashtirish muayyan psixologik qonuniyatlarga asoslanadi. Bizningcha, o'qib tushunish jarayonini to'rt darajaga ajratishimiz mumkin:

So'z darajasidagi ma'lumotni tushunish – grafema va grafik tasvirlarni tanish, chizmalarni, diagrammalarni o'qish, uni mazmunga aylantirish, so'zning o'z va ko'chma ma'nolarini tushunish, grammatik shakllarning vazifasi hamda ma'nosi tushunish.

Jumla darajasidagi ma'lumotni tushunish – gap va jumlalarining matndagi vazifasi hamda mazmunini idrok qilish, ochiq va yashirin ma'lumotlarni fahmlash.

Matn darajasidagi ma'lumotni tushunish – xatboshilar va matnning umumiy mazmunini tushunish, matnning grammatik qurilishini anglash, matndagi ma'lumotlarni integratsiya qilish,

matndagi asosiy va qo‘shimcha ma’lumotlarni idrok qilish, matnni mazmuniy bloklarga ajratish.

Anglash – matnning g‘oyasini idrok qilish, matn muallifining nuqtai nazariga baho berish, matndagi axborotni real hayotiy vaziyatga tatbiq eta olish.

J. Charles Alderson “O‘qib tushunish malakasini baholash” qo‘llanmasida tilni egallaganlik darajasini baholovchi xalqaro tashkilotlarning baholash mezonlarini qiyoslab chiqib, baholovchi konstruktlar ikki guruhga ajratilishini qayd etadi[J. Charles Alderson, 2000.]:

1. Umumiy konstruktlar.
2. Analitik konstruktlar.

O‘zbek tilini o‘qitish metodikasiga doir ilmiy tadqiqotlarda ham o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini baholash mazmuni, usullari va mezonlariga to‘xtalangan. Xususan, pedagogika fanlari doktori, professor R. Safarovaning doktorlik ishida o‘quvchilarning ona tili ta’limida egallangan nutqiy malakalarining darajasi quyidagi uch parametr asosida 100 ballik mezonda baholash samarali ekanligi qayd etiladi [Сафарова Р. 1998.]:

- a) o‘qish texnikasi;
- b) o‘zgalar fikri va matn mazmunini anglash darajasi;
- d) fikrni yozma tarzda ifodalash darajasi.

Mavjud nazariy qarashlarni umumlashtirib, tadqiqotlarga tayanib ona tili ta’limida matnni o‘qib tushunish malakasini baholashda quyidagi indikatorlarga – konstruktarga asoslanish maqsadga muvofiqdir:

1. matnda aniq ifodalangan ma’lumotni topa olish va tushunish;
2. matnda leksik birliklarning ma’nosini tushunish;
3. matndagi grammatik birliklarning mazmun-mohiyatini va matndagi vazifasini tushunish;
4. matnning grammatik qurilishini anglash;
5. matnda ochiq ifodalangan ma’lumotlarni tushunish;

6. matnda yashirin ifodalangan ma'lumotlarni tushunish;
7. matndagi chizma va diagrammalarda berilgan vizual ma'lumotlarni o'qish;
8. matndagi verbal va vizual ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqliklarni tushunish;
9. matndagi mazmuniy bog'lanishlarni anglash;
10. matnning qismlarining umumiy ma'nosini tushunish;
11. matnni mazmuniy bloklarga ajratish;
12. matnda muallif maqsadini aniqlash;
13. matn g'oyasini anglash;
14. matn mazmunini tushunish va talqin qila olish;
15. matndagi fikrlar va muallif nuqtai nazarining aniqligini baholay olish;
16. o'quvchining avvaldan mavjud bilimi hamda matndan olingan ma'lumotning ma'lum darajada integratsiyalash;
17. matndan olingan bilim va tushunchalarni amalda *tatbiq qila olish*.

Mazkur konstruktlar matnni o'qib tushunish metakognitiv jarayon ekanligini dalillaydi va ular baholashga foydalaniladigan matnlarning mavzusi, turlari va uslubiga ko'ra ham alohidalik kasb etadi. Tadqiqot jarayonida shu aniq bo'ldiki, agar konstruktdan chetlashish holati kuzatilmasa, ya'ni mumtoz so'z yoki shevaga xos so'zni tushunish so'ralmaganda, matnni o'qib tushunishda ***so'z darajasidagi ma'lumotlarni tushunishga*** qaratilgan topshiriqlar o'quvchi tomonidan oson, tez hal qilinadi.

Quyida matn darajasidagi axborotni tushunish ko'nikmasini tekshirishga qaratilgan topshiriqlar berilgan.

“Haqqush” hikoyasining bosh g'oyasidan kelib chiqib, asosiy va yordamchi ma'lumotlarni toping hamda moslashtiring.

a) asosiy ma'lumotlar;	1. Tog' tasviri.
	2. Ikki aka-uka voqeasi.
b) yordamchi ma'lumotlar.	3. Daryoning tasviri.
	4. Onaning mehribonligi tasviri.

Javob variantlari:

A) *a-1,4; b-2,3;*

B) *a-2,4; b-1,3;*

D) *a-4; b-1,2,3;*

E) *a-2; b-1,3,4*

Ushbu topshiriq orqali matn qismlarini tushunish, matnni mazmuniy bloklarga ajratish bilan bogʻliq kognitiv jarayonlar tekshiriladi. Oʻquvchi testni bajarish uchun matnni yaxlit tushunishi, matn qismlarini idrok qilishi lozim. Ilk tajribada oʻquvchilarning aksariyat qismi toʻgʻri hal qila olmagan. Bu kabi topshiriqlar yordamida oʻrta kognitiv darajani tekshirishimiz mumkinligini koʻrsatadi.

Oʻqib tushunishning oliy darajasini ***anglash bosqichi*** deb hisobladik. Negaki bu bosqichda inson psixikasidan matnni qabul qilish bilan bogʻliq, qisqa vaqtda bir qancha tabiiy jarayonlar kechadi, shuningdek, oʻquvchining hayotiy tajribasi, yashash muhiti, emosiyalarini boshqara olishi bilan bogʻlik metakognitiv jarayon yuz beradi. Shu bilan birga qoʻllay olish, foydalana olish jarayonlari ham kuzatiladi.

Quyida xuddi shunday topshiriqlardan birini tahlil qilamiz.

1. *Bola dunyoga keldi. Ota-onasi kelishib unga Yusuf deb ism qoʻyishdi. Bu ism unga yoqar edi. U oʻn ikki yoshda edi, ular yashaydigan mahallada Yusuf degan giyohvand, aqli noqis, bezori yigit paydo boʻldi. Shunda ota-ona bolachaning ismini oʻzgartirib kelishdi. Shu toʻgʻrimi?*

A. *Toʻgʻri* B. *Notoʻgʻri*

Ushbu topshiriq bilan matn mazmunini real hayotda qoʻllay ola bilish koʻnikmasi tekshiriladi. Bu topshiriqqa javob berish uchun quyidagi haqiqatni idrok qilish, shunga oʻxshash hayotiy vaziyatda qoʻllay olish lozim boʻladi: *“Oʻn yoshga toʻlgan bolaning ismi yoki familiyasini oʻzgartirishga faqat uning roziligi bilan yoʻl qoʻyiladi”*.

Oʻqib tushunish malakasini tekshirishda foydalaniladigan topshiriqlarga qoʻyiladigan ballar taqsimotini ular tekshirilayotgan

ko'nikmalar, kognitiv jarayonlarni hisobga olib quyidagicha tavsiya etish mumkin:

1. *so'z darajasidagi ma'lumotni tushunishga qaratilgan topshiriqlarni 1 ball;*
2. *jumla va matn darajasidagi ma'lumotni tushunishga qaratilgan topshiriqlarni 2 ball;*
3. *anglash darajasidagi topshiriqlarni 3 ball bilan baholash lozim.*

Mazkur mezonlar test topshiriqlari metodikasiga ko'ra ham bir-biridan farqlanishi mumkin.

O'qib tushunish malakasini baholashda foydalaniladigan test topshiriqlari turli mavzudagi muayyan matn asosida tuziladi. Kontekst asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar o'quvchining berilgan matnni qay darajada tushunganligini aniqlashga xizmat qiladi. O'qib tushunish malakasini baholashda foydalaniladigan topshiriqlar metodikasini quyidagi turlarini tavsiya etamiz:

- binar test topshirig'i;*
- bitta to'g'ri javobga ega muqobil javobli test topshirig'i;*
- bir nechta to'g'ri javobga ega muqobil javobli test topshirig'i;*
- moslashtirishni talab qiladigan test topshirig'i;*
- qisqa javobni talab qiladigan test topshirig'i;*
- ochiq qoldirilgan o'rinlarni to'ldirishni talab etadigan test topshirig'i;*
- kengaytirilgan javobni talab qiladigan test topshirig'i;*
- rasmlı test topshirig'i;*
- chizmalı test topshirig'i;*
- xatoni to'g'rilash testlari.*

1. *Binar test topshiriqlari.* Bu test topshirig'i yopiq test topshiriqlari sirasiga kiradi. Unda ikkita javob varianti orqali o'quvchining bilim va ko'nikmalari tekshiriladi, rivojlantiriladi. Quyida shunday topshiriqlardan namunalarni tahlil qilamiz.

Quyidagi hukmlarni matn mazmunidan kelib chiqib to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

1991-yilda tug'ilish ko'rsatkichi hozirgi ko'rsatkichdan ancha yuqori bo'lgan.

A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri

Mazkur test topshirig‘i yordamida matnda ochiq ifodalangan ma‘lumotlarni tushunish, matndagi chizma va diagrammalarda berilgan vizual ma‘lumotlarni o‘qish, matndagi verbal va vizual ma‘lumotlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni tushunish, matndagi mazmuniy bog‘lanishlarni anglash bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘nikmalar baholanadi. Ilk tajribalarda xuddi shu uslubdagi testlar orqali o‘quvchilarning vizual axborotlarni o‘qiy olishi tekshiriganda, test topshiruvchilar to‘g‘ri javobni topa olmagan edi.

2. *Bitta to‘g‘ri javobga ega muqobil javobli test topshirig‘i.* Bu ham yopiq testlar qatoriga kiradi. Bunda savol va bir nechta (asosan to‘rt yoki beshta) javob varianti beriladi. To‘g‘ri javob bitta bo‘ladi.

Matnda ajratib ko‘rsatilgan “shuningdek” birligi matnda qanday mazmunni ifodalayapti?

A. *Oldingi fikr kyeyingi fikrning xulosasi ekanligini ifodalayapti.*

B. *Keyingi fikr oldingi fikrning dalillayotganligini ifodalayapti.*

D. *Oldingi fikr kyeyingi fikrning tasdig‘i ekanligini ifodalayapti.*

E. *Keyingi fikr oldingi fikrning davomi ekanligini ifodalayapti.*

Topshiriq orqali matn qismlarini bog‘lovchi vositalar ma‘nosi va ularning matndagi vazifasini tushunish, matnning grammatik qurilishini anglash, matndagi mazmuniy bog‘lanishlarni anglash, matn qismlarining umumiy ma‘nosini tushunish, matnni mazmuniy bloklarga ajratish ko‘nikmalari tekshirilmoqda. Mazkur metodikadagi test topshiriqlaridan o‘quvchining matnda ishlatilgan leksik birliklarning ma‘nosini tushunishini tekshirish maqsadida foydalanilganda *shuni hisobga olish kerak*: distraktorlar – muqobil javob variantlar o‘zaro mazmuniy yaqin, hajmiy teng bo‘lishi, shuningdek, ona tilidagi matnni o‘qib tushunish tekshirilganida leksik birliklarning okkazional ma‘nosi so‘ralishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Quyida bitta to‘g‘ri javobli muqobil javobli test topshiriqlarining boshqacha uslubdagi namunasini tahlil qilamiz.

Quyidagi parchada ajratib ko'rsatilgan so'zlardan xato qo'llanganlarini aniqlang. Barchasi to'g'ri qo'llangan bo'lsa, D variantni belgilang.

1.	Xalqimizning eng noyob[A] fazilatlaridan biri uni [B] bir tan, bir jon bo'lib yashashida ko'zga tashlanadi[E].	D) Xatolik mavjud emas.
----	--	-------------------------

Ushbu topshiriq yordamida so'z ma'nolarini tushunish va grammatik shakllarini farqlash, ularni nutqda to'g'ri qo'llay olish ko'nikmalari tekshirilmoqda. Bu kabi topshiriqlardan ona tili ta'limida foydalanish o'quvchilarning so'zdan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini rivojlantiradi.

3. *Bir nechta to'g'ri javobga ega muqobil javobli test topshirig'i.* Bu testlar ham yopiq testlar qatoriga kiradi. Unda savol va bir nechta (besh va undan ko'p) javob varianti beriladi. Hamda ikki yoki undan ko'p to'g'ri javob bo'ladi. Quyida xuddi shunday testlarni o'qib tushunish malakasini baholash jarayonida qaysi konstruktleri tekshirish uchun samarali ekanligini, o'ziga xosligini tahlil qilamiz.

O'zbekiston aholisining o'sishiga ta'sir qilgan omillarni aniqlang.
ESLATMA. Bir nechta to'g'ri javob bo'lishi mumkin.

- A. Xorijdan ko'plab aholining O'zbekistonga ko'chib kelishi.
- B. Turmush darajasining ko'tarilishi.
- D. Umr davomiyligi ko'rsatkichining turg'unlashuvi.
- E. Tibbiyot sohasidagi islohotlar.
- F. Yurtimizga ko'plab inoyestorlarning kirib kelishi.

Ushbu topshiriq yordamida matn qismlarining umumiy ma'nosini tushunish; matndagi mazmuniy bog'lanishlarni anglash; matn mazmunini tushunishi kabi ko'nikmalar tekshirilmoqda. Mazkur testdan tajriba-sinovda ilk foydalanganimizda o'quvchilarning ko'pchiligi bitta javobni belgilagan, garchi topshiriqda "Bir nechta to'g'ri javob bo'lishi mumkin" eslatmasi keltirilgan bo'lsa ham. Bu esa ta'lim kontekstida faqat bitta javobli testlardan foydalanishning oqibatini ko'rsatmoqda.



4. *Moslashtirishni talab qiladigan test topshirig'i.* Ushbu metodikadagi testlar yopiq yoki ochiq tarzda berilishi mumkin. Bunda topshiriq shartiga binoan tushuncha va hukmlar o'zaro moslashtiriladi. Mazkur usuldagi topshiriqlar matnni o'qib tushunish jarayonidagi yuqori kognitiv jarayonlarni tekshirish imkonini beradi. Quyida mazkur metodikadagi topshiriqlarni tahlil qilamiz.

Berilgan ma'lumotlar va unga aloqador vizual ma'lumotlarni o'zaro moslashtiring.

ESLATMA! Javob variantlaridan ortiqchasi bor.

<i>Verbal ma'lumotlar</i>	<i>Vizual ma'lumotlar</i>
1. 2000 yilda erkaklarning o'rtacha umr davomiyligi____	A. 73.2 yosh
2. 2000 yilda ayollarning o'rtacha umr davomiyligi____	B. 70.8 yosh
	D. 68.4 yosh

Topshiriq yordamida grafik tasvirda vizual ifodalangan ma'lumotni ilg'ash, o'qiy olish tekshirilyapti. Mazkur test topshirig'iga ham ilk tajriba-sinovimizda aksariyat o'quvchilar to'g'ri javob bera olmagan. Boisi ushbu uslubdagi testga ilk bor duch kelishganidir.

5. *Qisqa javobni talab qiladigan test topshirig'i.* Bu ochiq turdagi test, matn mazmunidan kelib chiqib, aniq mazmunli, qisqa javobni talab etadi. Bu kabi testlarning imkoniyati nihoyatda keng, lo'nda javobni talab etadigan barcha ko'nikmalarni tekshirish mumkin.

2018-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston aholi soni bo'yicha dunyoda nechanchi o'rinda turadi?

Javob: _____

Bunday topshiriqlardan o'quvchining o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda foydalanilsa, ularda kerakli ma'lumotni axborotlar ichidan qidirib topa olish layoqatini shakllantiradi.



6. *Ochiq qoldirilgan o‘rinlarni to‘ldirishni talab etadigan test topshirig‘i.* Bu ham ochiq testlar sirasiga kiradi. Bu uslubdagi test topshiriqlari yordamida so‘z darajasidagi ma‘lumotni tushuna olish tekshiriladi. Quyida xuddi shunday testlardan ayrimlari bilan tanishamiz, tahlil qilamiz.

Matnda ajratib ko‘rsatilgan o‘ringa quyida berilgan so‘zlardan mazmuniy va grammatik jihatdan eng mosini qo‘ying.

HAYDOVCHILIK GUVOHNOMASI

Birinchi avtomobil Germaniya ko‘chalarida paydo bo‘ldi, lekin haydovchilarning _____[1] tufayli tez-tez ko‘ngilsiz voqealar ro‘y bera boshladi. Shunda Germaniyada _____[2] jurnallardan biri shunday taklif kiritadi. Unga ko‘ra politsiya mashina egasiga guvohnoma berishdan oldin uning mashina haydashni bilish-bilmasligini tekshirib ko‘rishi va shundan so‘nggina guvohnoma berishi kerak bo‘ladi. Dunyoda birinchi haydovchilik guvohnomasi shu tariqa Germaniyada 1910-yildan boshlab joriy etilgan.

Hushyor bo‘lmagan, iste’dodsiz ekanligi, tajribasizligi, beso‘naqay ekanligi, chop etiladigan, yoziladigan, taqdimot qilinadigan, berilgan.

Ushbu topshiriq orqali so‘z ma’nolarini tushunish va grammatik shakllarini hal qilish, ularni to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmalari tekshirilmoqda. Umuman, matnni, unda qo‘llangan birliklarni leksik va grammatik jihatdan to‘g‘ri hal etish baholanmoqda.

7. *Kengaytirilgan javobni talab qiladigan test topshirig‘i* ham ochiq testlar sirasiga kiradi. Bu uslubdagi test topshiriqlari yordamida *matn darajasidagi ma‘lumotni tushuna olishi hamda anglash* tekshiriladi. Ushbu uslubdagi test topshiriqlari metakognitiv jarayonni tekshirishga xizmat qilishi bilan alohida ahamiyatli. Quyida xuddi shunday testlardan biri bilan tanishamiz, tahlil qilamiz.

Muallif hikoyada “O‘zbekning soddasi” deb kimni nazarda tutyapti? Bu soddalikmi?




ESLATMA. *Fikrlaringizni lo'nda, ixcham ifodalang, 20 ta so'zdan oshib ketmasin.*

Javob: _____

Mazkur test topshirig'i orqali o'quvchining matn g'oyasini anglash; o'quvchining avvaldan mavjud bilimi hamda matndan olingan ma'lumotni ma'lum darajada integratsiyalash; matn bilan ishlayotganda o'zlarining shaxsiy fikrlari va tajribalaridan foydalana olish; matndagi ma'lumotlarni tashqi ma'lumotlar bilan bog'lab tahlil qila olish; matndan olingan ma'noni o'zining borliq haqidagi tasavvurlari bilan bog'lash kabi ko'nikmalarini baholanyapti. Bunday uzun javobni talab qiladigan topshiriqlardan minglab talabgorlar ishtirokida o'tkaziladigan summativ baholashda foydalanish o'quvchilarning javoblarini tekshirishda ko'p vaqt sarflanishiga olib keladi.

Shular bilan birga, o'quvchilarda o'qib tushunish malakasini rivojlantirish va baholashda sermahsul bo'lgan quyidagi uslubdagi test topshiriqlaridan ham foydalanish mumkin:

1. Rasmi test topshiriqlari. Ularda muayyan falsafiy mazmun tashiydigan suratlar orqali o'quvchilarning ko'rgan voqelikni tushunishi tekshiriladi. Bunday topshiriqlardan foydalanish o'quvchida hayotda duch keladigan real voqelikni anglashi, vaziyatga mos harakatlanishi kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi.



Ushbu suratni tomosha qilib, nimani tushunganingizni lo'nda qilib yozing.

Javob: _____

Mazkur topshiriqni bajarish uchun o'quvchi ko'rgan suratining mazmunini anglashi uchun hayotiy tajribalari va tushunganlarini



integratsiya qilishi lozim. Bunday topshiriqlardan foydalanish o‘quvchi tasavvur olamining kengayishi, tafakkur darajasining yuksalishiga olib keladi.

2. *Xatoni to‘g‘rilash testlari.* Ularda parcha tarkibida xato shakllantirilgan gaplarni, birikmalarni to‘g‘rilash so‘raladi.

Quyidagi parchada ajratib ko‘rsatilgan mazmunan va grammatik jihatdan noto‘g‘ri shakllantirilgan gapni to‘g‘rilang.

Joriy yilda jamoat transportini rivojlantirish borasida bir qancha ishlar amalga oshirildi, taksi xizmatini joriy etishning qonuniy tartiblari belgilandi. Shu o‘rinda shuni ta’kidlashimiz kerakki, **litsenziyasiz yo‘lovchilarni tashish qonunga xilof.**

Javob: _____

Bunday topshiriqlar orqali o‘quvchida matnning grammatik tuzilishini anglashi tekshiriladi. Shuningdek, bunday topshiriqlardan foydalanish o‘quvchida jumla tuzish, matnni grammatik va mazmuniy butunlik sifatida his qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

3. *Chizmalı test topshiriqlari.* Ularda matnning mazmuniy bloklarini ifodalagan tayanch tushunchalar raqamlangan chizmalarda beriladi. Mazkur tayanch tushunchalarni matn mazmuniga mos tarzda ketma-ket joylashtirish so‘raladi.

“Oq, oydin kechalar” hikoyasida keltirilgan tushunchalarni asar mazmunidagi o‘rnidan kelib chiqib ketma-ketlikda joylashtiring.

1 oymomo 2 bodom 3 qizcha 4 yulduzlar 5 oftob

Javob:

Bunday topshiriqlar orqali o‘quvchida matnni mazmuniy bloklarga ajratish ko‘nikmasi tekshiriladi. Bu kabi testlardan foydalanish o‘quvchida matn tarkibidagi har bir birlikning matndagi o‘rnini anglash, matnni qismlarga ajratish, uni mazmuniy butunlik sifatida anglash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Umuman, xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarning ona tilidagi matnlarni o‘qib tushunish malakasini baholash jarayonida foydalaniladigan topshiriqlar mazmuni va metodikasiga alohida e‘tibor berish shart. Mazmunga mos topshiriqni tanlash o‘quvchining kognitiv darajasini to‘g‘ri tashxislash, baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullajonova R., Ne‘matov M., O‘quvchilarning bilish darajasini aniqlash. //Xalq ta’limi axborotnomasi. – T., 1995. № 1–2. –12–14-b.
2. Arziqulov A., O‘qitish va bilimlarni o‘lchashda sikllardan foydalanish. //Xalq ta’limi axborotnomasi. – T., 2000. № 3. – 108–109-b.
3. Asilova G. A. Umumiy o‘rta ta’limda tanlash usulidagi testlardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari: ped.fan. nomz. ... dis. – T., 1998. – 137 b.
4. Azimova I. Ona tili ta’limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. //Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti. Respublika III an’anaviy ilmiy-anjuman materiallari. – T., 2019. – 215–224-b.
5. Gulboyev A. T. Pedagogik tashxis vositasida o‘qituvchilar malakasini uzluksiz oshirish: ped. fan. nomz. ...diss. – T., 2010. – 130 b.
6. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. – T., Akademnashr, 2020. – 252 bet.
7. Mavlonov O. O‘quvchilar bilimini baholashning ochiq test uslubi. //Xalq ta’limi. 1995-yil, 3–4-son, 114–118-b.
8. Mengliyev B., Suvonova X. “Ona tili”ni emas, “Ona tili”dan o‘rgatish kerak. O‘zbekiston: til va madaniyat. //Til va adabiyot ta’limi. 2017-yil 6-son. 56–61-b.
9. Nosirova M. O‘quvchilar bilimini modulli baholash texnologiyasi. // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2000. № 4. – 112–115-b.
10. Rasulov B., Test va testga yaqin uslubiyatdan foydalanish. //Xalq ta’limi. – T., 1995. № 1–2. – 19–20-b.
11. Safarova R. G‘. Milliy tiklanish sharoitida O‘zbekiston maktablarida ona tili ta’limi nazariyasi va amaliyoti. ped. fan. dok. ... diss. – T., 1998. – 236 b.
12. Sharopov O. Didaktik testlar mazmuniy validligini oshirish. //Xalq ta’limi. – T., 1996. № 5. – 42–49 b.
13. Dylan Viliam. Assessment: The Bridge between Teaching and Learning. // National Council of Teachers of English. Volume 21, Number 2, December 2013. – P. 15–20.
14. Kumaravadivelu B. Beyond Methods: Macrostrategies for Language Teaching. Yale University Press, 2003.



Bosh muharrir:
Qunduzxon Husanboyeva
Pedagogika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

1. Qodirov Valijon - pedagogika fanlari doktori, professor
2. Hamroyev G'ofir - pedagogika fanlari doktori, tadqiqotchi professor
3. Yusupov Qonishbay - pedagogika fanlari doktori, professor
4. Mavlonova Klara - pedagogika fanlari doktori, dotsent
5. Qambarova Saodat - pedagogika fanlari doktori, dotsent
6. To'ychiyeva Mahfuza - pedagogika bo'yicha falsafa doktori, dotsent
7. Hazratqulov Mutallib - pedagogika bo'yicha falsafa doktori, dotsent
8. Nurmuhammadov Jamoliddin - Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi bosh mutaxassisi
9. Yusupjonova Nazokat - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
10. Tuxliyeva Dilfuza - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
11. Hasanova Kibriyo - pedagogika fanlari nomzodi, professor
12. Turdaliyev Dilshod - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
13. Mahmudov Ravshan - falsafa fanlari nomzodi, professor
14. Shohruh Abduraimov, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
15. Valiyeva Mahmuda - Yunusobod tumani 274-maktab oliy toifali ona tili va adabiyot o'qituvchisi
16. Namoz Rasulov - Respublika Ta'lim markazi bosh mutaxassisi

“METHODIST” ILMIY-INNOVATSION, METODIK JURNALI TA'LIMIY, ILMIY-INNOVATSION NASHR BO'LIB, BIR YILDA 6 MARTA CHOP ETILADI.

Tahririyatga kelgan maqolalar Tahrir hay'atining tavsiyasiga binoan jurnalda e'lon qilinadi. Nashr etilmagan maqolalar tahlil qilinmaydi.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahri Yakkasaroy tumani Dilbuloq MFY Shota Rustaveli ko'chasi 1-uy.

Jurnal direktori: Xolsaidov F.B.

*Bosishga 24.02.2024.da ruxsat etildi. Bichimi 60x90. “Cambria” garniturası.
Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 10. Nashr bosma tabog'i 10.
Adadi 200 nusxa.*

*“METHODIST NASHRIYOTI” MCHJ matbaa bo'limida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri Shota Rustaveli 2-vagon tor ko'chasi 1-uy.*



+99893 552-11-21

Nashriyot rozilgisiz chop etish ta'qiqlanadi.



